

ID 29533
2

ONA TILI

10



G'. ABDURAHMONOV, H. RUSTAMOV

ONA TILI

10- SINF UCHUN DARSLIK

Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri

*O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan*

TOSHKENT „O'QITUVCHI“ 2003

443(025)

Mas'ul muharrir
filologiya fanlari nomzodi, dotsent **M. Qodirov**


Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktori, professor **R.R. Sayfullayeva**,
Farg'ona shahar 26- o'rtta maktab o'zbek tili va adabiyoti
o'qituvchisi **M. Rahmonova**

SHARTLI QISQARTMALAR

- | | |
|-----------------------------------|------------------------------------|
| <i>A.O.</i> — Abdulla Ori pov | <i>N.S.</i> — Nazir Safarov |
| <i>As.M.</i> — Asqad Muxtor | <i>O.</i> — Oybek |
| <i>A.Qod.</i> — Abdulla Qodiriy | <i>O.Y.</i> — Odil Yoqubov |
| <i>E.J.</i> — Ergash Jumanbulbul | <i>P.M.</i> — Po'lat Mo'min |
| <i>E.V.</i> — Erkin Vohidov | <i>R.B.</i> — Ramz Bobojon |
| <i>Gaz.</i> — Gazeta | <i>R.F.</i> — Rahmat Fayziy |
| <i>Hab.</i> — Habibiy | <i>S.A.</i> — Sadriddin Ayniy |
| <i>H.H.</i> — Hamza Hakimzoda | <i>S.Abd.</i> — Sami Abduqahhor |
| <i>H.N.</i> — Hakim Nazir | <i>S.Akb.</i> — Sulton Akbariy |
| <i>H.O.</i> — Hamid Olimjon | <i>S.Ahm.</i> — Said Ahmad |
| <i>H.P.</i> — Hasan Po'lat | <i>T.M.</i> — Tohir Malik |
| <i>H.G'.</i> — Hamid G'ulom | <i>U.</i> — Uyg'un |
| <i>J.Jab.</i> — J. Jabborov | <i>O' H.</i> — O'tkir Hoshimov |
| <i>Mirm.</i> — Mirmuhsin | <i>O' R.</i> — O'tkir Rashid |
| <i>M.</i> — Muqimiy | <i>G' G'</i> — G'afur G'ulom |
| <i>M.A.</i> — Muxtor Avezov | <i>Sh.</i> — Shukrullo |
| <i>M.I.</i> — Mirzakalon Ismoilii | <i>Sh. R.</i> — Sharof Rashidov |
| <i>M. Sh.</i> — Maqsud Shayxzoda | <i>Ch.</i> — Cho'lpon |
| <i>N.</i> — Navoiy | <i>Ch. Ayt.</i> — Chingiz Aytmatov |

10



10 29533
2

4306020200 - 80
A buyurtma varag'i — 2003
353(04) — 2003

ISBN 5-645-04059-7

© „O'qituvchi“ nashriyoti, 2003



SO'Z BOSHI

10- sinflar uchun mo'ljallangan ushbu darslik 5—9- sinflarda ona tilidan olingan ma'lumot va bilimlarga asoslab tuzildi. Grammatik qoidalarga maxsus to'xtab o'tilmadi, ammo o'tilgan qoidalarining eng muhimlari qaytarildi va yangi mavzular berildi.

Asosiy maqsad — o'quvchilarning bog'lanishli og'zaki va yozma nutqini o'stirish ekan, til qoidalarini eslamasdan iloji yo'q. Shuning uchun o'tgan mavzular har mavzudan so'ng sinov savollari berish, test savollariga javob talab qilish, rasmiy hujjatlar tuzish va yozma ishlar o'tkazish yo'li bilan qaytariladi, mustahkamlanadi. Shu bilan birga, darslikdagi mavzular bo'yicha o'zlashtirishni tekshirishda har bir mavzudan so'ng berilgan test topshiriqlaridan foydalanish bilan birga, ular asosida o'quvchilarga mustaqil ravishda testlar tuzish topshirig'i berilishi ham mumkin. Inshodan o'quvchining yozma nutqi va fikrlashi aniqlanadi, shuning uchun inshoni chorak oxiridagina emas, chorak davomida ham o'tkazish lozim. Diktant o'quvchining savodxonligini ko'rsatuvchi hujjat bo'lsa, uni ham tez-tez o'tkazib turish zarur.

Mashqlar va topshiriqlar yangi mavzunigina emas, o'tilgan qoidalarni eslash va mustahkamlashni ham ko'zda tutadi. Agar mashq va topshiriqlar ko'p bo'lsa, tanlab olish yoki ulardan turli sinflarda foydalanish mumkin.

Har bir darsning yaxshi o'zlashtirilishi, eng avvalo o'qituvchiga bog'liq: o'quvchilarning o'zlashtirishiga qarab o'qituvchi ayrim mavzularga ko'proq, ayrimlariga ozroq soat ajratishi mumkin. O'qituvchi qo'shimcha ma'lumotlarni darslikning oxirida berilgan ilovadan olishi mumkin.



I. MUSTAQILLIK — OLIY NE'MAT

„Bu ne buyuk baxtki, bugungi kunda dunyo xaritasida O'zbekiston davlati paydo bo'ldi!“

(O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov)

O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1991-yilning 31-avgustdagi VI sessiyasida *O'zbekistonni Mustaqil davlat* deb e'lon qildi va 1-sentabr Mustaqillik kuni etib belgilandi. Oliy Kengashning 1991-yil VII sessiyasida *O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i*, 1992-yil X sessiyasida *Davlat gerbi* (tamg'asi), shu yil 8-dekabr XII sessiyasida *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*, 10-dekabrda *Davlat gimni* (madhiyasi) tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasini **200 ga yaqin davlat tan oldi**, 50 dan ortiq davlat O'zbekistonda o'z elchixonalarini ochdi.

O'zbekiston davlati 1991-yil 21-dekabrda **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining** a'zosi bo'ldi. 1992-yil 2-martda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

1- topshiriq. „Mustaqillik sharofati“ mavzusida insho yozing.

ONA TILIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH

2- topshiriq. Quyida berilgan til haqidagi hikmatli so'zlarni muhokama qiling. Ona tilining hayotingizda, ayniqsa, o'quv fanlarini o'zlashtirishda sizga qanday yordam berganini o'z so'zingiz bilan izohlab bering.

1. Ko'ngil daryosining gavhari tildir, til gavhardan afzal va martabasi balanddir. (N.) 2. Ki so'z zodayi tab'i farzand erur, Chu farzand erur jonga payvand erur. (N.) 3. So'z — inson tabiatining ishvagar dilbari, u ko'zga ko'rinmaydigan parisifat bir nozanindir. (N.) 4. Xushgo'yki so'zni rifq va muvaso bila aytqay, Ko'ngilga yuz g'am keladiring'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. (N.)

5. So'zdadur har yaxshilikki, imkoni bor, Mundin debdurlarki, nafasning joni bor. (*N.*) 6. Muloyim takomil vahshiylarni ham ulfat sari boshqarur. (*N.*) 7. Necha biyik aylasang so'zungni, Ondin biyik etgaysan o'zungni. (*N.*) 8. Oftob bilan oy ham so'z ila ravshan, Falak aylanishi ham, bilgil, so'z bilan. (*A. Jomiy*) 9. Har birimiz bizni voyaga etkazgan, bizga eng bebaho boyligini — tilini hadya etgan onalar oldida qazdormiz. Tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchimizni ado etgan bo'lamiz. (*Ch. Ayt.*) 10. Ona tilim, jon tilim, Sensiz men so'ladirman, Devona bo'ladirman, Tuqqanimga yetti yot, begona bo'ladirman. (*Sh. Qurbonov*)

1- mashq. Yuqoridagi topshiriqda berilgan gaplardagi sizga ma'nosi notanish bo'lgan so'zlarni ajrating. Lug'at daftaringizga yozing, izohlang. Bunda turli adabiyotlardan foydalaning.

3- topshiriq. Til to'g'risidagi maqollardan toping va yozing.

4- topshiriq. Til so'zining anglatgan (o'z va ko'chma, omonim tarzidagi yo ibora holatidagi) ma'nolarini sanang, tushuntiring.

5- topshiriq. Quyidagi mashqda berilgan gaplarni o'qing. Ularning mazmunini o'z so'zingiz bilan tushuntiring.

2- mashq. Berilgan jumalardagi sodda va qo'shma gaplarni toping.

1. Til kishini baxtli qiladi. Til kishini xor-zor ham qiladi. Til tufayli odamning boshi ham ketadi. Ikki narsa bilan kishi qarimaydi: biri — ezgu xulq, biri — yaxshi so'z. (*Yusuf Xos Hojib*) 2. So'zdurki, nishon berur o'likka jondin, So'zdurki, berur jong'a xabar jonondin, Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim guhari sharifroq yo'q ondin. (*N.*) 3. Tilshunoslarning Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan kongressida professor Karlo Talyavini hammani hayratda qoldirdi. U minbarga chiqib, 50 tilda birin-ketin tabrik nutqi so'zladi. Talyavini — filologiya fanlari doktori, jahondagi 50 ta fanlar akademiyasiga a'zo. U yetti yoshidayoq boshqa tillarni o'rganishga ishtiyoq ko'rsatgan: 12 yoshida yetti tilni bilgan, 22 yoshida 15 tilni bilgani uchun unga doktorlik diplomi berilgan.

Talyavini ayni vaqtda 120 tilni biladi. Yevropa tillari shevalarida ham bermalol gaplashaveradi. Olim har yili 3—4 tilni o'rganadi. U qanday qilib bunchalar ko'p til bilish iqtidorini egalladi? 4. Inson so'zlash qobiliyati tufayli tafakkur sohasida odamzod unga nima qoldirgan bo'lsa, hammasini bilib olishi mumkin. Shu qobiliyati tufayli inson o'zgalardan o'rgangan va o'zida paydo bo'lgan fikrni zamondoshlariga va avlodlariga bera olishi ham mumkin. 5. Har kishiningkim so'zi yolg'on esa, Aylama bovar nechakim chin desa. (N.) 6. Ko'p til bilish bir qulfning ko'p kalitiga ega bo'lish demakdir. (*Volter*)

6- topshiriq. Quyidagi jummalarni tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. Sodda va qo'shma gaplarni aniqlang.

Yoshlarni yuksak g'oyalar chin insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish katta jasoratdir. Buning uddasidan chiqa olgan kishilarga sharaf tojini kiygizib har qancha tashakkur hadya etsak va ulardan bir umr minnatdor bo'lsak ham ozlik qilur.

Pir-u badavlat kishilar hayotning barcha tashvishlarini mashaqqatlarini boshidan kechirgan turmush tarzining ajoyib sohiblaridir. Ularning umr bo'yi yig'gan qutlug' tajribasi bamisoli bir xazina. Bundan barakali bahramand bo'lish yoshlarga hayotiy dasturulamaldir.

Agar biz yoshi ulug' kishilardan so'rasalar navqiron nasllarga biror soha mutaxassis kasb-korligi bo'yicha bilimga ega bo'l o'z ustingda tinmay ishla izlan aql-u idrokingni takomillashtirib bor odob-axloqda benazir bo'l xalqning yaxshi udumlarini hurmat qil to'y-tomoshalarga qatnash ta'ziya marosimlaridan sira qolma do'st-u birodar va umuman odamlarga g'amxo'r hamdard bo'l shunda qalbing hamisha charog'on bo'ladi chehrangdan quvonch arimaydi yaxshilik nashidasidan o'zing ham halovat qilasan deb pand-u nasihat bergan bo'lur edik. (*Sh. Orifiy*)

Xorun ar-Rashiddan so'rabdilarkim Ey podshohim tasavvur qilg'ilkim sahroda yolg'iz qolib tashnalikdan azob chekyapsan. Senga bir qultum suv in'om etdilar evaziga nima berar eding. Xorun ar-Rashid javob qildiki Xazinam-

ning yarmisini berardim. Yana so'radilarkim Ey podshohim ichga kirgan bu bir qultum suvning chiqib ketmog'i ham bor. Chiqib ketmog'i uchun nimani bag'ishlar eding. Xorun ar-Rashid javob qildikim Xazinamning qolgan yarmini baxsh etgum. Shunda donolar dedilarkim U holda barcha boyligingning qimmatini bir qultum suvcha ekan (*T. Malik.*)

7- topshiriq. Tarjimayi holingizni yozing.

Quyidagi test savollarining javobini toping

1. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi nechta harfdan tashkil topgan?

- A. 30.
- B. 32.
- C. 28.
- D. 27.

2. Talaffuzda bir tovush tushib qoladigan so'zlar qaysi qatorda keltirilgan?

- A. Kitob, daftar, maktab.
- B. Dastxat, Samarqand, do'st.
- C. A'lo, ma'no, parashut.
- D. Piyola, yong'oq, da'vo.

3. Bir tovush 2 harf bilan ifodalangan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. Singil, ko'ngil, tenglama.
- B. Burungi, yakshanba, yahudiy.
- C. Xiyobon, burungi, yaylov.
- D. Menga, tovonga, burungi.

4. Qaysi qatordagi so'zlarning urg'usi ko'chsa, so'z ma'nosi o'zgaradi?

- A. Qoyalar, bog'lar, yangi.
- B. Oshiq, surma, atlas.
- C. Bahor, mudir, yaxshi.
- D. Hovli, zavqli, shaharda.
- E. Yulduz, jindek, jikkak.

5. Nahotki sizdan beso'roq ish tutsak-a... (A. Q.) Ushbu gapdagi yuklamaning mazmunini aniqlang.

- A. Ajablanish.
- B. So'roq.
- C. Ta'kid.
- D. His-hayajon.
- E. A va B.

6. Ritorik so'roq gap berilgan qatorni toping.

- A. O'qish qachon boshlanadi?
- B. Dadang qayerga borganini aytaymi?
- C. Salomat yuribsizmi, Bahromjon?
- D. Sut ko'r qilgur haromi gitler, oqpadar farzandning qadrini qayerdan bilsin?!
- E. Xo'sh, qanday yangiliklar bor? — dedi O'ktam.

7. Majoziy ma'no ifoda etgan sifatlovchi qatnashgan gapni aniqlang.

- A. Nuri goh sevinib, shirin xayollarga botadi.
- B. Qolgan ishga qor yog'ar.
- C. Haqiqiy do'st topsang, unga xiyonat qilma.
- D. Bir shirin so'z olamga asal bo'lib tuyular.
- E. Kumush choyshab yopib dalalar,
Qor qo'ynida uxlab yotadi.

8. Paronim so'zlar qatorini aniqlang.

- A. Ko'ylak — ko'ynak.
 - B. Vafo — jafo.
 - C. Shabada — shabboda.
 - D. Otaliq — otalik.
 - E. Kabutar — kaptar.
-



II. O'ZBEK ADABIY TILI

*Ona tilim, jon tilim,
Yuragimning qoshida
Sayrab turgan bulbulim.*

(Sh. Qurbonova)

1- §. Umumxalq tili va adabiy til



Bilib oling.

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tilidir. *Adabiy til esa* ma'lum bir til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan tildir.

Umumxalq tili kengroq hajmda bo'lib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar, ma'lum toifa (biror ijtimoiy guruh)ga oid so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin bo'lib, til qoidasiga asoslanmaydi.

Adabiy til barchaga tushunarli bo'lgan so'zlar, qo'shimcha ibora va gaplardan iborat bo'ladi. Adabiy til qoidalari —me'yorlarini belgilash uchun tilshunos olimlar sheva va lahjalarni o'rganadilar, umumga tushunarli til xususiyatlarini belgilab, an'anaviy adabiy til qonun-qoidalarini ham hisobga olib, zamonaviy adabiy tilni va uning me'yorlarini belgilaydilar. Adabiy tilda adabiy, ilmiy asarlar yoziladi, bu til matbuot, adabiyot va ilmiy asarlar tili, ma'ruzalar, so'zlashuv tili bo'lib qoladi.

Har bir davrda xalqning umumiy adabiy tili bilan birga, sheva va lahja tillari ham bo'ladi. Sheva va lahja ma'lum hududda yashovchi aholining tilidir (masalan, Toshkent shevasi, Farg'ona shevasi kabi).

3- mashq. Quyida berilgan adabiy va so'zlashuv tiliga xos matnlarni qiyoslang. Farqlarini so'zlab bering.

Tarixdan ma'lumki, Bobur Mirzo hazratlarining asosiy g'alabalari aynan shu farmondan — mayqatag'ondan so'ng

qo'lga kiritilgan. Yana tarixdan ma'lumki, Husayn Boyqaro boshqargan mamlakatni ayni shu ichkilik barbod qilgan. Ayni shu ichkilik (uni „chog'ir“ deb ataganlar) umidli va suyukli nabira Mo'min Mirzoning boshini uzgan.

Hindistonda bir yilda sakkiz marta yangi yil bayramini nishonlashadi. Masalan, shunday bayramlardan biri — Gudi Padva. Tantana ishtirokchilari ushbu marosimda qanchalar achchiq va taxir bo'lmasin nim-nim deb ataluvchi daraxt barglarini iste'mol qiladilar. Qadimiy hind qo'lyozmalarida aytilishicha, bu daraxt yaproqlari odamni kulfat va faqirlikdan asrarkan, hayoti esa shodon kecharkan.

Avstraliya xalqi ham dunyoning boshqa xalqlari qatori 1- yanvarni yangi yil bayrami sifatida nishonlaydilar. Lekin bu vaqtda qit'ada shunaqa ham issiq bo'ladiki, Qorbobo va Qorqiz sovg'alarni cho'milish kiyimlarida topshirishga majbur bo'lishadi.

Indoneziyada yangi yil bayrami oktabr oyida nishonlanadi. Hamma odamlar yangi kiyimlarini kiyib, yasanib oladilar va yil davomida o'zlari tomonidan sodir etilgan xafagarchiliklar uchun bir-birlaridan uzr so'raydilar. („*Huquq*“ gaz.)

2- §. Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi



Bilib oling.

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Shu kungacha respublikada 22 million xalq o'zbek tilida so'zlashadi. O'zbek millatiga mansub kishilar Afg'onistonda (*1 200 ming*), Qashqarda (15.000), Saudiya Arabistonida, Turkiya va AQSHda, Germaniya va boshqa yerlarda ham yashashadi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalarida o'zbek maktablari bor.

O'zbek (turkiy) tili qadimiy tillardan bo'lib, dastlabki yozma yodnomalar VI—VII asrlarga oiddir (O'rxun-Enasoy yozuvlari). Arablar istilosi davrida

(VIII asr) tilimizga arab tilining ta'siri kuchli bo'ldi, lekin tilimiz ijodkori — xalqimiz jon-jahdi bilan kurashib, o'z so'z lug'atini va grammatik qurilishini saqlab qoldi. Ayni vaqtda arab tilidan ko'plab so'zlar o'zlashtirildi. O'zbek (turk) tili o'z ichki imkoniyatlari bilan ham boyib bordi.

X—XI asrlardan boshlab bu tilda yirik asarlar yuzaga keldi. Mahmud Koshg'ariy („*Devonu lug'atit turk*“), Yusuf Xos Hojib („*Qutadg'u bilig*“), Ahmad Yugnakiy („*Hibatul haqoyiq*“) kabi donishmandlar o'z asarlari orqali ona tilimizning boyligini, ko'rkini ochib berdilar. Ahmad Yassaviy, Nosiriddin Rabb'uziy kabi buyuk adiblar o'zbek (turkiy) tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

XI—XV asrlarda Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Xorazmiy kabi shoirlar ham bu tilda go'zal asarlar yaratib, uni yanada boyitdilar.

XV asr ona tilimizning gullash davri sanaladi. Bu ulug' Navoiy ijodi bilan bog'lanadi. „Xamsa“, „Xazoyinul maoniy“ asarlari bilan Navoiy turkiy (o'zbek) tilini jahon miqyosiga olib chiqdi. U „Muhokamatul-lug'atayn“, „Majolisun-nafois“ kabi ilmiy-tanqidiy asarlari bilan turkiy (o'zbek) tilining qudratini, boyligini va nafisligini namoyish qildi, turkiy (o'zbek) tilda yozgani bilan nihoyatda faxrlandi:

Chun toptim ul kalom ichra kamol,
Turk alfozi bila surdim maqol,
Turk nazmida chu men tortib qalam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

XIX va XX asrlarda o'zbek tili yanada boyib bordi: XX asrning 20- yillaridan boshlab adabiyotimizga Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, H. Olimjon, G'. G'ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiya kabi iste'dodlar kirib keldi. Bu jarayon tufayli o'zbek tilining lug'at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi silliqlasha bordi. Bu davrda tilimiz lug'ati ancha boyidi, grammatik qurilishda ham yangi ifodalar (ajratish,

to'liqsiz gap, qo'shma gapning ayrim turlari, dialoglar) paydo bo'ldi. Shu bilan birga, turg'unlik izlari tilda ham ko'rindi. Ko'plab arab-fors so'zlari hech asossiz siqib chiqarildi, atamalar bo'lar-bo'lmasga rus-baynalmilal atamalar bilan almash-tirilaverdi. Bu hol ona tilimizning qadr-qimmatini tushirdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989- yil 21- oktabrda bo'lib o'tgan sessiyasida ona tilimizga davlat tili maqomini berish to'g'risidagi Qonun qabul qilindi. Bu — o'zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotidagi eng yirik voqealardan biri bo'ldi.

Milliy munosabatlarni yaxshilash maqsadida va osoyishtalikni ko'zlab, 1995- yil 21- dekabrda bu qonunga ba'zi o'gartirishlar kiritildi.

4- mashq. Turli davrlarda yozilgan asarlardan olingan parchalarni o'qib, qo'shimchalari o'zgargan o'rinlarni ayting. Sizga notanish bo'lgan so'zlarni ajrating va izohlang.

1. Kishi iki turluk kishi atanur,
Biri o'gratigli, biri o'granur,
Ikidan naru bari yilqi sani,
Tilasa muni tut, tilasa — uni.

(Yusuf Xos Hojib)

2. Janubiy tarafidag'i kasabalardan biri Andijondurkim, vasatta voqe' bo'lubtur. Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshvatisidin yaxshiroq noshvati bo'lmas. Andoq rivoyat qilurlarkim, bir qirg'ovulni(ng) uskunasini to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Lafzi qalam birla rostdur. Ani uchunkim Mir Alisher Navoiyning musanofoti vovujudkim, Hirida nash'u namo topib, bu til biladur. (*Zahiriddin Bobur*)

8- topshiriq. Quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang: *munshiy, devonxona, mufti, majmua, mirzo*. („Mehrobdan chayon“)

9- topshiriq. *Pichoq* (bich—oq), *quloch* (qul—och), *supur* (suv—ur), *yomg'ir* (yog'—mur) so'zlari bugungi tilimizda qismlarga (o'zak va qo'shimchaga) ajralmaydi. Sababini tushuntiring.

5- mashq. O'zbek tilining dunyo tillari tasnifidagi o'rmini aytib bering.



Bilib oling.

O'zbek tilshunosligining o'z rivojlanish tarixida erishgan yana bir yutug'i — u fan tarzida o'zining fonetikasini, morfologiyasini, til qurilishi sistemasini (sintaksis), yozuv (imlo) qoidalarini mukammallashtirdi, uslub me'yorlarini ishlab chiqdi. Til tarixidan ma'lumki, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy kabi daholar ham o'zbek (turk) tilining ayrim qonuniyatlari bilan qiziqishgan va qimmatli fikrlar qoldirishgan.

XI asrda Mahmud Koshg'ariy Markaziy Osiyodagi turkiy qabilalarning tilini tahlil qilgan „Devonu lug'atit turk“ asarini yaratdi.

Alisher Navoiy o'zining „Muhokamatul-lug'atayn“ asarida fors-tojik va o'zbek tillarini solishtirib, ona tilimizning boyligini, nafisligini, yasovchilarning ma'no bo'yoqlarini tavsiflab berdi.

XIX asrda o'zbek tilida dastlabki o'qish kitoblari va amaliy grammatika qo'llanmalari yuzaga keldi. Bu ish XX asrda yana keng tus oldi.

XX asrning 20- yillari A. Fitrat o'zbek tilining sarf (morfologiya) va nahv (sintaksis) sohalarini tahlil qildi. Elbek, A. Zohiriy kabi olimlar o'zbek tilining turli sohalarini tahlil qildilar. Bu davrda, ayniqsa o'zbek shevalari keng o'rganildi. A.K. Borovkov, E.D. Polivanov, F. Abdullayev, A. G'ulomov, H. G'oziyev, S. Ibrohimov, S. Mutalibov, S. Usmonov, Z. Ma'rufov, G'. Yunusov, U. Tursunov, T. Ibrohimovlar bu sohada katta xizmat qildilar. O'zbek imlosi va tinish belgilari, fonetika va grammatikasi bo'yicha asarlar yozildi. Fanlar akademiyasi qoshida til-adabiyot ilmiy-tekshirish instituti tashkil etildi. Universitetlar, pedagogika institutlarining o'zbek tili

kafedralari oliy va o'rta maktablar uchun ona tilidan darslik, qo'llanmalar yaratish yo'lida katta ishlar qildilar.

Bu davrda 14 jildlik qomusiy lug'at, 2 jildlik izohli lug'at, 5 jildlik ruscha-o'zbekcha lug'at, o'nlab atama lug'atlari, 2 jildlik akademik grammatika, bir necha tilli lug'atlar, dialektologik lug'at va to'plamlar nashr qilindi. Orfoepik va orfografik lug'atlar bosib chiqarildi. Hozirgi kunda ko'p jildli o'zbek tilining izohli va qomusiy lug'atlari tayyorlanmoqda.

6- **mashq.** O'qing, sizga notanish so'zlarni ajrating, ularning sinonimlarini toping.

1. Shoirming ikki vatani: biri ochun, biri dunyo. (*E. V.*)
2. Yosh deng-u ma'zur tuting, Sahv o'lsa gar devonda. (*E. V.*)
3. Sayyohni yetaklamak o'g'il-qiz vazifasi; Otalar dasturxonlar ustida bakovul. (*G'.G'.*)
4. Yor vasliga quvondim — quvdi ko'yidin meni, ey Navoiy, hech kishi davlatga mag'rur o'lmasin. (*N.*)
5. Kahrabodek sap-sariq sabzi pichoq ostidan ipak singari taralib chiqar edi. (*As. M.*)

7- **mashq.** Quyidagi matndan shevalarga oid so'z va qo'shimchalarni topib, ulatning adabiy tildagi shaklini ayting.

Ertalap eshiy tegida o'tirgan Apandidan o'tip ketvotkan qo'shnisi so'rapti: — Apandim, kechasi minnima hovlizda gupillap kettimi? — Ha, — dipti Apandi, — kechasi tomda yotkanidim, choponim chuship ketti. — Choponam shunaqa gupillap chushadimi tomdan? — hayron bo'p so'rapti qo'shnisi.

— Aqlingga qoyilman-e, — dipti Apandi kuli p, ichida odami bo'gandan keyin tomdan choponam ando gupillap chushsinki, e-vallo digin. (*Toshkent shevasi*)

Savollar

1. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti haqida nima bilasiz?
2. Respublikamizda o'zbek va boshqa tillarga munosabat haqida so'zlab bering.
3. Shevalarning qanday xususiyatlari bo'ladi?

3- §. O'zbek adabiy tilining bo'limlari



Bilib oling.

O'zbek adabiy tilining bo'limlari:



8- mashq. Yuqoridagi jadvalni kuzating. Adabiy til bo'limlarini sanang. Har bir bo'lim tilning qaysi sohalarini o'rganishini izohlab bering.



Bilib oling.

Adabiy tilning **fonetika** bo'limi tovushlar tizimini, **leksika** so'zlarning ma'nolarini, **morfologiya** so'z tarkibi va so'z turkumlarini, **sintaksis** so'z birikmalari va gaplarni o'rganadi.

Amaliy jihatdan adabiy tilning alifbosi, imlosi, to'g'ri talaffuzi, tinish belgilari va uslubi bayon qilinadi.

Adabiy tilning har qaysi bo'limi o'z qoida-qonunlariga ega. Bu qoida-qonunlar adabiy til me'yorlari deyiladi.

10- topshiriq. „O'zbek tilim — jon-u dilim“ mavzusida insho yozing.

Quyidagi test savollariga berilgan to'g'ri javoblarni toping

1. Adabiy tilning qanday tarmoqlari bor?

- A. Yozma.
- B. Og'zaki.
- C. So'zlashuv.
- D. Sheva.
- E. A va B.

2. Qaysi qatorda adabiy tilning yozma shakli uchun xos bo'lgan xususiyat noto'g'ri ifodalangan?

- A. Yozma nutq kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi bo'ladi.
- B. Yozma nutq imlo va tinish belgilariga amal qiladi.
- C. Yozma nutq shakli og'zaki shakldan keyin kelib chiqqan.
- D. Yozma nutq uchun masofaning ahamiyati yo'q.
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

3. Og'zaki nutqning qonun-qoidalarini tilshunoslikning qaysi bo'limi o'rganadi?

- A. Leksikologiya.
- B. Morfologiya
- C. Sintaksis.
- D. Uslubshunoslik.
- E. Orfoepiya.

4. Shevaga xos so'zlar qaysi qatorda berilgan?

- A. Maktab, non, uzum.
- B. Kecha, bugun, erta.
- C. Biz, siz, men.
- D. Bivi, shoti, shakarob.

5. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi sheva asos qilib olingan?

- A. Qarluq.
- B. Qipchoq.
- C. O'g'uz.
- D. A va B
- E. A, B, C.

6. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

- A. Fonetik.
- B. Leksik.
- C. Morfologik.
- D. Sintaktik.
- E. A, B, C, D.



III. ALIFBO VA IMLO

*Alifbodur xat-u savod beshigi,
U birlan ochilur bilim eshigi.
Ko'zlarning nuri-yu dillar g'ururi,
U birlan zohirdur ellar shuuri.*
(R. Jumaniyozov)



Bilib oling.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida (2- sentabr 1992- yil) „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida“ Qonun qabul qilindi.

Yangi o'zbek alifbosini joriy qilish 1994—2005-yillarga mo'ljallandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995- yil 24- avgustdagi qarori bilan „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ tasdiqlandi. Qarorda davlat idoralariga, ommaviy axborot vositalariga lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini targ'ib qilish va joriy qilish topshirildi.

1- §. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi




Esda tuting.

Yangi o'zbek alifbosidagi o'zgarishlar:

- 1) ayrim harflarning shakli;
- 2) harflar sirasi;
- 3) ayrim undoshlar ikki harf birikmasi orqali ifodalangan (*sh—ш, ch—ч, ng—нг*);
- 4) **o** harfi orqa qator keng unlini (*ona, omon*) va o'zlashma so'zlarda orqa qator o'рта keng unlini (*boks, talon*) ifodalaydi.

Jj harfi ham ikki xil tovushni: til oldi jarangli qorishiq undoshni (*jon, rivoj*) va til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni (*jurnal, gijda*) ko'rsatadi.



Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	<i>Aa</i>	a	Qq	<i>Qq</i>	qe
Bb	<i>Bb</i>	be	Rr	<i>Rr</i>	er
Dd	<i>Dd</i>	de	Ss	<i>Ss</i>	es
Ee	<i>Ee</i>	e	Tt	<i>Tt</i>	te
Ff	<i>Ff</i>	ef	Uu	<i>Uu</i>	u
Gg	<i>Gg</i>	ge	Vv	<i>Vv</i>	ve
Hh	<i>Hh</i>	he	Xx	<i>Xx</i>	xe
Ii	<i>Ii</i>	i	Yy	<i>Yy</i>	ye
Jj	<i>Jj</i>	je	Zz	<i>Zz</i>	ze
Kk	<i>Kk</i>	ke	O'o'	<i>O'o'</i>	o'
Ll	<i>Ll</i>	el	G'g'	<i>G'g'</i>	g'e
Mm	<i>Mm</i>	em	Sh sh	<i>Sh sh</i>	she
Nn	<i>Nn</i>	en	Ch ch	<i>Ch ch</i>	che
Oo	<i>Oo</i>	o	Ng ng	<i>Ng ng</i>	hge
Pp	<i>Pp</i>	pe			tutuq belgisi

9- mashq. Ma'noni farqlashga xizmat qiluvchi undosh va unli tovushlarni ko'rsating, ma'no farqlarini tushuntirib bering.

Tambur—tanbur, ruh—rux, ijobiy—ijodiy, hol—xol, hal—xal, tor—dor, bil—bel, ta'na—tana, ko'z—kuz, tong—tang, may—moy, sof—saf, sada—sado, somon—saman, oxir—oxur, artmoq—archmoq.

10- mashq. Nuqtalar o'rniga mos harflarni qo'yib ko'chiring.

darax., sus., Toshken., qan., g'ish., do's., pas., mush., pisan., monan. .

11- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib, ko'chiring.

Ko'p u.lamoq yomon odat: badanni sus. qiladi, so.lom yuzni kasalga o'shatib qo'yadi. To'satdan kelgan g'am, qa.r-g'aza. odamning yuzini o'zgartiradi.

U.lamaslik ham zarardir. Agar odam uch kecha-kunduz u.lamasa, yomon .avf tug'iladi. Donishman.larning

aytishicha, bir sutkaning uch.an ikki qismini ro'z .or ishi bilan, me.nat va o'qish bilan o'tkazish, bir qismini esa u.lash va charchagan a'zolarga dam berishga bag'ishlash lozim. Jo.illar esa ushbu 24 soatning yarmini uyqu bilan o'tkazadilar. Tan uyquda bo'lsa, kishining hamma a'zosi ishlamay qoladi: qulo. so'z eshitmaydi, ko'z hech narsani ko'rmaydi, burun is bilmaydi, o.iz maza sezmaydi, qo'l yumsho. yoki qatti.ni, og'ir va yengilni bilmaydi.

Kechasilik uyquni kunduz .a aylantirish ham hikmatdan emas. Erta turishni odat qil, o'z ishing.a mash.ul bo'l. („Qobusnoma “dan)

12- mashq. Nuqtalar o'rniga **x—h** harflaridan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Me...natsiz ro...at yo'q. 2. Barvaqt qilingan ...arakat, ...osilga berar barakat. 3. ...urmat qilsang, ...urmat ko'rasan. 4. Kambag'alning ba...ti boyning ta...tini yiqitar. 5. Zolimning joyi ja...annam. 6. Ilonning za...ri yomon. 7. ...alqqa suyansang bo'lasan, ...alqdan chiqsang so'lasan. 8. Tinchliging — ...urliging. 9. De...qon bo'lsang, kuz ...ayda, kuz ...aydamasang, yuz ...ayda! 10. Yer — ...amir, o'g'it — ...amirturush. 11. Yer — ...azina, suv — gav...ar. 12. ...unar — zar, ...unarsiz — ...or.

13- mashq. Quyidagi so'zlar alifbo tartibi bo'yicha qanday joylanishi kerakligini ayting.

Gulshan—gulchi, yot—yod, xiyla—hiyla, tilla—tila, she'r—sher, tana—ta'na.

14- mashq. O'qing. So'zlarni alifbo tartibida ko'chiring.

Anor, anjir, bog', bug'doy, bahor, kuz, paxta, dala, yoz, zavod, Kattaqo'rg'on, mashina, mosh, mayiz, nok, charos, sholi, qish, husayni, sabzi, sholi, uzum, kish-mish, qish, G'ulomjon, agronom, agrotexnika, agent, agrobiologiya, telegraf, tipografiya, teploxod, ekskavator.

15- mashq. Gaplarni o'qing. **ng** birikmasining bir yoki ikki tovushni ifodalayotganini ayting.

1. Birlashgan kuch yengilmas. 2. Mardni mehnat yengolmas. 3. Ochiq derazadan mayin tong shabadasi esadi. (*A. Q.*) 4. O'tgan asrning so'nggi kuni Qorabuloqqa ochiq chehra bilan kirib keldi. (*M. I.*) 5. Bog'lar rang-barang gullardan ko'ylak kiydi. 6. Yangi yilingiz muborak bo'lsin, opa-singillar, aka-ukalar! 7. Chiroyli kiyingan bir to'da yosh-yalanglar klub tomon yurdilar. 8. Baxt yulduzimiz yongani-yongan.

2- §. O'zbek tili imlosining asosiy qoidalari

16- mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. O'zbek alifbosini yoddan ayta olasizmi? Eski (kirillcha) o'zbek alifbosi bilan yangi (lotincha) alifbo orasidagi farqlarni aytib bering.

2. Bosh harflar qaysi o'rinlarda yoziladi? Misollar keltiring.

3. Qo'shtirnoq qo'llanadigan atoqli otlarni aytib bering.

4. Unlilar va undoshlar orasidagi farqlar nimada?

Imlo qonunlari



Bilib oling.

Imlo quyidagi qoidalarga asoslanadi:

1. Fonetik yozuv. So'z va qo'shimchalar qanday aytilsa, shunday yoziladi: *yoz, o'qi, lug'at; senga, buloqqa; og'iz—og'zi, yosh—yasha, sana—sanoq* kabi.

2. Morfologik yozuv. So'z va qo'shimchalar talaffuziga qarab emas, qabul qilingan qoidalar asosida yoziladi: *tussiz* emas *tuzsiz, o'qipti* emas *o'qibdi*.

3. Shakliy yozuv. Boshqa tillardan kirgan so'zlar qanday yozilgan bo'lsa, shu shakl saqlanadi: *ustol* emas *stol, tanka* emas *tank, tiyatr* emas *teatr, sallot* emas *soldat* kabi.

11- topshiriq. Quyidagi atamalarning ma'nosini aniqlang. Bunda bilmaganlaringizni lug'atlardan qarang yoki o'qituvchilaringizdan so'rang.

N a m u n a : *filologiya* — „so'zni sevaman“.

bibliografiya, geologiya, zoologiya, monografiya, konstitutsiya, universitet, biblioteka, ulamo, ash'or, kutubxona.

12- topshiriq. Rus va Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarga 20 ta misol ayting. Ularning yozilishini tushuntiring.

13- mashq. Berilgan so'zlarning ma'nosini izohlang. Bunda imloning tutgan o'rnini tushuntiring.

xush — hush, tuzsiz — tussiz, yod — yot, xo'p — xo'b, saf — sof, sof — sop, bot — bod, ham — xam, yog'du — yog'di, judo — juda, sa'va — sava, yondosh — yondash, ahil — ahl, qurt — qurut, sahna — sahni, ta'qib — taqib, asl — asil, chinni — chini, siylash — silash, yuvundi — yuvindi.

14- mashq. Ajratib yozilgan so'zlarning qanday yozuv qoidasi asosida yozilganini izohlab bering.

1. **Og'zida** boli bormi, asal tomar so'zidan. 2. **Og'zi** yomon so'zi bilan qopadi. 3. Yaxshi kishi doim **topadi**. 4. **Ko'ngilda** til jarohati bitmas. **Anga** hech nima marham yerin tutmas. (N.) 5. Til jamiyat hayotida mehnat, o't, suv va nur kabi buyuk hodisalardan **sanaladi**. 6. So'z qanchadan-qancha dilkash naqshlarni bir **to'liqin** bilan yarqiratib yuboruvchi dengizdir. (N.) 7. Noming **mangu** bo'lsa, o'zing mangudir. („*Qutadg'u bilig*“.)

3- §. Unlilar imlosi

13- topshiriq. Berilgan so'zlarning yozilishiga oid qoidalarni eslang.

mudofaa, taassurot, mutolaa, taajjub, taalluq, matbaa, badiiy, tabiiy, Lutfiy, fanniy, juz'iy.



Bilib oling'.

1. Old qator keng **a** harfi ayrim soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinlarida **i** tovushiga yaqin talaffuz qilinadi (*muomila, munosibat, muhokima* va b.), ammo har vaqt **a** yozish kerak (*muomala, munosabat, muhokama* va b.).

2. **o** harfi oʻzbek tilidagi lablanmagan, keng, orqa qator tovush oʻrnida yoziladi: *bogʻbon, posbon, osmon, ol, Olim (jon), togʻ, soz, non, Qoʻqon, Hirot, Toshkent, don, Tojixon, poydevor* va b.

Rus tilidan kirgan soʻzlarda esa oʻrta keng, lablangan **oʻ** tovushi oʻrnida ham **o** yoziladi, lekin **oʻ** tarzida oʻqiladi: *zavod, oktabr, tok, noyabr, kod (telefon), tonna, kilogramm, poyezd, revizor, kurort*. Bu harfning ikki tildagi soʻzda kelishi natijasida paronimlar hosil boʻladi: *tok-tok, tom-tom* (uy tomi), *ton-ton* (feʼl).

Urgʻusiz boʻgʻinlarda **o** tovushi **a** tarzida aytiladi: *kanstitutsiya* va b. Lekin *konstitutsiya* yoziladi.

Rus va Yevropa tillaridan kirgan soʻzlarning oxirgi urgʻusiz boʻgʻinida kelgan **o** unlisi qisqa **i** tarzida eshitiladi, lekin har doim *direktor, traktor, rektor, konduktor, irrigator, dktor* (va b.) tarzida yoziladi.

3. **ii** harfi hamma soʻzlarda aniq eshitiladigan, baʼzan juda qisqa aytiladigan, lablanmagan, tor, til oldi tovushi oʻrnida aytiladi va yoziladi: *ilm, ildam, til, bil, ilgak, ish, kishi, fil, tish, million, rizq, hid, iz* va b. *Aql, vaqt, rahm, fikr, ilm, mehr, qahr, xayr, naqd, asl* (*asil* soʻzi ham bor), *nasl, asr* (*asir* soʻzi ham bor) kabi soʻzlarda oxirigi ikki undosh orasida oʻrinsiz (xato) urgʻu qoʻyish bilan goʻyo bir **i** orttiriladi, aslida esa soʻz boshidagi unliga urgʻu qoʻyish lozim.

4. **Uu** unlisi *un, buloq, uyqu* kabi soʻzlarda orqa qator tor unlini ifodalaydi. *Qovun, sovun* kabi oldingi boʻgʻinida **o** kelgan soʻzlarning ikkinchi boʻgʻinida **u** yoziladi.

¹ Unli va undoshlar imlosida „Oʻzbek tilining imlo lugʻati (Toshkent, „Oʻqituvchi“, 1995) dan foydalanildi.

14- topshiriq. Berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

afv, tatbiq, taqozo, biroz, muvaffaqiyat, tomosha.

15- topshiriq. Nuqtalar oʻrniga kerakli harflarni qoʻyib koʻchiring.

1. Soʻzni bilib soʻzlasa, don.lik sanalur, Nodonning soʻzi oʻz boshini yeydi. 2. Zak.vatning koʻrk. tildir, bu tilning k.rki soʻzdir. Kishining koʻrki yuzdir, bu yuzning koʻrk. k.zdir. („*Qut. bilig*“.) 3. B.ror narsani yomon bilgandan koʻra but.nlay bilmagan maʼqul. 4. Birinchi oʻzbek lingvist profess.ri Gʻozi Olim Yunusov 1920-yillardayoq .lmiy-tadqiqot ishlariga keng koʻlamda kirishgan edi. 5. P.yoz juda koʻp kasalliklarga, jumladan, qon bosimiga ham d.vodir. 6. Yotishdan oldin ogʻz chay.shni, oyoqni il.q suv bilan yuv.shni un.tmang.

5. **E e** harfi old qator oʻrta keng **e** tovushini ifodalaydi: *el, ekin, edi, aeroport, duel* kabi.

Rus va jahon tillaridan kirgan *adres, teatr, telefon* kabi soʻzlarda **e** bir oz kuchsizlanib, **i** ga yaqin talaffuz qilinadi, lekin har vaqt **e** yoziladi.

15- mashq. Berilgan soʻzlarni oʻzingiz talaffuz etganday yozing. Soʻngra har ikki shaklning farqini ayting.

konsert, sentner, aeroport, kinosujet, konstruktor, konstitutsiya, delegatsiya.

16- mashq. Berilgan soʻzlardagi **o** harfining talaffuzi va imlosini izohlang.

obroʻ, byuro, shoʻro, obdasta, kinoocherk, obod, noyabr, ona, Oʻzbekiston, oppoq, kombayn, vzvod, mayor, bola, bogʻbon, motor, Don, don, voqea, bepoyon, obyekt, shofyor, hayajon.

4- §. Undoshlar imlosi

16- topshiriq. Jadvalni diqqat bilan kuzating. Undoshlarning paydo boʻlishi, aytilishi, bunda nutq aʼzolarining xizmati haqidagi tushunchalaringizni bir tartibda izohlang.

Shovqinning ishtiroki		Nutq a'zolarining o'rniga ko'ra														
		lab undoshlari						til undoshlari								
		lab-lab	lab-tish	til oldi				til orqa								
								sayoz til orqa			churrit orqa					
Shovqin va ovoznin ishtiroki	Shovqinning paydo bo'lish usuli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	jarangsiz	jarangli	
Shovqinlilar	Portlovchilar	p	b			t	d					k	g	q		
	Sirg'aluvchilar			f	v	s	z	sh	j	y				x	g'	h
	Affrikatlar							ch	j							
Sonorlar	Portlovchilar	Burun		m				n					n			
	Sirg'aluvchilar	Yon						l								
		Titroq						r								



Bilib oling.

Jadvaldan ko'rinadiki, undosh tovushlar nutq a'zolarining faol ishtiroki va ta'sirida paydo bo'ladi. Undoshlarning muhim xususiyati ularning jarangli va jarangsizligidir. Ularning ba'zilari shu jihatdan juftlanadi: **b, d, z, g, v, g', j, j** (*Jo'raboy, jurnal*) — jaranglilar; **p, t, s, k, f, x, sh, ch** — jarangsiz tovushlar.

Jarangli va jarangsiz tovushlarning kelish o'rniga qarab, bir-biriga ta'sir etish hodisasi bo'ladi. *Taxsim, maxtov, maxsad* kabi so'zlar talaffuzida ikki jarangsiz tovush bir-biriga moyillashadi, lekin **q** tovushi yozuvda saqlanadi: *taqsim* (qism), *maqto'v, maqsad*.

Undoshlarning yozilishiga oid ayrim qoidalarni esga olamiz:

1. **Bb** harfi *qibla, tobla* kabi soʻzlarda **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

2. **Vv** harfi *avtobus, avtomat* kabi soʻzlarda **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

3. **Jj** harfi portlovchi **j** (*jon*) tovushi oʻrnida yoziladi: *jun, jahon, majlis, toj-u taxt, jimjitlik*.

Yevropa tillaridan oʻtgan soʻzlarda **j** sirgʻaluvchi qorishiq tovush oʻrnida yoziladi: *jurnal, proyektor, juri*.

Shunday tovushli soʻzlar arab va fors tillaridan kirgan soʻzlarda ham uchraydi: *mujda, ajdar* va b.

4. **Xx** va **Hh** tovushlari paydo boʻlish oʻrniga koʻra ham, aytilishiga koʻra ham bir-biridan farq qiladi. **H** (**h**) boʻgʻizda paydo boʻlib, sirgʻaluvchi va maʼno ayiruvchi tovush oʻrnida yoziladi: *behi, hush (es), shohi, ham*. **X** (**x**) esa portlovchi, til orqa tovushi: *xulq, axloq, xalq, xol, shox* (qoʻyning shoxi), *xabar, paxta, shoʻx, taxt, baxt*.

5. **Nn** harfi *shanba, yonbosh, yonma-yon, koʻrinmaslik* kabi soʻzlarda **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

6. **Zz** harfi *iztirob, izquvar, boʻzchi, tuzsiz* kabi soʻzlarda **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

7. **Sh** harflar birikmasi *shahar, shodlik, bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshdir. Agar bu harflar ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq belgisi (‘) qoʻyiladi: *Isʻhoq, asʻhob* kabi.

8. **Ch ch** harfi *choy, chevar, kuch, kech* kabi soʻzlarda til oldi jarangli titroq undoshni ifodalaydi.

9. **Ng ng** harflar birikmasi *singil, tong* kabi soʻzlarda til orqa jarangli burun tovushini ifodalaydi.

17- mashq. Quyidagi soʻzlarning aytilishi va imlosiga diqqat qiling va oʻzingiz ham shunday yoziladigan soʻzlar toping.

1. Zamon, kamon, savol,...
2. Oila, doim, tabiat, ...
3. Sovun, tovush, yovuz,

- II. 1. Avtomobil, avtobus, fursat, ...
 2. Zavod, sud, badqovoq, ...
 3. Izquvar, bo'zchi, ko'zsiz, ...
 4. Jonbozlik, yakshanba, yonbosh,
- III. 1. Toshkent, artist, do'st, ...
 2. Kilovatt, kongress, metall, ...
 3. Ne'mat, ta'b, ra'y,

18- mashq. **Jj**, **Oo** va tutuq belgisi qo'llanadigan so'zlarga misollar keltiring.

19- mashq. Nuqtalar o'rniga **x** yoki **h** harflarini qo'ying. Ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

1. .immatli bo'linglar, azizlarim. Ulug' bobomiz Alisher Navoiy .immatli kishini **mo'jizakor**, dedi. Kim .immatsiz bo'lsa, zamonasi uni pastlar .isobida ko'radi. 2. — Sabr qil, do'stim, — derdi Yo'ldosh aka. — Sendan dala .idi kelyapti. Birpas to'yib .**idlab** olay. („*Sh.y.*“ *„jurn.*“) 3. .arom narsalardan saqlaning ... Ollo.ning taqsim qilgan rizqiga rozi bo'ling: odamlarning **boyrog'i** bo'lasiz. („*Hadis*“*dan.*) 4. Dars.onada sukunat .okim, Garchi dilda jo'shqin **e.tiros**. (*M. Omon.*) 5. .ech bir ota-ona o'z farzandiga .ulq-u **odobdan** buyukroq meros qoldirmaydi. („*Hadis*“*dan.*) 6. Dara.t yashnab turgani uchun, soyasidan odam **arimaydi**. 7. Ilm buloqlaridan **ba.ramand** bo'lishning o'zi bir ba.t. (*O. Yunusov.*)

Esda tuting.

1. **Aa** harfi: *savol, avval, mavsum, avgust, navbat, vaf*o kabi so'zlarning birinchi bo'g'inida **o** eshitilsa ham, **a** yoziladi.

2. **Uu** harfi: *qovun, sovun, tovus, yovuz, qirg'ovul* kabi so'zlarning oxirgi bo'g'inida **i** eshitilsa ham, **u** yoziladi.

3. Ketma-ket kelgan unlilar orasiga **y** qo'shib aytilsa ham yozilmaydi: *diagnoz, material, shariat, filial, million, teatr, aerodrom, aloe* kabi.

4. *do'st, artist, go'sht, Samarqand* kabi so'zlar oxiridagi **t** va **d** tovushlari talaffuzda tushirib qoldirilsa-da, lekin yoziladi.

5. *kilovatt, kongress, metall* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki undosh yoziladi. Agar bu so'zlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, oxirgi undosh tushiriladi: *kilogram+mi, metall+lar* kabi.

6. *mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o'cho'ziq aytilsa ham, undan so'ng tutuq belgisi qo'yilmaydi.

20- mashq. Nuqtalar o'rniga mos harflarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Erta ko'klamda Usmon aka yer chopi..., kungaboqar, bo...ring, qo...un, tar...uz e...di. Unga kichik o'g'li Isroiljon ham yordamlashdi: dadasiga tog'oradagi ivitilgan ur...g'dan oli... beri... turdi. Ertasiga Isroiljon qo'liga tesha oli... o...gina ...oyni chopib teki...ladi-da, guldor paqirchasi bilan suv quydi. Namlik yetgan yerni cho'... bilan kovla... urug' tashladi-da, ustini bekitdi. K...yin oyisining oldiga borib: — Men ham dadamdek de...qon bo'ldim, kungaboqar ek...im. Pish...a-chi, Si...ga ham beraman, — dedi sevinchi ichiga sig'may.

Oradan o'n-o'n besh kun o'tar-o'tmas, dadasi ekan urug'lar yerdan qa... ko'tari... chiqa boshladi. Eng avval sichqon qulog'idek ko'k bar... chiqardi. (*S. G'afurov*)

21- mashq. Quyidagi so'zlarning o'qilishi va yozilishiga e'tibor bering. Shu so'zlardan beshtasi ishtirokida gap tuzing.

Anqov, bekinmoq, bayram, Maryam, jingalak, arava, Rahim, rahmdil, kungaboqar, kongress, chinqiriq, manman, yonma-yon, manba, tanbeh, tanbal, tanga, tangens, qo'nmoq, yalinmoq, qorong'i, to'ng'ich.

22- mashq. **ng** birikmali va **n—g** harfli so'zlarni ajratib yozing.

1. Onangni boshingda tutsang, singlingni kaftingda tut.
2. Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli-chi? 3. Iloho, mingga kirgin. 4. So'nggi nafasgacha kurashdi. 5. Mashina changini artib chiqdi. 6. Insonning birinchi so'zi ham, so'nggi so'zi ham — Ona! 7. Tonggi shabada esdi.

Takror undoshlar imlosi

23- mashq. Berilgan so'zlarni qiyoslab o'qing. Farqini tushuntiring.

Qattiq — qatiq, essiz — esiz, tilla — tila, yo'lladi — yo'ladi, til — tili — tillik, nonning — noning, silla — sila, ellar — elar, medalli — medali, ushshoq — ushoq.



Bilib oling.

Hamma tillar kabi o'zbek tilining ham o'z ichki qonunlari bor: tovushlar tushishi (*o'g'il — o'g'li*), o'rin almashuvi (*yog'mir — yomg'ir*), o'zgarishi (*son — sana*), tovushlar ortishi (*tanka, banka*) va boshqa hodisalar ana shu ichki qonuniyatlardan sanaladi.

Boshqa tillardan kirgan so'zlarda ayrim unli va undoshlar takror talaffuz qilinadi: *muallim, mudarris, muzaffar, taajjub, taassurot, Qahhor, kassa, murakkab, antenna, qissa, naqqosh, mutolaa, matbaa, izzat, muvaffaqiyat, naqqosh* va b. Shunday o'rinlarda yozuvda ham ikki unli yoki undosh yozib, to'g'ri talaffuz etish zarur.

Bu hol ba'zi o'zbekcha so'zlarda ham uchraydi: *sakkiz, ikki, ellik, tilla, chappa, to'qqiz, o'ttiz* va b.

So'z yasash jarayonida, ayniqsa, ba'zi o'zak yo negizda undoshning takrorlanishi aniq seziladi, shunga ko'ra yozuvda bir xil undosh orttirib yozib, bu bilan talaffuzga moslashtiriladi: *isi+q — issiq, achi+q — achchiq, qati+q — qattiq, sasi+q — sassiq* va b.

Aks holda talaffuz buziladi: *karra — kara, durra — dura, qattiq — qatiq.*

24- mashq. Nuqtalar o'rniga talab qilingan yolg'iz yoki takror unli yo undoshlarni (ikkita bir xil harf) qo'yib ko'chiring.

1. Tro..eybuslar harakati bugun juda erta boshlandi.
2. Yi..ar o'tishi bilan, Ona, Non, Suv so'zlari qatoridan A..alom degan so'z ham o'rin oldi. Keyinroq ka..a-yu

kichik bu soʻzni aytganda yo eshitganda, chehralari yorishib, di..ari yengil tortadigan boʻlibdi. 3. Zu..o — dur, bilimsiz — bir hovuch kuldir. (*Yusuf Xos Hojib.*) 4. Olimlarning ilmga katta muha..atidan buyuk kashfiyotlar yuzaga keladi. 5. Osmonda sayr etar mi..ion juft koʻzlar. (*H.O.*) 6. Hayot daraxtlari oʻsgan bogʻlarda Soʻzni payvand qiling har bir yura..a, Toki bu bi..a dard, bi..a ishq bilan Zaminga oʻrnashsin, oʻ..in fala..a. (*N. Ostonov.*) 7. U..atlarim uchun uch narsadan qoʻrqaman: nafs-u havoga berilishdan, nafsoniy va shahvoniy hi..iyotga berilishdan, ilmi va maʼrifatli boʻla turib, gʻofillarning ishini tutishdan. (*„Hadis“dan.*) 8. A..a aytay, uxla o..ogʻim. Girgi..oning boʻlayin doim. (*Qoʻshiqdan*)

5- §. Oʻzak va qoʻshimchalar imlosi

17- topshiriq. Berilgan matndagi soʻzlarni qismlarga (oʻzak, negiz, yasovchi va turlovchi qoʻshimchalarga) ajrating. Ishni bajarishda tegishli shartli belgilardan foydalaning.

Inson bolasi hamma rizq-roʻzini yerdan topadi. Bir kaft tuproqda million-million bobolarning qoni, qanchadan-qancha goʻdaklarning umidi, baxti bor. Hamal kirganda bir kaft tuproqni quloqqa tutib koʻrgan asl dehqon yerning nafas olishini eshitadi.

Insonni taqdir toshi qayerga irgʻitmasin, u oʻz yurtida yegan non taʼmini unutmaydi, oʻsha non, mehr bir-lashib, insonni oʻsha ona-yurtga chaqiradi, koʻrgan-bilganlarimizni, topgan-tutganlarimizni, yutuqlarimizni oʻrtoqlashmoqchi boʻlamiz-da, sen tomon oshiqamiz... (*T. Poʻlat.*)



Bilib oling.

Quyidagi holatlarda yasovchi qoʻshimchalar oʻzak va negizga fonetik tomondan taʼsir qiladi, ularni talaffuz boʻyicha yozamiz:

1. Ot yasovchi **q, v** qoʻshimchalari **a** unlisi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda, oʻzak **yo** negizdagi **a** tovushi **o** ga aylanadi va shunday yoziladi: *sayla+v* (*saylov*), *qishla+q* (*qishloq*), *boʻya+q* (*boʻyoq*).

2. **i** tovushi bilan tugagan soʻzlardan ot yasalganda (**v** tovushi orqali), oʻzak-negizdagi **i** tovushi **u** ga aylanadi va shunday yoziladi: *oʻqi+v (oʻquv), toʻqi+v (toʻquv+chi)*.

3. Oʻzak-negizida **u** tovushi boʻlgan sifatlardan, feʼllardan ot yasalganda, yasovchi **-im** qoʻshimchasi **-um** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *tuz+im /tuzum/, un+im /unum/, uy(moq)+im (uyum)*.

4. Ot yasovchi **-indi** qoʻshimchasi oʻzagida **u** tovushi boʻlgan feʼllarga qoʻshilganda, **-undi** shaklida yoziladi: *yuv+indi (yuvundi), kuy+indi (kuyundi — oʻt-olov)*.

5. Ot yasovchi **-lik** va sifat yasovchi **-li** qoʻshimchalari talaffuzda koʻpincha oʻxshab ketadi:

a) **-lik**: *yigitlik, bolalik, zargarlik; yaxshilik, tezlik, mardlik; fargʻonalik, uychilik, toshkentlik; darslik, kundalik, koʻrpalik va b.;*

b) **-li**: *kuchli, aqlli, uyli-joyli, ilmli...*

25- **mashq**. Nuqtalar oʻrniga **-li** va **-lik** qoʻshimchalaridan mosini qoʻyib koʻchiring.

1. Sodda... goʻzal...ning birinchi va zarur shartidir. (*L. Tolstoy*.) 2. Ona-qishloq! Sen naqadar chogʻ... va koʻrimsiz boʻlmagin, biz uchun dunyoda eng katta, chiroy... joy boʻlgansan doim. (*T. Poʻlat*.) 3. Yaxshi va xayr... ishning birortasini kichik sanamang, suv soʻragan kishining idishiga chelakdan suv quyib berish bilan boʻlsa-da, ezgu... qiling. 4. Sovuq mijoz... kishilar oʻrikni asal bilan yeyishlari kerak. Oʻrik suvi tashna...ni qondiradi. 5. Aniq..., ravshan... ohangdor... — mana goʻzal... qanday yuzaga keladi. 6. Bilim olishning bosh yoʻli — moyil...dir. 8. Yaxshi odam begʻubor, keng feʼl... boʻladi.

18- **topshiriq**. Quyidagi gaplardagi ajratib yozilgan soʻzlarning oʻzagini aniqlang. Nima uchun shunday yozilishini izohlang.

Alisher Navoiy baytlari yuz mingdan ortiq. 2. **Oʻynab** gapirsang ham, oʻylab gapir. 3. **Qiyinalib-qiyinalib** marza olsang, **toʻyib-toʻyib** qovun yeysan. 4. Ustoz jabri afzal ota mehridan — Inson **anglab** yetgan buyuk haqiqat; Gul va

tikan unar quyosh nuridan, Sizning **mehringizdan** gul unar faqat, O'qituvchim, ezgu olamim mening, Sizgadir ehtirom, salomim mening. (*M. Qaynar*) 5. Biz gulning **nafisligini**, suvning zilolligini, oppoq tonglarning go'zalligini, oydin tunlarning **zavqbxshligini** bilamiz-u, nima uchunligini chuqur sezavermaymiz. (*Q. Sobirov*) 6. Qadim Turkistonning tanti **o'g'loni**, Pokiza edingiz misli oq qog'oz. (*A. O.*) 7. Tilimni sog'indim, **nechun** soqovlik, O'zga tildan **tushunmam** bironta so'zga, O'z tilda so'zlashmay yondim olovdek, Yorug' jahon zulmat ko'rindi menga. (*B. Boyqobilov*)

Esda tuting.

1. *tilak, bek, tayoq, qishloq* so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, **k** harfi **g** ga, **q** harfi **g'** ga o'tadi: *tilagi, begi, tayog'i, qishlog'i* kabi. Ammo *ocherki, yuqi* kabi so'zlarda oxirgi undosh saqlanadi.

2. *qorin, o'g'il* kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa o'zakdagi **i** tushib qoladi: *qorni, o'g'li*.

3. *parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* kabi so'zlarga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda, o'zaktan so'ng **y** qo'shib aytiladi va yoziladi: *parvoyim, obro'yim, mavqeyim, mavzuyim, avzoyim*. Shu so'zlarga III shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilsa, **y** tushib qoladi: *parvosi, avzosi* kabi.

4. O'rin-payt, chiqish kelishiklari, o'tgan zamon fe'li qo'shimchalari tarkibidagi **d** tovushi **t** shaklida talaffuz qilinsa ham **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

5. **k** va **q** undoshlari bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda **ka** va **qa** shaklida aytiladi va yoziladi: *tokka, qishloqqa*. Ammo *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* kabi so'zlarda **g** yoziladi.

? *Savol va topshiriqlar*

1. *Men, sen* olmoshlari tushum va qaratqich kelishigida turlansa, yozuvda qanday hodisa yuz beradi?

2. Nima uchun *unutmoq, tushunmoq, yugurmoq, buyurmoq, ulgurmoq* fe'llarida ikkala bo'g'inda *u* yozamiz?
Tug'ildi, qurildi, yuvindi, kulishdi, burildi (va b.) kabi so'zlarda esa faqat ikkinchi bo'g'inda *i* yozamiz?
3. *ng* harf birikmasi va uning yozilishi haqida nimalar bilasiz?
4. Yonma-yon kelgan ikkita unli yo undoshli so'zlarga 5 tadan misol yozing (*shoir, pashsha* kabi).

6- §. Qo'shma so'zlar imlosi

19- topshiriq. Berilgan so'zlarni o'qing. Ma'nosini izohlang. Qavs ichidagi so'zni o'zidan oldingi so'zga qo'shib yozish ma'qulmi yo ajratib yozsa ham bo'ladimi?

Oltin (ko'l), Ashur (ali), poy (abzal), chim (qo'rg'on), Qarshi (cho'li), O'rta (Osiyo), „O'zbek (film“), yozuvchilar (uyushmasi), Qora (daryo), oq (oltin), temir(yo'l), o'rin (bosar), Sora (opa), Yangi (Farg'ona), Yangi (yo'l), Nor (buva), Ko'k (terak), ko'k (qarg'a), Shodi (aka), Xo'ja (ariq), Oltin (ariq), Mulk (obod), Sharif (tog'a), Bek (obod), oq (soqol), Yangi (obod), Yangi (qo'rg'on), Markaziy (Farg'ona), „Toshkent (oqshomi“), „Sharq (yulduzi“), qayin (ota), ish (boshi), sholi (poya), Koson (soy), mirza (terak), Tentak (soy), Ko'hna (Urganch), yangi (turmush), Mahmud (pahlavon), Karim (berdi), Qo'sh (chinor), ra'no (gul), osh (qovoq), Yakka (bog'), Issiq (ko'l), ko'z (oynak), Umum (Yevropa), so'z (boshi), Umum (ittifoq).



Bilib oling.

Qo'shma so'zlar quyidagi hollarda qo'shib yoziladi:

1. Ikki yo uch so'z qo'shilib, yangi bir ma'no ifodalasa (*qum* va *qo'rg'on* — endilikda bitta qishloq: *Qumqo'rg'on*) qo'shib yoziladi: *Buloqboshi, Oltiariq, Yangiqo'rg'on, gultojixo'roz.*

2. Qo'shma fe'llarning ikki turini qo'shib yozish mumkin:

a) **a** tovushi bilan tugagan fe'lga **o** unlisi bilan boshlanuvchi ko'makchi fe'l qo'shilganda, har ikki unli qorishib ketadi va bitta **o** bilan yoziladi: *aytoldim, boroldi;*

b) ko'makchi fe'l **b** tovushi bilan boshlansa, uni yetakchi fe'l oxiridagi *a—y* tovushlarining ta'sirida *yozaveramiz, ishlayveramiz, ketaver* tarzida qo'shib yozish mumkin.

3. *xona, noma, poya, ham, sifat, umum* kabi so'zlar bilan yasalgan qo'shma ot va sifatlar, **-(a)r// -mas** qo'shimchasi yordamida yasalgan qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *ishxona, tabriknoma, bedapoya, hamkor, devsfifat, umumxalq, otboqar, ishyoqmas*.

4. Qo'shma so'zlar quyidagi hollarda **ajratib** yoziladi:

1) qo'shma so'zlarning qismlari bir-birini izohlasa: *temir eshik, osma ko'prik, Janubiy Farg'ona kanali, til oldi, o'rti keng, uzun bo'yli, Jo'ra tog'a* va b.;

2) qo'shma fe'llar: *yozib ol, sir tut, churq etma* va b.;

3) *hamma, har, hech, u, bu* so'zlari bilan yasalgan ot va ravishlar: *hamma vaqt, har kim, hech qachon, u yerda, bu vaqt*;

4) sifatlar oldida *to'q, jiqqa, tim, liq* kabi so'zlar kelsa: *to'q sariq, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la* va b.;

5) belgining ortiqlik darajasini ko'rsatuvchi *ko'p-dan ko'p, yangidan yangi, ochiqdan ochiq* kabi qo'shma so'zlar.

Juft so'zlar imlosi



Bilib oling.

Odatda, sinonimlar yo antonim so'zlar ba'zan yonma-yon qo'llanadi: *mehr-oqibat, aka-uka, katta-kichik, unda-bunda* va b. Bir so'zning o'zini ham takrorlash mumkin: *yosh-yosh bolalar, katta-katta teraklar*.

Bunday so'zlar juft so'zlar deyiladi va ular orasiga **chiziqcha** qo'yib yoziladi: *uch-to'rt kishi, ellik-oltmishga yaqin terimchi...*

Agar juft so'zlar orasida *-u, -yu* yuklamalari qo'llansa, yuklama birinchi so'zga qo'shib yoziladi; ikkinchi so'z ajratib yozilaveradi: *yer-u osmon, yor-u do'st, qishlog'-u shahar*.

Quyidagi juft soʻzlar **chiziqcha** bilan yoziladi: belgini kuchaytiruvchi sifatlar (*qip-qizil, dum-dumaloq, to'ppa-to'g'ri*), **-ma, ba-** bilan birikkan soʻzlar (*uyma-uy, dam-badam*).

20- topshiriq. Quyidagi izohli lugʻatni alifbo tartibida joylashtiring.

Habib — doʻst, juda yaqin oʻrtoq.

Habis — dushman, yomon odam.

Choh — chuqurlik.

Munavvar — nurli, yorugʻ.

Anvar — juda nurli, eng yorugʻ (demak, anvar va munavvar — bir oʻzakdan yasalgan).

Lomakon — makonsiz, maʼnaviy olam.

Xiradmand — dono, aqli.

Baliyat — musibat, ranj, mashaqqat, balo.

Ganj — oltin, boylik, kumush.

Ustixon — suyak.

Rost — toʻgʻri, toʻgʻrilash, tuzatish.

Vaʼz — soʻz, soʻzlash, nutq.

Moʻjiza — yangilik, hayratli ish, voqea.

Munis — sirdosh, doʻst, hamdam.

Mukarrama (mukarram) — karamli, karam egasi; buyuklik, himmat egasi.

Kelbatli — kelishgan, qomatli, bichimli.

Filologiya — soʻzni sevish, til bilimi.

Muxtasar — qisqa.

Arjumand — aziz, qadrli.

Gardun — osmon gumbazi.

Hassos — hissiyot, chuqur tuygʻu.

Kalom — soʻz.

26- mashq. Qoʻshib va ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlarning maʼnosini izohlang.

Toʻrtburchak, mingoyoq, Oqtepa, oqqush, togʻolcha, tuyaqush, Toʻrtkoʻl, askarboshi, gulxayri, yoʻlboshchi, Mirzachoʻl, hayotbaxsh, koʻylakbop, ommabop, ham-

kasb, hamsuhbat, umumxalq, Yangiyo'l, elektrostansiya, fotoapparat, kinostudiya, elektrotexnika, radioapparat, kinorejissyor, jigarrang, quloq solding, o'sha yerda, o'n besh, yetmish uch, och sariq, o'qib berasan, bu yerda, sakson bir, to'q qizil, yozib olmoqchi, u yoqda, to'qson ikki, ishlab chiqdi, hech narsa, uch yuz besh, aytib turdi, ba'zi bir, ko'chirib bersin, sakkiz yuz, yarim orol, kelib ketdi, hech narsa, o'ttiz uch, g'ayri rasmiy.

27- *mashq.* Berilgan qo'shma so'zlarning tarkibini aniqlang va imlosiga e'tibor berib ko'chiring.

Tomorqa, makkajo'xori, baqaterak, qorako'lechilik, beshiktervatar, gulxayri, gultojixo'roz, o'qib berdi, tasdiq qildi, yozib ola bildi.

28- *mashq.* *Foto* so'zi bilan boshlanadigan qo'shma so'zlarga 4 ta misol toping.

29- *mashq.* Qo'shma so'zlarga (ikki va uch o'zakli) 10 ta misol toping.

30- *mashq.* Qo'shma va juft so'zlarni ajratib ko'chiring. Imlosini tushuntirib bering.

Sholipoya, zavod fabrika, kuch quvvat, besh olti, asbob uskuna, non pon, choy poy, ko'zoynak, asalari, yuzma yuz, idish tovoq, yaxshi yomon, yozu qish, mingoyoq, ko'ksulton, gulchechak, chopa chopa, opa singil, yeru ko'k, yaxshi yomon, oshqozon, baland past.

31- *mashq.* Qavslar ichidagi so'zlarni chiziqcha bilan, qo'shib, ajratib yozing. Buning sababini tushuntirib bering.

orom (baxsh), omon (eson), har (kun), sher (yurak), kecha (kunduz), och (sariq), kiyim (kechak), qo'zi (qorin), bodom (qovoq), bordi (keldi), hamma (vaqt), taklif (noma), mehr (shafqat), achchiq (tosh), uyma (uy), kilovatt (soat), qiyma (taxta), oz (moz), to'q (qizil), yildan (yilga), dardi (bedavo), karnay (gul), ur (to'qmoq), To'rt (ko'l), O'rta (Chirchiq).

21- topshiriq. Quyidagi juft otlar va uyushiq bo'laklar orasidagi farqni izohlab bering.

Namuna: *qozon-tovoq* — ro'zg'or ma'nosida, *qozon* va *tovoq* — ikki xil ro'zg'or asbobi.

ota-ona, yer-suv, choynak-piyola, uy-joy, ota-bola, yor-og'ayni, qo'ni-qo'shni, ko'z-quloq, bola-chaqa, o'yin-kulgi, urf-odat, savdo-sotiq.

22- topshiriq. Quyidagi juft otlarning ma'nosini aytib bering.

azob-uqubat, qosh-qovoq, yosh-qari, qovun-tarvuz, rahm- shafqat, ko'rpa-to'shak, olma-o'rik, xavf-xatar, orzu-umid.

32- mashq. Bir-biriga zid ma'noli yo yaqin ma'noli so'zlarni qator keltirib, juft so'z hosil qiling. Ularning imlosiga e'tibor bering.

sabzi, qayg'u, baxt, voqea, cheva, xavf, dushman, yor, do'st, qo'shni, bola, tog', bog', qozon, opa, og'a, ekin, mehr, piyoz, ovqat, saodat, alam, hodisa, xatar, yov, chaqa, qir, rog', tovoq, singil, tikin, muhabbat, oziq, meva.

33- mashq. Qo'shma va juft so'zlarni toping. Ularning imlosini tushuntiring.

1. Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan, Hamma bir-biriga jigarso'z ekan, Olam ham barobar kechak-kunduz ekan. (*Xalq qo'shiqlaridan.*) 2. Bitta bulbul qanchadan-qancha odamning dilini xush qiladi. 3. Ota-onangni naqadar e'zozlasang, do'st-yorga ham shunday oqibatda bo'l. 4. Urushning azob-uqubatlarini tortgan Ikromjon boshliqning gapiga ko'navermadi, ishga kirishib ketdi. 5. Oqtosh mevazor bog'-rog'larga aylandi.

Qisqartma so'zlar imlosi

34- mashq. Savollarga javob bering.

1. Qisqartma so'zlar qanday hosil bo'ladi?

2. Qisqartma so'zlarning imlosiga doir qanday qoidalarni bilasiz?



Bilib oling.

Soʻzlarning birinchi harflarini birlashtirish yoʻli bilan yasalgan qisqartma soʻzlar bosh harf bilan yoziladi: BMT, MDH va b.

Ism, ota ism, familiyalar yoki ularning bir qismi qisqartirilishi mumkin: *A. Navoiy, Z. M. Bobur*. Ammo oʻqishda ular toʻla nom bilan aytiladi: *Zahiriddin Muhammad Bobur*. Odatda, taxalluslar qisqartirilmaydi: *Choʻlpon, Sakkokiy, Julqunboy* kabi.

Qisqartma soʻzlar boʻgʻin yo qismlardan tuzilgan boʻlsa, birinchi harf katta yoziladi, qolgan soʻz va qoʻshimchalar oʻsha soʻzga qoʻshilaveradi: *Toshuni-vermag, Toshavtomash*. Agar birinchi soʻz turdosh ot boʻlsa, qisqartma soʻz kichik harf bilan yozilaveradi: *davbank* (davlat banki), *pedkollej* kabi.

35- mashq. Berilgan qisqartma soʻzlarni toʻliq holda yozing.

XXR, MDH, AQSH, EHM, XDP, OʻzPFITI, ToshDPU, OʻzMU.

36- mashq. Berilgan soʻzlarning imlosini yodda tuting. Ulardan beshtasini qatnashtirib gap tuzing.

badiiy, tabiiy, tabiiyot, taassurot, taajjub, muomala, muhokama, munozara, munosabat, muzokara, muassasa, sharoit, muddao, afv, muloqot, mulozamat, gavhar, muvaffaqiyat.

7- §. Bosh harflar imlosi



Bilib oling.

1. Gap boshidagi birinchi soʻz bosh harf bilan yoziladi.

2. Sheʼrlarda har bir misra bosh harf bilan boshlanadi:

Endi sen chorlasang, toki tanda jon,
Labbay deyajakman, Vatan — onajon.

(A.O.)

3. Gap tamom bo'lgandan keyin qo'yilgan nuqta, so'roq, undov belgilaridan keyin, shuningdek, ko'p nuqtadan so'ng keladigan gap bosh harf bilan boshlanadi: *Kim? Chaqir!*

4. Atoqli otlarning birinchi harflari bosh harf bilan yoziladi: *Alisher Navoiy, O'sh, Sirdaryo, Oloy va Pomir...*

5. Hurmat ma'nosida qo'llangan *Siz* va *O'zingiz* olmoshlari.

6. So'zlarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartma otlar: *MDH, BMT, AQSH.*

7. Bayramlar va tarixiy kunni ifodalagan birikmalarining birinchi so'zi: *Mustaqillik kuni, Xotira va Qadrlash kuni.*

8. Oliy tashkilotlar va oliy faxriy unvonlarning har bir so'zi bosh harf bilan yoziladi: *O'zbekiston Oliy Kengashi. O'zbekiston Qahramoni.*

9. Orden va medallarning nomi bosh harf bilan, orden va medal so'zlari kichik harf bilan yoziladi: *„Mustaqillik“ ordeni, „Do'stlik“ ordeni.*

10. Atab qo'yilgan so'zlar (tashkilot va zavodlarga, kitob va nashriyotlarga, gazeta va jurnallarga) bosh harf bilan yoziladi. Bunday so'zlar birikma tarzida bo'lsa, birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi: *„Me'mor“ romani, „Sen yetim emassan“ she'ri.*

Birikmaning ikkinchi (yo uchinchi) so'zlari atoqli ot bo'lsa, tabiiyki, ular ham bosh harf bilan yoziladi: *Markaziy Farg'ona, Katta Andijon kanali.*

Ba'zan atoqli otlar umumiylik, tur kabi ma'no-larni ifodalaydi. Bunday hollarda ular kichik harf bilan yoziladi: *Kecha farhodlar kelishdi.*

11. Turli ishlab chiqarish mahsulotlariga, nashr hamda nashriyotlarga atab qo'yilgan atoqli va turdosh otlar bosh harf bilan qo'shtirnoq ichiga olib yoziladi: *„O'zbekiston“ nashriyoti, „Hurriyat“ gazetasi, „Lola“ atiri.*

37- mashq. Bosh harf bilan yozilgan so'z va so'z birikmalarini ajrating. Nima uchun bosh harf qo'llanishini ayting.

1. „Gaping haq, ayol!“ — dedi Xirmoniy. — Ona bo‘l-masa, shoir ham, pahlavon ham dunyoga kelmasdi. 2. Jahon podsholari xazinasidan oltin yuborganda hamki beaded, Dilorom, Dilorom, Jajji singilcham, Sening yordamingcha bo‘lmasdi madad! (E.V.) 3. Ey aziz Toshkentim, buncha sen bugun Boladek to‘polon qilding ertalab? (Sh.) 4. Qayum Rahmonov o‘z jasorati bilan mardlik maktabi yaratdi. 5. 9- sinf o‘quvchisi B. Jo‘rayeva „Qadr“ she‘rini yod aytganda, butun zal oyoqqa qalqidi. 6. Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy „Bahoriston“da saxovat va karamni ulug‘laydi. 7. Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘atit turk“ asari O‘rta Osiyo turkiy tillarining eng bebaho yodgorligidir.

23- topshiriq. Quyidagi qo‘shma so‘zlarni qisqartma so‘z (harf va bo‘g‘in) shaklida yozing.

Toshkent Davlat tibbiyot instituti, O‘zbekiston televideniye va radioeshittirish kompaniyasi, O‘zbekiston Respublikasi maorif vazirligi, O‘zbekiston Davlat nashriyoti.

24- topshiriq. Bosh harf bilan yoziladigan tashkilot, orden, medal, adabiy asar va mahsulot nomlariga uchtdan misol keltiring.

38- mashq. Berilgan atoqli otlarni alifbo tartibida ko‘chiring, mashhur kishilarning ismi va taxalluslarining imlosini yodda saqlang.

Abu Ali ibn Sino, Sharafiddin Ali Yazdiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Muqimiy, Furqat, Gulxaniy, Maxmur, Avaz O‘tar o‘g‘li, L. N. Tolstoy, M. V. Lomonosov, A. P. Chexov, Isaak Nyuton.

39- mashq. Savollarga yozma javob qaytaring. Atoqli otlarning yozilishiga diqqat qiling.

1. Yozuvchi va shoirlardan kimlarni bilasiz? 2. Mehnat qahramonlaridan kimlarni taniysiz? 3. Qaysi shahar va

qishloqlarda bo'lgansiz? 4. Qaysi kanal, daryo, ko'l va dengizlarning nomini bilasiz? 5. O'zbekistondagi eng baland tog'lar qaysilar? 6. Siz qaysi viloyat, shahar, tumanda yashaysiz? Shaharda yashasangiz, ko'changizning nomi nima?

8- §. Bo'g'in ko'chirish qoidalari



Bilib oling.

So'z bo'g'inlarga bo'linadi. Eng kichik bo'g'in bir unidan iborat bo'ladi: *u* (olmosh), *o-na*, *o-ta*, *e-kin* va boshqalar.

Har bir bo'g'inda kamida bitta unli tovush ishtirok etadi.

1. Bir unidan hosil bo'lgan bo'g'in birinchi yo'lda qoldirilmaydi, yonidagi bo'g'in bilan birga ko'chiriladi: *o-na* emas, *ona*.

2. *Mudofaa*, *mutolaa* kabi so'zlardagi oxirgi bo'g'in — bir *a* ning o'zi ko'chirilmaydi.

3. Yonma-yon kelgan ikkita bir xil undoshning biri birinchi yo'lda qoldiriladi, ikkinchisi keyingi yo'lga ko'chiriladi: *qat-tiq*, *til-la*.

4. Bir tovushni ifodalagan ikki harf (*sh*, *ch*, *ng*) birgalikda ko'chiriladi: *mash-hur*, *pi-choq*, *si-ngil* yoki oldingi qatorda qoldiriladi.

5. Ism va ota ismlari qisqartirilsa, familiyadan ajratib ko'chirilmaydi: *S. V. Rahimov*, *A. G'. G'ulomov* kabi.

6. Qisqartma so'zlar, ishoralar va ko'p xonali sonlar bir yo'ldan ikkinchisiga ko'chirilmaydi: *gr*, *sm*, *O'zMU*, *245*, *2003*, *XXI* kabi.

7. Harflardan iborat shartli belgilar o'zi tegishli sondan ajratilmaydi: *6- A sinf*, *7- B guruh*.

40- mashq. So'zlarni bo'g'inlarga ajrating va ko'chiring.

murabbiya, minnatdor, bahramand, daraxt, ming-oyoq, qal'a, ma'lumot, traktor, ingramoq, yenggan, ingichka, mo'jiza.

41- mashq. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shib, so'ng hosil bo'lgan so'zni bo'g'inlarga ajrating.

Namuna: *qalb+i — qalbi — qal-bi.*

qalb, fikr, do'st, naqd, mard, sulh, g'isht, mehr, quvonch, Samarqand.

42- mashq. Ruboiyni o'qing. Mazmunini tahlil qiling. So'zlarni bo'g'inlarga ajrating. So'ng bo'g'in ko'chirish qoidasi asosida ko'chirib yozing.

Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin,
Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin,
Gar yo'qtur adab, ne sud oltin unidin,
Elning adabi xushroq erur oltundin. (N.)

Lug'at: **sud** — foyda, **uni** — un, ovoz, **xushroq** — yaxshiroq.

Savol va topshiriqlar

1. Fe'l nisbatlarini yasovchi qo'shimchalar qanday yoziladi?
 2. Qo'shma fe'llarning yozilishi haqidagi qoidalarni eslang. Misol keltiring.
 3. Quyidagi o'xshash (paronim) so'zlarning ma'nosini imlosiga qarab tushuntirib bering:
quyildi — quyuldi, yuvundi — yuvindi, tushuncha — tushunib, yondosh — yondash.
 4. Ravishlarning imlosiga oid qoidalarni aytib bering.
-



IV. O'ZBEK ADABIY TILINING TALAFFUZ ME'YORLARI



Bilib oling.

O'zbek tilshunosligining amaliy bo'limlaridan biri — orfoepiya bo'lib, u to'g'ri so'zlash (*orfo* — to'g'ri, *epos* — so'zlash) qoidalari haqida bahs yuritadi. To'g'ri so'zlash, avvalo, shaxsning madaniy yetukligini belgilaydi.

Talaffuzda sheva xususiyatlariga yo'l qo'ymay, adabiy tilda so'zlash muhim ahamiyatga ega: *oka* emas, *aka*; *apa* emas, *opa*; *kelutti*, *kelopti*, *kevotti* emas, *kelyapti* kabi.

Adabiy talaffuzning ba'zi qoidalari:

1. *Aql*, *qism*, *ism*, *fikr*, *vaqt*, *ilm*, *hal*, *uzr*, *xalq*, *naql*, *naqd*, *nasl*, *hukm* kabi arabcha so'zlarning barchasida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. Bu bilan orfografik xatoning ham oldi olinadi.

2. *Muhim*, *mudir*, *muqim*, *muhit*, *mumkin*, *munis* kabi arabcha so'zlarning ikkinchi bo'g'ini urg'u oladi hamda juda aniq talaffuz etiladi.

3. *Bahor*, *nahor*, *savol*, *savob*, *avval*, *shamol* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi **a** tovushi **o** tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin **a** yoziladi.

4. *Obr/a/z*, *trakt/o/r*, *direkt/o/r* kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi keyingi unli tovush deyarli talaffuz etilmaydi. Lekin yozuvda **a** va **o** harflari saqlanadi: *obraz*, *traktor*, *direktor* va b. Bu xil so'zlarda **o** unlisi urg'u olsa **o'** tarzida, urg'u olmasa **a** kabi talaffuz qilinadi: *polk*, *tonna* va *dotsent*, *izotop*.

5. Urg'uning o'rnini o'zgartirish so'z ma'nosiga ta'sir qiladi: *bog'lar* — *bog'lár*, *súrma* — *surma*, *qílás* — *atlás*, *mexanik* — *mexanik*, *fizik* — *fizik*, *ólma* — *olma* kabi qatorlarda so'zlarning ma'nosi faqat urg'u yordamida ajratiladi.

43- mashq. So'zlarning urg'usini ko'chiring va ma'noda qanday o'zgarish bo'lganini ayting.

Chóg'lar — chog'lár, bó'g'lar — bog'lár, yígitcha — yigitchá, qó'llar — qo'llár, ishlar — ishlár, áhl — ahíl.

44- mashq. Urg'uni to'g'ri qo'yib o'qing; shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

vazn, madh, nazm, nasr, fasl, sabr, rahm, mehr, jins, mulk, husn.

45- mashq. She'riy matnni o'qing. Har bir so'z urg'usini qo'ying.

1. Odam bo'lib odam qadrin bilmagan Kishilardan o'tlab yurgan mol yaxshi, So'zlaganda so'z ma'nosin bilmagan Insonlardan so'zlayolmas mol yaxshi. (*Maxtumquli*) 2. Non yopadi tongda novvoyi, Hovlisida gullar anvoyi, Ko'rsa arzir hazrat Navoiy, Serfarzand-u serto'y mahallam, Ortiraver obro', mahallam. (*P.M.*)

Gapda ham ayrim so'zlar urg'u olib kuchliroq aytiladi. Odatda, urg'u olgan so'z ko'pincha kesim oldida keladi. Buni **mantiqiy urg'u** deymiz.

Bitta gapda nechta so'z bo'lsa, hammasi o'z o'rnida mantiqiy urg'u olishi mumkin:

1. Bugun; Toshkentda o'qituvchilar **anjumani** ochiladi.

2. Toshkentda o'qituvchilar anjumani **bugun** ochiladi.

3. Toshkentda **o'qituvchilar** anjumani bugun ochiladi.

4. O'qituvchilar anjumani bugun **Toshkentda** ochiladi.

46- mashq. Berilgan matndagi so'zlardan urg'u olgan unli tovushni aniqlang.

Mutolaa inson hayotida muhim o'rin tutadi. Kitob o'qimagan talaba darslarni tushunmaydi, quruq yodlashga moyil bo'ladi, o'zi o'qigan bilim va fan xulosalarini muhokama etmaydi, natijada o'quvchining zehni o'tmaslashadi, „eslab qoladigan jonli asbobga“ aylanadi. Bu juda xavflidir. Bu yo'l kishining aqlini ham, aqliy faoliyatini ham, tabiiy iste'dodini ham zaiflashtiradi. Bu

xavfdan qochish kerak, o'tdan qanday qo'rsak, bu kasallikdan ham shunday qochish kerak. Donolar aytishgan edi:

Har kimki qo'ldan tushmadi kitob,
Ilm osmonida u bo'ldi oftob.

(N. Ganjaviy)

47- mashq. Berilgan so'zlarning urg'usini to'g'ri qo'yib ko'chiring. Imlosini esda saqlang.

Sibir, qit'a, ya'ni, ta'zim, ma'naviy, san'at, Sa'diy, va'da, juz'iy, daf'a, taqozo.



Talaffuz me'yorlariga oid quyidagi qoidalarni *bilib oling*:

1. O'zbek tilida tutuq belgisi unli tovushdan so'ng kelsa, o'sha unli cho'zib talaffuz qilinadi, undoshdan so'ng kelsa, ayirib o'qiladi. Masalan: *a'lo*, *Ra'no*, *ta'lim*, *mas'uliyat*, *qat'iyat* kabi.

2. **b**, **v**, **g**, **d**, **z** tovushlari urg'usiz bo'g'inlarda, so'z oxirida, jarangsiz undoshlar yonida jarangsizlashadi va shunday talaffuz qilinadi: *ketti*, *kitop*, *zavot*, *isnot* va b. Lekin yozuvda qoidaga amal qilinadi: *zavod*, *isnod*, *kitob*, *ketdi*.

3. *Bir* so'ziga **-ta** qo'shimchasi qo'shilganda, **r** tovushi **t** ga aylanadi va shunday o'qiladi hamda yoziladi: *bitta*.

4. Qo'sh undoshlar to'liq talaffuz qilinadi: *muhabbat*, *takabbur*, *muqaddas*, *raddiya*, *izzat*, *muallim*, *tavallud*, *muammo*, *himmat*, *tamanno*, *tannoz*, *muyassar*, *qassob*.

5. **f** tovushi ko'p hollarda **p** tarzida aytiladi, lekin uni aniq talaffuz etish va yozish talab qilinadi: *pabrika* emas, *fabrika*, *shapqat* emas *shafqat*. Bu o'rinda har ikki tovushning ma'no ayirishdagi o'ziga xos xususiyatini ham nazarda tutish lozim: *sof* — *sop*, *tif* — *tip* va b.

6. **x** va **h** tovushlari ikkita mustaqil fonemadir; ularni juda aniq talaffuz qilishni o'rganish lozim.

Muhimi, har ikki tovush ma'no ayiradi: *xush — hush, xol — hol, xiyla — hiyla, shox — shoh, xam — ham, uxlamoq — uhlamoq* va b.

7. Qo'shma fe'llarning qisqargan shakli talaffuz qilinsa ham, uning to'liq shakli yoziladi: *opketti — olib ketdi, opqochti — olib qochdi* kabi.

8. Barcha yuklamalar urg'usiz bo'ladi: *siz-mi, siz-chi, meni-ya, siz-a, siz-da*. O'xshash formalar (omoformalar) urg'u bilan aytilib, ikkinchi (urg'usiz) formadan ajratiladi: *ishda (ish-da)*.

25- topshiriq. Berilgan so'zlarning talaffuzi bilan yozilishini solishtiring.

Unutti — unutdi, o'qipti — o'qibdi, maxsad — maqsad, chochiq — sochiq, Boxodir — Bahodir, yo'xlab keldi — yo'qlab keldi, chochdi — sochdi, bohor — bahor.

48- mashq. Gaplarni o'qing. Orfoepik va leksik xatolarni aniqlab, to'g'rilang.

1. Baxtga qarshi, ko'pchilik aql to'lganda, ozchilik esa, aql ozayganda olamdan o'tadi. 2. Bu daraxt Maktuba juda yaxshi ko'radigan, to dovuchchaligidan boshlab yeb yuradigan qantak o'rik edi. (*M. Qoriyev.*) 3. Yo'q, Sobir Sobirovich hozir zaynitlar, boshqa vaqtda zvonit qiling. (*S. Ahm.*) 4. Biz 10—15 keksa sho'tta to'planishib, bo'lajak choyxona rejasini tuzvotgan edik, birdan rais kelib qoldi. (*Radiodan.*) 5. Vot tak, Xurshidjon yosh bo'lishiga qaramay, respublikada xizmat ko'rsatgan artist degan sharafli unvon egasi Salimovning nuri diydalari. (*N. Aminov.*) 6. Uchinchi to'pning avtoru tepgan so'nggi to'pi o'yindan chiqib, tashqari holatda edi. (*Futbol reportajidan.*) 7. Mashu deng, ko'mmasam, ayaq tiravoldi.

49- mashq. Quyidagi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi a tovushining talaffuziga e'tibor bering.

Muvaffaqiyat, mashq, muzaffar, xavf, mashina, davlat, sazovor.

50- mashq. O'qing, **i** va **u** unilarining talaffuziga e'tibor bering. Shu so'zlardan beshtasini qatnashtirib gap tuzing.

Buyuk, junjikmoq, kuzgi, musicha, pushti rang, turtki, tulki, mumkin, tutqich, kultivatsiya, turnik, kubik, stadion, universal, Yupiter, dispanser, divan, gipnoz, gigiyena, pijama, gimnastika, muhit, girdob, muhim, uyqu, qovurma, tovush, zovur, umid, muxbir.

51- mashq. Tarkibida **i**, **u** unilari bo'lgan so'zlarning aytilishiga e'tibor berib, maqollarni ko'chiring.

1. Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor. 2. Ishlikning ishi bitar, ishsizning kuni o'tar. 3. Shirin so'z shakardan shirin. 4. Qimirlagan qir oshar. 5. Uyat o'limdan qattiq. 6. To'g'ri so'z qilichdan o'tkir. 7. Tog'ning ko'rki — tosh bilan, odamning ko'rki — bosh bilan.

52- mashq. So'zlarni to'g'ri o'qishni mashq qiling.

1. Kashf, ilm, sarf, qarz, arz, aks, ayb, akt, fakt, mulk, fikr, aql, mashq.

2. Muallim, muzaffar, muvaffaqiyat, murabbiy, muddat, muassasa, tavakkal, muharrir, karra, Quddus Muhammadiy, Muyassar Sharafiddinova, Muhabbat Abdullayeva.

53- mashq. Quyidagi so'zlarning aytilishi va yozilishiga e'tibor bering. Shu so'zlar qatnashgan o'nta gap tuzing.

Jizzax, Samarqand, Toshkent, professor, issiq, jizza, izza, o'ttiz, chaqqon, qattiq, g'ijjak, achchiq, parrak, arra, sodda, modda, labbay, ittifoq, zarra, diqqat, rassom, pashsha, muqarrar, muqaddas, murakkab, mukammal, do'ppi, minnatdor, attestat, tashakkur, tashabbus, albatta, vanna, mahalla, sport, front, punkt, juft, konspekt, kaft, zabardast, past, amalparast, durust, daraxt, rost.

54- mashq. Ko'chiring, **x** va **h** undoshlarning talaffuziga e'tibor bering.

Xalq, xabar, shox, xom, mahraj, maxsus, maxfiy, mexanizm, mehmon, mehr, mehnatkash, tahlil, daho, mahkam, hukm, hokim, behi, siyohdon.

Talaffuz va ohang



Bitib oling.

Gap va so'zlarning o'zaro bog'lanishidagi murakkab holatlarni belgilashda, fikrni tushunishda, ayrim gap bo'laklari (uyushgan va ajratilgan bo'laklar, undalma va undovlar, atov gap yo to'liqsiz gap) chegarasini aniqlashda) ohang muhim o'rin tutadi. Misollar: **Tozagul** (ot, atoqli ot) — **toza gul** (aniqlovchili birikma).

So'roq va undov gaplarning yorqin belgilaridan biri — ohangdir. Yozuvda ana shu ohangga mos tinish belgilaridan foydalanamiz.

Masalan:

— *Pirim, Mahdumdan chopar bor.*

— *Chopar? Qani? Chaqir.*

Bu gapni boshqacha o'qib ko'raylik:

— *Pirim Mahdumdan chopar bor.*

— *Chopar qani? Chaqir.*

Uyushiq bo'laklar sanash ohangi bilan aytiladi. Agar umumlashtiruvchi so'z bo'lsa, uni ham o'z ohangi orqali ajratiladi va undan keyin to'xtam (pauza) bo'ladi: *Biz to'plandik Bekobodga **hamma tarafdin**: Farg'onadan, Buxorodan, Qarshidan, Popdan.*

Ohang ajratilgan bo'laklarda, ayniqsa, juda aniq eshitiladi:

*Bu yer, **Qirg'iziston**, ajoyib o'lka. Ona, **jafokash** va **o'ktam**, doimo farzandini o'ylaydi.*

Chaqiriq undalmalarda kuchli ohangdan foydalaniladi:

***Ey Farg'ona!** Ey, mushkul kunlar bolasini tishida tishlab, ey baxtlarni balog'atga yetkazgan Ona! (H. O.)*

Bir bosh bo'lakli gaplarda his-tuyg'u ifodalangan undalma ba'zan gaplardagi biror bo'lak ohangiga

uyg'unlashib ketadi: *Xayr, o'g'lim, oq yo'l bo'lsin.* (H.O.) *Xayr* so'zidan keyin maxsus ohang bo'lmaydi, lekin undalmani vergul bilan ajratish talab qilinadi.

Undov so'zlar, *ha* va *yo'q* so'zlari, kirish so'z va iboralar, ayrim to'liqsiz gaplar ham ajratilgan ohang bilan aytiladi va o'qiladi.

26- topshiriq. Gaplarni qo'yilgan tinish belgisi asosida va uning o'rnini o'zgartirgan holda o'qib, mazmunini izohlang.

1. Yaxshi, tashabbusni qo'llaymiz. Yaxshi tashabbusni qo'llaymiz.

2. To'g'ri yo'lda uchta yengil mashina ketar edi.

To'g'ri, yo'lda uchta yengil mashina ketar edi.

55- mashq. Berilgan gaplarni tinish belgilariga rioya qilib o'qing va har bir gap ma'nolarini izohlang.

Ona — bog'bon niholini toptirar kamol.

Ona — bog'bon, niholini toptirar kamol.

Ona, bog'bon niholini toptirar kamol.

Ona! Bog'bon niholini toptirar kamol.

27- topshiriq. Matnni o'qing. Kerakli o'rinlarga tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

Ko'zingni och chirog'im, tashqarida oying joni halak sendan xabar kutyapti.

Bemor ona so'zini eshitishi bilan chiroyi ochildi.

— Nima pishirib kelay, bolajonim?

— Ko'nglim hech nima tusamayapti.

— Qatiq yuz dardga davo deydilar. Ozigina totib ko'r-chi bolam zora ishtahang ochilsa. Enaga bemorning og'ziga bir qoshiq qatiq tutdi.

— Operatsiyadan yaxshi chiqding qo'zim, endi bu yog'i o'zingga bog'liq.

— O'g'lingizning kayfiyati yaxshi dedi shifokor onaga peshvoz chiqib, nima xohlasa beravering.

Ona o'zida yo'q xursand, shifokorning u yuzi qolib bu yuzidan o'parkan „baraka toping“ deyaverib charchamasdi. Shifokor uzoq xayol og'ushida qoldi.

Eh onalar-onalar. Ona-da bolasining qo'lida zirapcha ko'rsa joni zirqiraydi. Shu tarzda bir emas to'qqiz bolani, ba'zi onalar 11—12 bolani o'stiradi, nevaralarini maktabga uzatadi, chevaralarning tug'ilgan kunini nishonlaydi. Har safar u yoki bu o'g'ildan yo nevaradan bir shirin so'z eshitib oppog'im do'mbog'im deb erkalkar shuning o'zini bir olam baxt deb hisoblaydi. (*D. Mahmudova.*)

56- mashq. Gaplardagi vergullarga (yoki boshqa tinish belgilariga) diqqat qiling va ohangni to'g'ri aniqlang. Bir necha marta o'qing.

1. Otalar! Bu aziz va mo'tabar so'zni hamma vaqt, hamma yerda e'tiqod bilan e'zozlaymiz. 2. Ko'z nurim — onam, oltin so'zim — onam! 3. Aqlning bosh o'lchovi — idrokdir. 4. Do'stim she'rga, rost, bir oz no'noq. (*E. V.*) Eng orombaxsh qo'shiq qaysidir? — desam, dono aytdi: — Alladir.

5. Xolniso. Bolam, oting gazetaga tushgan bo'lsa, endi nima bo'ladi?

Dehqonboy. Bundan ilgari majlisga tushgan edi, nima bo'lardi... Otimni gazetadan o'chirib qo'yinglar, ayam qo'ymayaptilar, deyman.

Xolniso. Qandog' bo'ladi? Yo'g'-el..

... Xolniso. Bolam, jon bolam! Meni yana tashlab ketasanmi? (*A. Q.*)

6. Chin donolar ustoz oldida shogirdligin unutmaz aslo. (*P. M.*)



Bilib oling.

Xatosiz yozish va to'g'ri talaffuzgina emas, xatning chiroyli, ravshan bo'lishi, harflarning aniq yozilishi ham katta ahamiyatga ega. Noaniq, xunuk yozilgan xat ham yozuv egasining fe'l-atvorini, madaniy qiyofasini, o'quvchiga bo'lgan nopisand munosabatini ko'rsatadi.

28- topshiriq. Xatning shakli to'g'risidagi quyidagi fikrlarni o'z so'zingiz bilan gapirib bering.

Yaxshi xat va nuqtadan safhaga jamol; andoqki, yaxshi so'z safhasiga hattu xol. Xushnavis kotib so'zga aroyish berur va so'zlaguvchiga osoyish yetkarur. Agar xat surati noxushdir, o'qig'uvchi va ma'ni ahli andin mushavvashdur. Xushnavisekim, sahvi ko'p bo'lg'ay, ilgi falaj illatig'a tub bo'lg'ay. Ulki bejo nuqta bilan habibni habis qilg'ay, ... aningdek mehnatzadag'a yuz la'nat!

Yomon kotib manzili qalamdonidek choharo bo'lsun, qalamidek boshi yaro va qaro bo'lsun.

Bir xati gar egri tushar bir nuqat,
Nusxada har safhadadur egri xat. (*Navoiy.*)

„Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'lur... Mundan nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bit, ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'quvchig'a“. (*Boburning o'g'li Xumoyunga yozgan xatidan.*)

29- topshiriq. Bosh harflarning chiroyli, aniq, ravshan yozilishi bo'yicha mashq qiling.

30- topshiriq. Pochtadan sizning nomingizga kelgan xatni olish uchun o'rtog'ingizga ishonchnoma yozing.

31- topshiriq. Ijodiy diktant yozing.

Quyidagi test savollariga berilgan
to'g'ri javobni toping

1. -u (-yu) yuklamasi qaysi holda o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi?

- A. Ta'kid yuklamasi.
- B. Zidlovchi bog'lovchi.
- C. Juft so'zlar.
- D. Teng bog'lovchilar.
- E. Barcha hollarda.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida“gi qarori qachon qabul qilingan?

- A. 1989- yil 21- oktabr.
- B. 1993- yil 29- sentabr.
- C. 1994- yil 15- noyabr.
- D. 1995- yil 24- avgust.
- E. 1996- yil 18- aprel.

3. Yangi o'zbek imlosiga ko'ra chiziqcha bilan yozish qoidasi qaysi qatorda buzilgan?

- A. El-yurt.
- B. Yozdi-qo'ydi.
- C. Do'st-u dushman.
- D. Kecha-yu kunduz
- E. Barchasida chiziqcha to'g'ri qo'yilgan.

4. Qaysi qatorda so'zlar alifbo tartibida berilgan?

- A. Niyat, oqil, sabr, ro'mol.
- B. Sim, ulug', cho'pon, elektr.
- C. Belbog', vatan, xohish, fikr.
- D. G'isht, hayot, qasr, o'zbek.
- E. Aziz, mard, lochin, kuch.

5. *Baland boloxonali uy.*

Ushbu jumlada qanday holatda uyning balandligi anglashiladi?

- A. *Baland* so'zidan so'ng to'xtalish (pauza) bo'lsa.
- B. *Boloxona* so'zidan so'ng to'xtalish bo'lsa.
- C. So'zlar orasida to'xtalish bo'lmasa.
- D. Ma'noli gap bo'laklarining kengayishidan.
- E. Har qanday holatda ham anglashiladi.

6. *Yangi, hozir* so'zlarida urg'u oxirgi bo'g'inga tushganda qanday ma'no anglashiladi?

- A. Yangi kitob, hozir shu yerda edi.
- B. U yangi keldi, davrada hozir bo'ldi.
- C. U yangi ketdi, hozir shu yerda edi.
- D. Yangi kitob, davrada hozir bo'ldi.
- E. Ma'nolar urg'uga bog'liq emas.

7. Urg'u yordamida *suzma, qizgina* so'zlarida chegaralash ma'nolarini to'g'ri aniqlagan qatorni toping.

- A. Suzmá, qizgina.
- B. Súzma, qizginá.
- C. Suzmá, qizgina.
- D. Suzmá, qizginá.
- E. Súzma, qizgina.

8. Qaysi juftlikda so'zlar xato yozilgan?

- A. Mo'tadil, motadil.
 - B. Motabar, mojiza.
 - C. Ta'na, tana.
 - D. Nash'a, nasha.
 - E. Sur'at, surat.
-



V. SINTAKSIS VA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI



Bilib oling.

Hozirgi yozma adabiy tilda 10 ta tinish belgilari qo'llanadi: nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), ko'p nuqta (...), qavs (), qo'shtirnoq („“), vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), tire (—).

1- §. Tinish belgilarini qo'llash qoidalarining asoslari



Bilib oling.

Ma'lum bir maqsad, fikr og'zaki nutqda ma'lum bir ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali ifodalanadi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda ko'rsatishda qo'shimcha, ammo zaruriy vositadir. So'zlovchining maqsadini tinish belgilari orqali bilib olamiz:

Poyezd keldi. Poyezd keldi! Poyezd keldi?

Bu uch gapdagi xabar, his-hayajon, so'roq mazmuni gaplardan so'ng qo'yilgan tinish belgilari orqali bilinadi.

Tinish belgilari **mazmun, ohang va gapning grammatik qurilishiga** ko'ra qo'llanadi:

1. **Mazmun.** Ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, **nuqta, undov** yoki **so'roq belgisi, uch nuqta** qo'yiladi. Masalan:

— *O'zimiz institut ochyapmiz, bilib qo'y...*

— *Institut?*

— *Institut! (As. M.)*

O'zgalarning gapi bo'lsa, **qo'shtirnoqqa** olinadi:

„Ertaga sinovlar boshlanadi“, — dedi o'qituvchimiz.

Gaplar orasidagi mazmun munosabatlari qo'shma gaplarda **ikki nuqta, tire, vergul** yoki **nuqtali vergul** orqali ifodalanadi.

Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar **ko'p nuqta** yoki **qavslar** orqali ifodalanadi.

2. Grammatik qurilish. Ayrim tinish belgilari gapning grammatik tuzilishiga ko'ra qo'llanadi. Masalan, ega bilan kesim orasida tire qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ma'lum grammatik qoidalar asosida belgilanadi.

Ayrim ergash gaplar o'z tuzilishiga ko'ra vergul bilan ajratiladi. Masalan, *Yo'lchi, qancha aqchasi bo'lsa ham, berishga tayyor edi.* (O.) Bu jumladagi *qancha aqchasi bo'lsa ham* ergash gap bo'lgani uchun bosh gap orasida to'xtalish (pauza) bo'lmasa ham, undan so'ng vergul qo'yiladi.

3. Ohang. Ohang fikr, maqsadning og'zaki nutqdagi ifodasidir.

Har bir tinish belgisi o'ziga xos ohangga ega bo'ladi: undov, so'roq belgisi, ko'p nuqta va nuqta — tugallangan ohang bilan; qo'shtirnoq, qavs kichik to'xtalish bilan, ajratilgan ohang bilan; ikki nuqta, tire — izoh ohangi bilan; vergul, nuqtali vergul kichik to'xtalish ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Ayrim tinish belgilari ohang talabi bilangina qo'yiladi:

*Qush mag'rur — qanoti bo'lgani uchun,
Tog' mag'rur — savlati bo'lgani uchun.* (H.P.)

Bu jumlada tire ohang talabi bilan, birinchi gaplarning ma'nosiga diqqatni jalb etish talabi bilan qo'yilgan.

Vatanimiz — kelgusida buyuk davlat bo'ladi. Bu jumlada kesim egaga bo'ladi bog'lamasi bilan birikkani uchun egadan so'ng tire qo'yilmasligi kerak edi. Ammo ega mantiqiy urg'u olgani uchun undan so'ng tire qo'yilgan.

57- mashq. Hikoyani o'qing. Har bir gapning mazmun jihatdan turini ayting. So'roq va undov gaplarning hosil bo'lish asoslarini aytib bering.

— Buva, siz... hu anavi kishidan ham soqolingiz oppoqku, nega siz hassa tayanmaysiz?

— Buning siri bor, chirog'im.

— Qanaqa siri?

— O'zing ko'rasan-ku, — Ahmad bobo bosiq ohangda gapira boshladi, — men hovliga kirdim deguncha, ketmon qo'limdan tushmaydi. Bekor o'tirgan vaqtim bo'lmaydi. Shundaymi?

— To'g'ri, — javob qildi Shavkatjon.

— Ha, balli! — dedi Ahmad bobo. — Har kim ham yoshligidan mehnat qilib chiniqsa, keksayganda ham sog'lom, baquvvat yuradi.

— Buva, siz hamma narsani qanday bilib olgansiz-a? — so'radi u.

— Buning ham siri bor, chirog'im.

— Siri?

— Ha, siri bor. Mana o'zing o'ylab ko'r: birov bir narsani tushuntirayotganda, fikrini bo'lmay quloq solsa, bo'sh vaqtlarida ko'p o'qisa, qunt bilan o'rgansa, bilmagan narsasini boshqalardan so'rab olsa, ko'p narsa bilishi mumkinmi? Ha, balli. Ko'p narsa bilishimning siri ana shunda, — dedi Ahmad bobo.

— Tushundim, — dedi Shavkat. (O. Yusupov)

2- §. Sodda gaplar va ularda tinish belgilarining qo'llanishi



Bilib oling.

1. Darak gaplar mazmuniga ko'ra xabar beruvchi, tinch ohang bilan aytiluvchi gaplardir. Bu xil gaplar oxirida **nuqta** qo'yiladi:

Valijondan salom. Oydin kecha. Havo sof va salqin.

His-hayajon ifodalangan darak gaplardan keyin undov belgisi yoki ko'p nuqta qo'yilishi mumkin: *Minglab gulistondan afzaldir bu joy! (U.)*

2. So'roq gaplar biron narsa, voqea-hodisa to'g'risida xabar berishni so'ragan gaplardir. Bu xil gaplar so'roq olmoshlari, yuklamalari ohangi orqali tuziladi va ulardan so'ng **so'roq belgisi** qo'yiladi:

— *Sinovlarga qanday tayyorlanyapsiz? Zarur adabiyotlarni o'qib chiqdingizmi?*

— *Zarur adabiyotlarni?*

Agar so'roq gap qo'shimcha mazmun ifodalasa, undan so'ng undov belgisi, so'roq belgisidan tashqari, ko'p nuqta va boshqa belgilar qo'yiladi:

Kurashadi ikki to'lqin, qarab turaymi!? (O.)

Nahotki daryolar teskari oqar?! Siz bu ishga qanday qilib qo'l urdingiz!

3. Undov gaplar mazmuniga ko'ra, ikki guruhni tashkil etadi:

1) mazmunidan buyruq, iltimos, tashviq, maslahat, tilak-orzu, kinoya, do'q ma'nolari anglatilgan undov gaplar (bunday gaplarni buyruq gaplar ham deyiladi);

2) faqat his-hayajon anglatuvchi undov gaplar.

Birinchi turdagi undov gaplarning kesimi buyruq fe'li yoki shart fe'llari bilan ifodalanadi. Bu xil gaplardan so'ng ko'proq undov belgisi, nuqta, ba'zan mazmuniga qarab, ko'p nuqta, undov belgisi bilan ko'p nuqta, ba'zan birdan ortiq undov belgisi qo'yiladi.

Undov gaplarning ikkinchi turi sof his-hayajon bildiruvchi gaplardir. Bu turdagi undov gaplar undov so'zlar, nisbiy olmoshlar, ohang va bu vositalarning birlashishi bilan ifodalanadi. Misollar.
Ey bola paqir-ey! (P. T.) Eshikka tomon yurar ekan: Esiz, esiz, ey bechora!.. — dedi o'zicha (P. T.) O'hu, kapsanchilar qishlog'i shunaqa chiroylimi! (A. Q.) Bu qanday bedodlik, bu qanday zulm!!! (Y.) Bu qanaqa adolatsizlikki, bola onasiz qolsa! (P.T.) Qanday quvonch!.. (S. Jo'ra)

32- topshiriq. Quyidagi gaplardan keyin kelgan tinish belgilarining qo'yilish sababini aytib bering.

1. — Ilgariroq balki shundoq bo'lgandir, ammo endi...ayniqsa siz...

— Ayniqsa men... ochib so'zlangiz. (A. Qod.)

2. — Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib gochishlar...Uff! (A. Qod.)

33- topshiriq. Quyidagi gaplardan so'ng zarur tinish belgilarini qo'ying va ularning ishlatilish sababini tushuntirib bering.

1. Bir olim endi qararmish
Tarixga boshqa ko'z bilan
nechta ko'zi bor uning (*T. M.*)
2. G'azab oti qayga eltar — Go'rga
Bormi uning davosi — Bor
Sukut erur uning shifosi (*T. M.*)
3. Ilm senga hech nima bermas
Bag'ishlay olmasang
Ilmga o'zingni. (*T. M.*)
4. Axloqsizlikning erur onasi
ajdodlarni izzat qilmaslik (*T. M.*)

34- topshiriq. 1. So'roq olmoshlarini sanang va anglatgan ma'nolarini ayting.

2. So'roq yuklamalarining imlosi esingizdami?
3. Dialog va uning yozilishi haqidagi qoidani bilasizmi?

58- mashq. So'roq olmoshlari ishtirokida ikkita, **-mi, -chi, -a, -ya** yuklamalari yordamida to'rtta so'roq gap tuzing.

59- mashq. Berilgan gaplarni ohang yordamida avval undov gapga, keyin so'roq gapga aylantiring.

Inson oyga uchdi. Qahramonlar biz tomon kelishyapti.
Xolmatjon chempion bo'libdi.

60- mashq. O'qing. Tinish belgilarini izohlang. Undov gaplarni ajratib ko'chiring.

1. Otalar! Bu aziz va mo'tabar so'zni hamma vaqt, hamma yerda faxr bilan tilga olamiz, e'tiqod bilan e'zozlaymiz. Chunki ular bizga ozod va hur hayotni in'om etdilar.




Otalarimiz bizga mardlik va qahramonlik, Vatanga sadoqatli bo'lish nima ekanligini ko'rsatdilar. Otalar! Qasamyod qilamizki, biz sizlarning buyuk, an'analaringiz-

ning davomchisimiz, Vatanimizga, xalqimizga hamisha sodiq bo'lamiz! Sizlar kabi mehnatimiz, hayotimiz, butun qalbimiz bilan porloq kelajak uchun xizmat qilamiz! (*Gaz.*)
 2. Aziz muallimlar, aziz ustozlar! Bugun bayramingiz muborak bo'lsin! (*A. Oripov*)

I - jadval

Darak, so'roq va undov gaplarda tinish belgilari




I. Sof darak, so'roq, buyruq mazmuni anglashilganda:

- | | | |
|---|---|---|
| 1. | 2. | 3. |
|  . |  | ?  ! |

Masalan:

1. Baxmal qirlar, paxtazorlar ko'm-ko'k. (*H. O.*)
2. G'ulom aka, o'sha vaqtlarda qancha hosil olar edingiz? (*A. Q.*)
3. Boshqalar bizga qarasin, o'ylasin. (*A. Q.*)








II. Turli his-hayajon ifodalanganda:

- | | | |
|---|---|---|
| 1. | 2. | 3. |
|  ! |  | ?!  !! |
| | | (!?) |

Masalan:

1. Biroq men qo'rqamankim, siz Qo'qonga borib yetguncha ish vaqtidan o'tsin! (*O.*)
2. Gapirsangiz-chi, nima bo'ldi?! (*S. A.*) Eh, qanday chiroyli, so'lim joylar-a!?
3. Bu qanday bedodlik, bu qanday zulm!! (*Y.*)




III. Tugallanmagan fikr ifodalanganda:

1.    2.  ?  3.  ! 
- (!...) (!...) (!...)

Masalan:

1. Xalqimizning chuqur idroki bor, g'ururi, an'anasi bor... (O.)
2. Bo'yraday joyga sholg'om ekan odamga ham suvmi?.. (O.)
3. Men yetim o'sganman, oh, u yetimlik!.. (G' G')

Shartli belgilar:

-  — darak gap.
-  — so'roq gap.
-  — undov yoki buyruq gaplar.

Ega bilan ot-kesim orasida tirening ishlatilishi

Eslang va bilib oling.

Ot kesimlar bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanganda, ega bilan ot kesim orasiga tire qo'yiladi. Kesim bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanganda, ega ot, olmosh, otlashgan so'z voki harakat nomi bilan ifodalanishi mumkin. Kesimlar ot, olmosh, otlashgan so'z bilan ifodalangan ega yo kesim bilan yoki har ikkisi o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelganda, tire kesimga oid so'zlardan oldin, bevosita egadan so'ng qo'yiladi.

1. Kesim harakat nomi yoki sanoq son bilan ifodalanganda ham ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi. Masalan, *Maqsadim — a'lo o'qimoq. Ikki karra ikki — to'rt.*

2. Ega bilan kesim *bu, u, mana bu* so'zlari bilan ajralganda ham, ega va kesim orasida tire ishlatiladi, tire bu so'zlardan oldin qo'yiladi. Masalan:

Tinchlik — bu sevinchdir, hayotda lazzat,
Tinchlik — bu totuvlik, har ishda orom.

(A. Umariy)

Ega bilan kesim orasida tire qo'yilmasligining sababi shuki, kesim *-dir, bo'ladi* bog'lamalari bilan kelgan yoki kelishik qo'shimchasini olgan bo'ladi. Bundan tashqari, kesim sifat, ravish, egalik olmoshi yoki tartib son bilan ifodalanganda ham, ega bilan kesim orasiga tire qo'yilmaydi.

Ega bilan kesim orasida quyidagi o'rinlarda ham tire qo'yilmaydi:

1. Agar ega bilan kesim orasida *ham* yordamchisi bo'lsa: *Olma ham meva. Bular ham a'lochi.*

2. Kesim shaxs qo'shimchasini olsa yoki yuklama bilan birikib kelsa:

Bu kishi muallimimiz. Bu ishni bajaruvchi sensan. Yuragi qalam-u, qog'ozi — keng yer. (H. Po'lat) A'lochilaringiz Salimjonmi?

3. Kesim sifat, son, olmosh, ravish bilan ifodalanisa:

Yurtimiz obod. Ona tilidan yuqori baho olgan talabalarning soni yigirma beshta. Nega yurishingiz sekin?

35- topshiriq. Quyidagi she'riy parcha va jummalardagi tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. Ega bilan kesim orasiga zarur o'rinlarda tire qo'ying. Tirening ishlatilish yoki ishlatilmaslik sababini aytib bering.

1. Ona tilim bag'ri keng tilim
Ajdodlardan qolgan merosim
O'zbek tilim sen iftixorim
Jahon uzra tanitgan qadrim
Asrlar osha doimo borsan

Kezi kelsa chidagan sabr-bardoshim
So'zlaring dur o'zing gavharim
Kechagi kun eding orzu armonim.

(*M. Mirzarahimova*)

2. Eli baquvvatning beli baquvvat. Vatan taqdiri har bir kishining taqdiridir. Vatanparvarlik bobolardan qolgan meros. Ona yurt oltin beshik. O'z diyorini gullatganning baxti gullaydi. Vatanni sevmoq iymondandir. („*Hadis*“dan.) Vatan onadek tanhodir, yagonadir. Har bir insonning baxt-u kamoli Vatan bilandir. Istiqlol bu ota-bobolari-mizning asriy orzu-umidlari edi.

36- topshiriq. Quyidagi jumalarda tirening qo'llanish sabablarini aytib bering.

1. Xalq ona yurtni „Ona yurtim — oltin beshigim“ deb ulug'laydi.

2. Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen — Muqanna, sarbador — sen
Erksevar qon, o'zbekim. (*E. V.*)

3. Istiqloling — istiqboling,
Ortaversin do'st-u yoring.
Bo'lsin Tangrim madadkoring,
O'zbekiston Vatanimsan —
Gullayotgan chamanimsan. (*V. Ahmadjon*)

4. Vatan — u mening jon-u tanim, sajdagohimdir.

5. 1- sentabr — O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.

6. Vatan gadosi — kafan gadosi.

7. Vatanning tinch — sen tinch.


8. Vatan uchun qurbon bo'lganlarning hoki — muqaddasdir.

9. Do'stlik — xalqimizning xulqi odati,

Do'stlik — o'lkamizning qudrati, shoni. (*U.*)


10. Boylikning eng yaxshisi — ko'ngil boyligi.

Ega bilan ot-kesim orasida tirening qo'llanishi



Masalan:

1. Uning (odamning) oftobi — odamdan ko'radigan mehr-oqibati. (A. Q.)
2. Siddiqjon — qarol bola, bu — o'ziga to'q bir odamning qizi... (A. Q.)



1. Men tug'ilgan Vatan — u muqaddas.
2. Qozog'iston — bu oltin, kumush. (H. O.)

Uyushiq bo'laklarda tinish belgilari



Bilib oling.

Gapda birdan ortiq ega, kesim, hol, aniqlovchi, to'ldiruvchi bo'lishi mumkin. Bunday bo'laklar uyushiq bo'laklar deyiladi. Uyushgan bo'laklar bir xil shaklda, bir xil vazifada keladi.

Uyushgan bo'laklar o'zaro **bog'lovchisiz** yoki **bog'lovchilar** bilan bog'lanadi. Bog'lovchisiz bog'langan uyushiq bo'laklar birlashtiruvchi ohang bilan o'zaro birikadi.

1. *Bog'lovchisiz bog'langan uyushiq bo'laklar* vergul bilan, agar ular birikib kelsa, nuqtali vergul bilan ajratiladi:

*Kitob, qalam, daftar bo'lsin yo'ldoshing. (Habibiy.)
U hovli supurdi, suv tashidi, kul tozaladi. (P. T.)*

*Qo'nonboy yonida bir gala xushomadgo'ylari:
Srgizboylardan Moybosar, Jaqib, Iziquttilardek
qarindoshlari; Juontayoq, Qorabotir, To'pay,
To'rg'ay elining oqsoqollari bor edi. (M. A.)*

2. *Bog'lovchili uyushiq bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar* yordamida bog'lanadi.

Teng bog'lovchilar to'rt xil bo'ladi:

- 1) *zidlovchi bog'lovchilar: ammo, lekin, biroq;*
- 2) *ayiruv bog'lovchilar: yo, yoki, yoxud, goh, dam;*
- 3) *biriktiruv bog'lovchilari: va, ham, bilan;*
- 4) *inkor bog'lovchisi: na-na.*

Zidlovchi bog'lovchilar orqali bog'langan uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'yiladi: *Oy yoritadi, ammo isitmaydi.*

Ayiruv bog'lovchilar orqali bog'langan uyushiq bo'laklarda ayiruv bog'lovchisi yolg'iz kelsa, uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'yilmaydi; takrorlanib kelsa, vergul shu bog'lovchilardan oldin qo'yiladi:

*Seni Zebo, zebi qiz deymi,
Oydin kecha yo kunduz deymi,
Sohibjamol yo dilbar deymi,
Yo san'atkor, yo chevar deymi?!*

(A. Umariy)

yo, yoki, yoxud, goh, dam ayiruv bog'lovchilaridan tashqari, shu vazifada *ba'zan, bir, ham* so'zlari ham keladi.

Inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan uyushiq bo'laklarda ham vergulning ishlatilishi takroriy ayiruv bog'lovchilaridagi kabi bo'ladi:

*Na xotin, na farzand ko'rmagan,
Hayotning zavqini surmagan...*

(U.)

Bu o'rinda inkor bog'lovchisi yordamida birikkan uyushiq bo'laklar orasida va bog'lovchisi bo'lsa, ular o'zaro vergul bilan ajratilmaydi. Masalan, *Na kampirning va na Qoratomyning yupatishlari kor qildi. (O.)*

Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar orasida vergul ishlatilmaydi:

Qishloqlar yasandi va obod bo'ldi.

*Olma bilan gilos, olucha, anor,
Bizning bog'imizda istagancha bor.*

* * *

Yana quyidagilarga diqqat qiling:

1) **bilan** ko'makchisi teng bog'lovchi vazifasida ham kelib, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'laydi, bunday vaqtda uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'yilmaydi: *Qalam bilan daftar oldim;*

2) **ham** bog'lovchisi takrorlanib kelsa, uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'yiladi: *Mening kirib kelishim har ikki uyda, ya'ni bizning uyda ham, Saodatlarning uyida ham juda katta quvonchlarga sabab bo'ldi. (G'. G')*

3) biriktiruv bog'lovchisi vazifasida *-u(-yu)*, *-da* yuklamalari ham kelishi mumkin. *-u(-yu)* yuklamasi gap bo'lagiga chiziqcha bilan qo'shib yozilib, undan so'ng vergul qo'yilmaydi; *-da* yuklamasi chiziqcha bilan yozilib, undan keyin vergul qo'yiladi:

*Irq-u rang-u din-u nasab singari
Axloqsiz so'zlarni olmas og'ziga.*

(G'. G')

Salima keldi-da, darhol qaytib ketdi.

Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilar. Agar aniqlovchilar shaxs yoki narsa-buyumni bir tomondan aniqlasa, ular uyushgan aniqlovchi bo'ladi:

*Keng, mehribon, iliq quchog'ing,
Hamisha mazlumlar panohi bo'lgan.*

(G'. G')

Bu xil aniqlovchilar vergul bilan ajratiladi.

Aniqlovchilarning uyushmasligiga sabab ularning shaxs yoki narsa-buyumni turli tomondan aniqlashidir. Bu holda ular orasiga vergul qo'yilmaydi: *Issiqdan mudragan horg'in oriq otining yalqov qadamiga bardosh qilib shahardan kelayotgan edi. (O.)*

Uyushiq bo'laklar **umumlashtiruvchi so'zlar** bilan birga kelishi mumkin. Ular uyushiq bo'laklarni birlashtiradi, umumlashtiradi. Bunday so'zlarni ayirib ko'rsatish uchun maxsus tinish belgilari — **tire** yoki **ikki nuqta** qo'llanadi.

Umumlashtiruvchi so'z umumiy (to'da) tushunchani, uyushiq bo'laklar xususiy (tur) tushunchani ifodalaydi.

Agar umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta qo'yiladi: ***Hamma narsa: uylar, devorlar, daraxtlar, qorong'ilikda jimgina cho'kdi. (O.) Jaladan so'ng daladagi narsalarning hammasi: polizlardagi ekinlar, daraxt nihollari, hatto omonat chayla ham yer bag'irlagan edi. (H. N.)***

Agar umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'lakdan keyin kelsa, umumlashtiruvchi so'zdan oldin tire qo'yiladi: ***Gulzorning narigi tomonida daroyi, husayni, yakdona, charos, kishmish — turli uzum ishqomlari bor edi. (J. Sh.) Yosh-u qari, erkak-ayol — hamma mehmonlarni kutib olishga peshvoz chiqdi. (O.) Bir yoqda olmalar, o'riklar, giloslar, olchalar — mevali daraxtlar tutash havo gulzori yasaydi. (O.)***

37- topshiriq. Quyidagi gaplarda qanday gap bo'lagi uyushganini va qaysi gapda umumlashtiruvchi so'z borligini aniqlab, zarur tinish belgilarini qo'yib ko'chirib yozing.

1. Bunda bor na ofat na g'urbat na g'am. (*G'. G'*)
2. O'ktam quturgan va o'kirgan suvda bo'ynigacha botib ishlardi. (*O.*)
3. Oltin sirg'alardek shoda uzumlar
Husayni sohibi charos so'limlar
Quyoshda tovlanar sharbatga to'lib. (*G'. G'*)

4. Jonim yurak qonim hatto shu tanim
Bir butun holida bari seniki. (*G'. G'*)

38- topshiriq. Uyushiq bo'laklarni aniqlab, ulardagi qo'yilgan va qo'yilmagan tinish belgilarini izohlab bering.

1. Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar. (*O.*)

2. Zaynab bilan xushchaqchaq Huri,
Adol bilan yallachi Nuri,
Asal bilan o'yinchi Sora,
Surma bilan quvnoq Ruxsora,
Sarvi bilan dutorchi Gulnor,
Qunduz bilan Suqsur va Anor
Birga-birga qaytadi xandon. (*H. O.*)

3. Xirmonga katta yo'ldan yoki uvatdagi yolg'izoyoq yo'ldan boriladi. 4. Zumrad har bir notiqning so'zini qunt bilan ixlos bilan eshitgan edi. (*O.*) 5. Otabek onasiga bir qarab oldi-da, javob bermadi. (*A. Qod.*) 6. Ertadan senga kitob, daftar beraman, o'qiysan yo xat yozasan. (*A. Q.*)

61- mashq. O'qing. Qanday gap bo'laklari uyushganini ayting. Moslikning grammatik shaklini aniqlang. Uyushgan bo'laklar qatorida mantiqiy yo uslubiy xatolar bo'lsa, tuzating.

1. Sohilda o'tkir hidli qoramtir yalpizlar, sershox jambillar o'sib yotadi. 2. Yodgor mana shu ariqchada qachon muz erib bitganini, qaysi qoqigul eng avval ochilganini, qaysi daraxtning qaybir shoxida qaysi yaproq birinchi bo'lib yozilganini hozir ko'rsatib bera olardi. (*G'. G'*) 3. Bozor iqtisodiyotiga bag'ishlangan konferensiyaga shaharning faylasuflari, siyosatdonlar, akademiklar, tarixchi va adabiyotchi olimlar kelishgan edi. 4. Undan achigan ayron bilan kuygan qo'g'irmoch hidiga o'xshagan sal nordon va shirin hid keladi. (*O. Y.*) 5. Butun kuchimni ikki ko'zimga yig'dim-da, uning bevafo, biroq g'amgin, sho'x, lekin ma'yus ko'zlariga tikildim. (*G'. G'*)

62- mashq. O'qing. Uyushiq bo'laklarni umumlashtiruvchi so'z bilan almashtiring.

1. O'sha kuni Toshkent bilan Farg'ona ham, Andijon-u Namangan ham, Samarqand-u Nukus ham bayramga bahor liboslarini kiyib chiqdilar. 2. Meni bu yerga tog' bag'rini to'ldirgan bodom, shaftoli, anor, o'rik va olma gullari yubordi. (*Sh. R.*) 3. Inson boshi to'kinlikni ham, ochlikni ham, sevinch va dahshatni ham, kulgi va yig'ini ham ko'rar ekan. 4. Yelisey maydonida ham, Afina ziyoratgohlarida ham, Bosfor sohillarida ham, Nyu-Yorkdagi ozodlik haykali oldida ham Tinchlik degan so'z salobat bilan yangradi. (*Gaz.*) 5. Yagona husn mutlaq mavjuddir, inim. Quyoshning nurlarida, dengizlar toshqinida, tog'larning muazzam jussasida va yaproqlarning titrashida uning jamolini ko'ramiz. (*O.*)

63- mashq. O'qing. Uyushiq bo'laklar qatori xato tizilgan o'rinlarni aniqlab tuzating.

1. Iste'dodli adib ko'p asarlar va dramalar yozdi. 2. Gullagan vodi, kishnagan toying go'zal. (*U.*) 3. Ko'chalar, yo'lklar, sohil bo'ylari, dala yo'llari ajoyib bog'larga — gulzorlarga aylantirildi. (*Gaz.*) 4. O'yingohda to'planganlar orasida ayollar va chollar, o'quvchilar va o'qituvchilar bor edi. 5. Deputatlar yig'inlarida ishchilar va dehqonlar, hosilot va muhandislar, shifokorlar va o'qituvchilar, olimlar va artistlar, rassom hamda yozuvchilar, korxonalar rahbarlari, harbiy qism jangchilari, turli millat vakillari qatnashmoqdalar. (*Gaz.*)

64- mashq. O'qing. Gaplarning ohangiga e'tibor bering. Bog'lovchilarning turini aniqlang. Uslub tomondan xato qo'llangan bog'lovchi bo'lsa, o'rniga sinonim topib qo'ying.

1. Qahramon tirikligi bilan emas, qahramonona ishi bilan abadiy bo'ldi. 2. Oq, olachipor, oqsariq vako'kimtir kabutarlar sepilgan donni terib yeyishar edi. (*O.*) 3. Yoshlar kelar uzoqdan, G'arbdan, Sharqdan — har yoqdan. (*F. Yo'ldosheva*) 4. Bizga tanish Gomer, Gyote va Jomiy. Egachi-singildir Shirin bilan Darajon. (*„Xat“dan*) 5. Bu kumush daryolar, bu zumrad bog'lar, Gul tanli vodiylar, uvatlar, tog'lar, gul bilan to'lgan tuproqlar, bu baxt taronasi, bu oltin chog'lar... Baxtiyor naslning baxti, davlati... (*„Xat“dan*)

Uyushiq bo'laklarda tinish belgilari

I. Vergul qo'yilmaydi:

_____	va	_____
_____	hamda	_____
_____	ham	_____
_____	yoki	_____
_____	yo	_____
_____	-u(yu)	_____

Masalan:

1. 1. Har bir mushkulni aql va sovuqqonlik bilan hal qiladi. (*U.*)

2. Qalam ham daftar bo'lsin yo'ldoshing. (*Habibiy*)

3. Lutfiy va Sakkokiy, Navoiy hamda Bobur go'zal g'azallar bilan dunyoga mashhur bo'ldilar. (*Gaz.*)

4. Darhaqiqat, so'fining o'rnida uning ko'lagasi yo arvohi singari bir narsa ko'rinardi. (*Ch.*)

5. Har tomonda traktor yo ot bilan kultivatsiya qizg'in bormoqda edi. (*O.*)

6. Onasiga tomon yuzlandi, Yuzlandi-yu rangi bo'zlandi. (*H.O.*)

II. Vergul qo'yiladi:

	_____	,	_____
	_____	,	ammo
	_____	,	lekin
	_____	,	biroq
yoki /	_____	,	yoki
yo	_____	,	yo
dam	_____	,	dam
ba'zan	_____	,	ba'zan

na	█	,	na	█
goh	█	,	goh	█
ham	█	,	ham	█
	█	,	balki	█
	█	-da,		█

Masalan:

1. Vasiqalar, afsonalar bu shaharni Iskandar Zulqarnayn bino qilganini so'ylar edilar. (O.)
2. Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. (P. Q.)
3. Dam achchig'im chiqadi, dam kulgim qistaydi. (G'. G')
4. Ba'zan sahna, ba'zan minbar vazifasini o'taydigan so'ri dam olish joyiga aylantirilgan. (As. M.)
5. Bunda bor na ofat, na g'urbat, na g'am. (G'. G')
6. G'ulomjon goh so'zlab, goh o'ylab o'tirar edi. (M. Ism.)
7. Husayn Boyqaro hazratlari ham shoir, ham ilmparvar emishlar. (O.)
8. O'qituvchi she'rni o'qidi-da, darhol tushuntira ketdi. (M. Ism.)


Shartli belgi: █ — uyushiq bo'laklar.

4- jadval

Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilar


1. Uyushgan aniqlovchilar.

a) narsani turli tomondan aniqlaydi.



Shirin, nordon, achchiq olmalar.


b) narsani bir tomondan aniqlaydi.



Qizil, sariq, pushti gullar.

2. Uyushmagan aniqlovchilar.

Narsani turli tomondan
aniqlaydi.



Qaytarma yoqali xipcha shoyi ko'ylak.

5- jadval

Umumlashtiruvchi so'zlarda tinish belgilari

●●●●● ■ : ■ , ■ , ■

Qo'zg'oldi butun xalq: rus, o'zbek, yahudiy... (G' G')

●●●●● ■ ●●●●● : ■ , ■ , ■

Sayohatga chiqishdan oldin hamma narsani tayyorlab qo'ydik: oziq-ovqat, kiyimlar, sovun va tish cho'tkalari-gacha.

●● ■ , { masalan
ya'ni
xullas : ■ , ■ , ■ (,) ●

Respublikamizdagi ko'plab pedagogika institutlari, masalan: Farg'ona, Namangan, Sirdaryo institutlari — universitetga aylandi.

●●● ■ : ■ , ■ , ■ (,) ●●●

Jaladan so'ng daladagi narsalarning hammasi: polizlardagi ekinlar, daraxt nihollari, hatto, omonat chayla ham, yer bag'irlagan edi. (H.N.)

● ● ■ , ■ , ■ — ■ ● ● ● ● ●

Bosh turmushim to'ri, ko'nglimning jo'ri — Bularning hammasi sen, Vatanim — onam. (H. P.)

Shartli belgilar:

- — umumlashtiruvchi so'z.
■ — gapning uyushiq bo'laklari.
● — gapning boshqa bo'laklari.

Gapning ajratilgan bo'laklari va ularga tinish belgilarining qo'llanishi

Eslang va bilib oling.

Gapning bo'laklari ajratilishi mumkin. Gap bo'laklarini ajratish orqali murakkab fikr sodda, ixcham va ta'sirli ifodalanadi.

Gapning hamma bo'laklari ham ajratilishi mumkin:

1. Ajratilgan egalar: *Men, **Salimov To'liqin**, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida 1968-yili tug'ildim.*

2. Ajratilgan kesimlar: *Uyda ko'p ish qildi — **supurdi, kir yuvdi, tozaladi.***

3. Ajratilgan aniqlovchilar: *O'sha otga mana bu bolaning, **Qudayberdining** ishq tushib qolgan ekan. (M. A.)*

4. Ajratilgan to'ldiruvchi:

*Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni — **allakimimni.** (G'. G')*

5. Ajratilgan hol: *Yillar mana shu xilda, **osoyishta** o'tar edi. (A. Q.)*

Ajratilgan bo'lak ikki vazifada keladi:

1) u o'zidan oldingi mavhum ma'nodagi bo'lakning ma'nosini izohlaydi va diqqatni ana shu bo'lakka jalb qiladi;

2) o'zi ifodalagan mazmunning ma'nosini ajratadi, diqqatni shu bo'lakka qaratadi.

Bu xil ajratilgan bo'laklar ham ikki xil bo'ladi:
a) ajratilgan sifatlovchili aniqlovchilar: *Borlig'im-la farzandingman, sodiq, mehribon, Ozarbayjon, Ozarbayjon!* (S. Vurg'un)

b) ajratilgan ravishdosh qurilmalari: *Ey Farg'ona! Tushkun kunlar bolasini tishida tishlab, yuvib, tarab, sevib, o'pib, quchib, opichlab, Ey baxtlarni balog'atga yetkazgan ona!* (H. O.)

Har ikki holatda ham ajratilgan bo'lak boshqa gap bo'laklaridan o'ziga xos (ko'tariluvchi yoki pasayuvchi) ohang bilan ajralib turadi.

Ajratish usullari



Bilib oling.

1. Gap bo'laklarining tartibi o'zgaradi, ajratilgan bo'lak o'z aniqlanmishidan keyin keladi: *Men yomondan, ayrilib, yaxshini topganing qani? (Qo'shiqdan) Bugun kun bo'ladi, ravshan va bedog'.* (H. O.)

2. Ajratilgan bo'lak boshqa bir bo'lakning ma'nosini izohlamay, o'zi ifodalagan bo'lakning ma'nosini ajratib, diqqatni o'zi ifodalagan mazmunga jalb qilib keladi: *So'ng qilichini mahkam ushlab, bukchayib, ohistagina yerga yiqildi.* (O.)

Bu xil gap qurilmalarining o'z egasi bo'lsa, er-gash gap sanaladi.

65- mashq. Qanday gap bo'laklari ajratilganini va ular qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlang.

1. Biri aks etadi gullarda, Biri olim — yoqimli, xush-fe'l. (H. P.) 2. Shuning uchun odamlarga, ayniqsa, yosh avlodga, e'tiborimizni o'n barobar orttirishimiz kerak. (M. I.) 3. — Hafizaxon, tog'angizga, Mavlon akaga, havasim kela-di. (A. Q.) 4. Jahonda bir mamlakatda, Yaponiyada, bolalar ham o'ng, ham so'l qo'llari bilan yozishga o'rgatiladi. (O.) 5. Ufqlarga qizil xol tashlab, Zar sochib, quyosh botadi. (U.) 6. Asrlarning qayg'usin qarg'ab, Baxt va shodlik kuyin chaloldim. (H. O.)

Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining qo'llanishi



Bilib oling.

1. Ajratilgan bo'lak ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: *Bayroq, havo rang, mag'rur hilpirab turar.* (H. G')

Ajratilgan aniqlovchilar aniqlanmishidan bevosita oldin kelgani uchun undan so'ng to'xtalish bo'lmaydi, vergul qo'yilmaydi. Fe'l bilan yonmayon kelgan ravishdosh va ravishdosh qurilmalardan keyin ham tinish belgisi qo'yilmaydi: *Kechagi, ya'ni urushdan oldingi hayotning naqadar maroqli ekanini... bilgandir. Salim otaning, mashhur dehqonning bu tashabbusi keng quloch yoydi. Kimdir mehmonlarni ancha yergacha kuzatib qo'ydi.* (A. Q.)

Ajratilgan bo'lak *ya'ni, masalan* kabi so'zlar bilan bog'lanishi mumkin. Bunda vergul ana shu so'zlardan oldin qo'yiladi.

2. Agar ajratilgan bo'lak kengayib, uyushib gap oxirida kelsa, undan oldin **tire** qo'yiladi:

Paxtakor o'zbekman — zabardast, mag'rur, Sharqning mayog'i deb atalur yurtim. (G'. G')

3. Ajratilgan bo'lak gap orasida kengayib yoki uyushib kelsa ham har ikki yoki bir tomoniga **tire** yoki vergul va tire qo'yiladi: *Ismi barlos — sodda, dilovar — ov va qush ilmining piridir.* (O.)

39- topshiriq. Quyidagi gaplarda qaysi gap bo'laklari ajratilganini aniqlang, ularda tinish belgilarining qo'yilish sababini ayting.

1. Ona kelar edi yo'lda yugurib,

Ko'ringandan qizini so'rab. (U.)

2. Ulardan biri — sersoqol, rangpar va oriq — o'z mantiqining kuchini ko'rsatishga tirishardi. (O.) 3. Sakrab tushdi shunda tuyadan, Karvonboshi— berahm, nodon... (E. R.)

4. Fursating bormi, qaynotangdan, Zunnunxo'jadan so'rab kelganmisan? (A. Q.) 5. Men, o'zbek, toshkentlik

ishchining o'g'li, seni yuragimdan qo'yolmayman har dam. (*H. Rasul.*) 6. Mavjud ikki vazir — Xo'ja Ato ham Abdulxoliq — devondagi ishlarni boshqarib ulgurmas edi. (*O.*) 7. Orqada tikka turgan yoshgina yigit, Mamadali, o'zini odamlarning orasiga oldi. (*A. Q.*)

40- topshiriq. Belgilangan gap bo'laklariga ajratilgan bo'lak qo'shing. Tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga ahamiyat bering.

1. Baquvvat **bir kishi** kirib keldi. 2. **Ertalab** darsga keldik. 3. **Siz** bu ishni bajara olasiz. 4. Serg'ayrat, istarasi issiq **yigitlar** kirib keldi. 5. **Mustaqil O'zbekistonni** ko'z qorachig'iday saqlaymiz. 6. Xorjiy mamlakatlar bilan aloqa qilish uchun **chet tillarni** yaxshi bilish kerak.

41- topshiriq. Ajratilgan bo'laklarni o'z aniqlanmishlari bilan birga ko'chiring.

1. **Ayol**, sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq, ko'chaga otildi. (*S. Karomatov*)

2. **Bulutchalar** — oppoq va yengil — Pag'a-pag'a suzar osmonda. (*S. Sharipova*)

3. Taraldi **kuy**: mayin va g'amgin, Butun borliq jismi quloqdir. (*E. V.*)

6- jadval


Ajratilgan aniqlovchilarda tinish belgilari

● ● ■ , ○ , ● ● ●

Osmon o'pgan tog'larning muammosini Biringiz, geolog, erta qilur hal. (*G'. G'*)

● ● ● ■ , ○ va ○
(-), (,)

So'zi e'tiborli, ahdi vafoli, ajoyib bir xalqsan — topilmas tengi. (*G'. G'*) Paxtakor o'zbekman — zabardast, mag'rur. (*G'. G'*)



Sakkiz-to'qqizda butun-butun asarlarni — ilmiy, falsafiy, she'riy — zavqqa berilib mutolaa etgan. (O.)


Shartli belgilar:

- — ajratilgan aniqlovchi.
- — ajratilmagan aniqlovchi yoki izohlovchi.
- — aniqlanmish so'z.
- — gapning boshqa bo'laklari.

7- jadval

Ajratilgan izohlovchilarda tinish belgilari


I. Vergulning ishlatilishi.



Zavodlarda yigitlar — ilg'or,
Po'lat quyib, hayot quradi. (O.)



O'rta Osiyoda Navro'z, yandi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi.



a) Qobil bobo, yalang'och, yalang oyoq, yaktakchan, og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi. (A. Q.)

b) Endi odamlar — otliq, piyoda, yosh, qari — uchray boshladi. (O.)

II. Defisning ishlatilishi.



Mohir sinovchi — uchuvchi mashinani ustalik bilan yerga qo'ndirdi.



Zaynab bilan Omon ikkovning —
Yangi kelin, yangi kuyovning
Baxti shunday bo'ldi barqaror.


III. Tirening ishlatilishi.



Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni — allakimimni. (*G' G'*)







Bu yerga kelgan u — xalq o'g'li, shoir,
Vatan tog'lari sari ochib quchog'in. (*O*)



a) Ikki ovsin — Tursunoy bilan Sharofat — birga o'tirib,
hasratlashar edi. (*O*)

b) Seni, hur va ozod, seni kuylayman. (*Zulfiya*)

Shartli belgilar:

-  — izohlanmish.
-  — ajratilgan izohlovchi.
-  — o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelgan izohlovchi.
-  — gapning boshqa bo'laklari.

Ajratilgan hollarda tinish belgilari

I. Ravishdosh bilan ifodalangan hollar.



Bola, otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi. (A. Q.)



Biroz o'tiraylik, dedi Rozaliya, tosh kursini ko'rsatib. (I. R.)



So'ng, bukchayib, ohistagina yerga yiqildi. (O.)



— Eson-omonmisiz, Qutbiniso, — dedi, tomdan turib. (Mirm.)



Ey, Farg'ona! Tushkun kunlar bolasini tishida tishlab, yuvib, tarab, sevib, o'pib, quchib, opichlab, ey baxtlarni balog'atga yetkazgan ona! (H. O.)

Shartli belgilar:

◆ — ravishdosh.

◇ — fe'l.

◇ — teng bog'lovchi.

◆ — ravishdosh oboroti.

● — gapning boshqa bo'laklari.

II. Ko'makchili birikmalar bilan ifodalangan hollar.

... , ●●● ■ singari , ...

Gulnor namli ko'zlari bilan Yo'lichiga tikilib, bir nimadan qo'rqqan singari, yana unga suqildi. (O.)

... , ●●● ■ qarshi , ...

Qo'ltiqlashib bir-biriga uzatgan qo'llar Navoiyni, uning xohishiga qarshi, yuqori chiqarib qo'ydi. (O.)

... , ●●● ■ bo'yicha , ...

U, odati bo'yicha, shovqinsiz, toza havodan tin olish uchun o'rnidan turdi. (O.)

... , ●●● ■ muvofiq , ...

Sultonmurod o'n to'rtta shogirdlarini, ilmdagi darajalariga muvofiq, kichik guruhlarga bo'lib, peshingacha dars berdi. (O.)

... , ●●● ■ holda , ...

Xolmurod oyoqlarini butoqlarga qo'yib, daraxtga mahkam yopishgan holda, bu yerda nima bo'layotganini tomosha qildi. (P. T.)

... , ●●● ■ binoan , ...

O'rtoqlar, O'zbekiston hukumatining topshirig'iga binoan, badiiy adabiyotimizning buyuk san'atkori Alisher Navoiyning abadiy shon-sharaf haykalini ochishga ruxsat berasiz! (R. G'ulomov)

... , ●●● [] qaramay , ...

Salima, hali ancha yosh bo'lishiga qaramay, ishni uddalab ketdi.

Shartli belgilar:

- [] — ko'makchi bilan birikkan so'z.
- — ajratilgan bo'lakka qarashli so'zlar.
- ... — gap bo'laklari.

9- jadval

Ajratilgan to'ldiruvchilarda tinish belgilari

... , ●●● [] tashqari , ...

□Unsiya“dagi Navoiy xonasida, uning har vaqtdagi yaqinlaridan tashqari, ash'orlar, olimlar bor edi. (O.)

... , ●●● [] qaraganda , ...

Bu maktub, Yoqubbekdan Hirotda olingan ilgarigi nomalarga qaraganda, yanada chuqurroq muhabbat, qadrdonlik tuyg'ulari bilan to'la edi. (O.)

●●● [] ko'ra , ...

Shuni yodda tutingki, tiz cho'kib yashagandan ko'ra, tik turib o'lish yaxshiroq. (O.)

●●● [] o'rniga , ...

Bir vaqtlar pilta chiroq tutagan zax yerto'lalar o'rniga, endi ishchilar uchun keng, yorug' uylar qurildi. (K.)

... , ●●● [] ustiga , ..

Barno, onasining betob yotgani ustiga, o'zini bu qadar yomon tutayotgan do'stidan juda xafa bo'ldi.

... , ●●● [] bilan birga , ●

Uljon, vazmin bo'lishi bilan birga, har narsani sinchiklab qaraydigan ziyrak ona edi. (M. A.)

Shartli belgilar:

- [] — ko'makchi bilan birikkan so'z.
- — ajratilgan bo'lakka qarashli so'zlar.
- ... — gap bo'laklari.

Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishi

Eslang va bilib oling.

Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan so'zlarga **undalmalar**, **kirish so'z** va **kirish gaplar**, **ha** va **yo'q so'zlari** va **undovlar** kiradi.

1. Undalmalarda tinish belgilarining ishlatilishi.

Undalmalar gap bo'laklaridan **vergul** yoki **undov** belgisi bilan ajratiladi. Undalmalar gap boshida kelganda — undan keyin, gap orasida kelganda, har ikki tomoniga, gap oxirida kelsa, undan oldin **vergul** qo'yiladi. His-hayajon bilan ifodalangan undalmalardan so'ng (gap boshi va oxirida) **undov belgisi** qo'yiladi. Misollar:

Onajonlarim, hamma o'zining eski devorini quchoqlab o'tira bersa, yurt qachon obod bo'ladi? (A. Q.) Behudaga, o'g'lim, egma bosh. (H. O.) Seni unutilmas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo! (V. Inber.) Oh... bolam-a! Koshki edi tuqqan bo'lsam! (Oydin) Ha, yigitlar, bo'sh kelmanglar! (S. Ahm.)

Undalma undov soʻzlar bilan birikib kelishi mumkin. Agar undov soʻz kuchli his-hayajon bilan aytilib, undan soʻng toʻxtalish boʻlsa, undov soʻzdan soʻng **koʻp nuqta** yoki **vergul** qoʻyiladi:

— *Qoʻyaqol!... Men uchun ... ovora boʻlib oʻtirma... (Ch.) — Oy! ...bek rahmsizlik bunaqa boʻlar ekan... Xuddi qiyomat boʻldi! (A. Qod.)*

10- jadval

Undalmalarda tinish belgilari



Bobo, toʻqayda arslon boʻladimi? (Y. Sh.)



Quyosh! Nuring toʻka ber moʻl-koʻl! (O.)






Qalay, Hamidboy, ishlar oʻngidanmi? (A. Qod.)



Oʻzingiz toʻgʻrisini soʻzlatib, tagʻin nega mendan xafa boʻlasiz, oyi!? (A. Qod.)

Shartli belgilar:

-  — undalma.
-  — bosh harf bilan boshlanuvchi soʻz.
-  — gapning boshqa boʻlamlari.

2. Kirish soʻz va kirish gaplarda tinish belgilari.

Kirish soʻz va soʻz birikmalari soʻzlovchining xabarga boʻlgan modal munosabatlarini ifodalaydi va pauza (toʻxtalish) ohangi bilan ajralib turadi. Agar shu toʻxtalish boʻlmasa, u gap boʻlagi boʻladi:

Soʻzsiz, bu yil imtihonlarni yuqori baholar bilan tamomlaymiz — kirish soʻz. *Oʻrtogʻi bilan soʻzsiz salomlashdi* — hol. Kirish soʻz shaklidagi soʻz gap boʻlagi boʻlganda, u tinish belgilari bilan ajratilmaydi.

Kirish soʻzlar gap boshida kelsa, undan soʻng, gap orasida kelsa, har ikki tomoniga, gap oxirida boʻlsa undan oldin vergul qoʻyiladi:

Shubhasiz, toptalar, yengilar gʻanim. (U.) Maxsim oʻsha yerda, aftidan, tanish chiqib qolgan bir odam bilan gaplasha ketdi. (A. Q.) Siz bu gaplardan bexabarsiz, albatta.

Kirish gaplar — gapning ayrim boʻlaklariga yoki umumiy mazmuniga izoh beruvchi qurilmalardir. Ular pasayuvchi yoki koʻtariluvchi maxsus ohang bilan ajralib turadi. Tarkibi uncha katta boʻlmagan kirish gaplar **vergul** bilan ajratiladi. Tarkibi ancha katta boʻlgan va gapga umumiy izoh beruvchi gaplar **qavsga** olinadi yoki **tire** bilan ajratiladi:

Yolgʻiz borishga, toʻgʻrisini aytsam, qoʻrqaman. (O.) Koʻnglingizga kelmasin-u, har xil odam boʻladi. (A. Q.) Qurbon ota uning suhbatini xushlamasa ham, odamning yuzi issiq — hamsafar boʻlish toʻgʻrisidagi sazasinini oʻldirmadi. (A. Q.) Bilasanmi, Yoʻlchi, bir shoir — bilmadim Soʻfi Olloyormi, shunday deganlar... (O.) Oʻsha kuni edimi yoki boshqa bir kun (anigʻi esimda qolmagan) Habiba mendan soʻradi. (S. A.)

42- topshiriq. Berilgan jummalardan undalma, kirish soʻz, ibora, kirish gaplarni aniqlang. Ularda qoʻllangan tinish belgilarini izohlab bering:

1. Bosh turmushim toʻri, koʻnglimning joʻri —
Bularning hammasi, sen, Vatanim — onam. (H. P.)

2. Bir vaqt, shunday qaragam, xizmatkorxonada derazasidan Yo'lichiboy akaga ko'zim tushdi. (O.) 3. Oxiri, bu cho'qqining ustiga chiqib olibdi. (O.) 4. O'rmonjon aytmoqchi, „ashaddiy binokor“ usta To'lagan binokorlikka berilib ketdi. (A. Q.) 5. Bu yoqqa qara, tentak! Kambag'al bo'lsang ham, o'lgudek odmisan, balandda yurasan, bilaman. (O.) 6. O'rmonjon akam urishmaydilar, mana ko'rasiz, urishmaydilar. (A. Q.) 7. Aziz vatandoshim, yodingda bo'lsin, sen tinchlik ishiga safarbar zotsan. (G'. G'.) 8. To'g'ri, tashkilotchilikning ahamiyati katta. (A. Q.)

43- topshiriq. Berilgan gaplardagi undalma, kirish so'z, kirish gaplarni aniqlab, zarur o'rinlarda tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Yaxshilik menga qolsa tushga kirmagan bir yaxshilik. (O.)
2. Shukur eshigimizga el qatori nomer qoqilgan. (A. Q.)
3. Xullasi kalom sabrni, qanoatni unutadi. (O.) 4. Siz bu gaplardan bexabarsiz-da albatta. (A. Q.) 5. Toshkentning isyon chiqargan bir zamonida Otabekdek bir yigitning Marg'ilonda qanday gunoh bilan bo'lsa-bo'lsin ushlanishi har jihatdan mudhish edi. (A. Qod.) 6. Ignaning uchiday yolg'oni yo'q quling bo'lay boyvachcha. (O.)

66- mashq. Gaplarning egasini undalmaga, aksincha, undalmani egaga aylantiring, shunga ko'ra kesimni ham o'zgartiring. Ma'no hamda uslubdagi farqni ayting.

N a m u n a: Shunchalar go'zaldir guliston o'lkam. — Shunchalar go'zalsan, guliston o'lkam.

1. Maktab o'quvchilari bilimlarni qunt bilan o'rganmoqdalar. 2. O'zbekiston yoshlari o'z Vatanlariga sodiq bo'lib qoladilar. 3. Odamlar, urushga sira yo'l qo'ymang. 4. Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q. (G'. G'.) 5. Do'stlik hayotda eng ishonchli tayanchdir.

67- mashq. To'xtamlarga e'tibor berib o'qing, so'ng tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. Kirish so'zlarning tagiga chizib, ma'nosini ayting.

1. Tojiboy bir tomondan g'ashi kelib g'ijinsa ikkinchi tomondan sal yon bosishga majbur bo'ldi. (*P. T.*) 2. Usmonjonning vrachlarga e'tiqodi zo'r. Buning sababi bor albatta. 3. — Yig'lamang onajon Sobirjonning ko'zlari albatta ochiladi. O'g'lingizni doktorga o'zim ko'rsataman! — dedi Usmonjon. (*Gaz.*) 4. Nihoyat mana ular Toshkentda. Xayriyat, Sobirjon shifo topdi. 6. Uningcha, ish juda nozik, g'oyatda qo'rqinchli edi. (*A. Qod.*)

68- mashq. *To'g'ri, yaxshi, demak, qiziq* so'zlari ishtirokida 8 ta gap tuzing, oldingi 4 ta gapda bu so'zlar biror so'roqqa javob bo'lib, biror vazifa bajarsin, keyingi 4 ta gapda kirish so'z vazifasida kelsin.

N a m u n a: *Yaxshi kitob bir boqqa o'xshaydi. Yaxshi, o'tni shu yerdan ochamiz. (O.)*

11- j a d v a l

Kirish so'z va kirish gaplarda tinish belgilari



Darhaqiqat, xalq uchun ulug' ish qilyapmiz, o'g'lim. (*Sh. R.*)



Tamom bo'ldim, nazarimda, ichim yonib, burnimdan tutun chiqayotganga o'xshaydi. (*X. T.*)



Vatan mamnun bo'lgan o'g'ildan ona ham mamnun, albatta! (*M. Boboyev*)



Yaxshilik, menga qolsa, tushga kirmagan bir yaxshilik. (*O.*)



Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maq-tanchoqlikni yomon ko'rar edi), ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi. (O.)



Qabulxona — bu yer ilgari katta boyning mehmon-xonasi bo'lsa kerak — qorong'i edi.

Shartli belgilar:

- ◆ — kirish so'z.
- ◆◆ — tarkibi keng bo'lmagan kirish gap.
- ◆◆◆ — tarkibi keng bo'lgan kirish gap.
- — bosh harf bilan boshlanuvchi so'z.
- — gap bo'laklari.

Undov so'zlar, va, ha, yo'q so'zlaridan so'ng tinish belgilarining ishlatilishi. Undov so'zlar, *va*, *ha*, *yo'q* so'zlari aytilayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini bildiradi, ulardan so'ng vergul, agar chuqur his-hayajon ifodalansa, undov belgisi qo'yiladi:

— *Voy, qir muncha chiroyli bo'p ketdi?* (S. Abd.)

— *Voy-vuy! Asl jannat deng, taqdir.* (S. An.)

— *Oh-oh-oh! Otangizga rahmat!* (A. Q.)

Ha, yana bir kichik stansiya qolibdi. (R. F.)

Yo'q, urushning nomi o'chsin. (Z.)

Undov so'zlar so'zlovchining his-hayajonini (sevinchi, qayg'usi, qo'rqishi, havasi, achinishi, taajjubi, nafrati, pichingi, afsusi va b.), *ha* va *yo'q* so'zlari so'zlovchining roziligi yoki qarshiligini bildiradi.

His-hayajon, fikr tugallanmagan o'rinlarda undov so'z va *ha, yo'q* so'zlaridan so'ng ko'p nuqta qo'yilishi ham mumkin: *O... serjant, bu urush ko'p odamlarning yostig'ini quritib yubordi. (S. Ahm.) E...e... g'alat, sabr qilsinlar! (U.) Yo'q... bu gumoningiz to'g'ri bo'lmasa kerak. (A. Q.)*

Undov so'zlar va *ha, yo'q* so'zlari mustaqil gap bo'lib kelishi ham mumkin. Bunda ulardan keyin tinish belgilari sodda gaplardagi kabi qo'llanadi. Masalan: *O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... (A. Q.)*

— *Bugun to'garakka qatnashasanmi? — Yo'q.*

— *Voy...e... — dedim, og'zim ochildi. (Oydin)*

69- **mashq.** O'qing. Tasdiq va inkor bildiruvchi bo'laklarni toping.

1. Ha, ko'saklarni to'q qilishga intila beringlar. (*O.*)
2. Yo'q, bu ishni keyinga tashlab bo'lmaydi. (*I. R.*) 3. Ha, granit toshlar ham eplay olmagan ishni inson eplaydi. (*M. Karim*) 4. Bizning qishloq-ku. —Yo'q, bu bizning qishloq emas. (*R. F.*)

70- **mashq.** Tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Yo'q bo'lmaydi mashinada rejadagi paxtani terib olsak ham katta gap (*H. S.*) 2. Xo'sh qani sizlar nima deysizlar (*Sh. R.*) 3. Yo'q yo'q men boshqa narsa demoqchi edim (*A. Qod.*) 4. Kun sanayapsizmi Jo'ra dedi Abdurahmon

Siz-chi siz sanayapsizmi

Yo'q Men hech qayoqqa shoshmayman

Xo'sh mulla Mamasidiq sog'liq qalay tahsil nechuk
Xo'sh zerikib qolmadingizmi bizda (*S. A.*)

71- **mashq.** *Ha, yo'q* so'zlari ishtirokida gap tuzing.

44- topshiriq. Undov so'zlarning ifodalagan ma'nosini aniqlang, kerakli o'rinlarda tinish belgilarini qo'ying.

1. Obbo Komiljon-e, obbo Komiljon-e, so'zga juda ustasiz-da. (*U.*) 2. E so'rama, qizim (*U.*) 3. Voydod zo'ravon dastidan dod!.. (*M. Ism.*) 4. Tog' gullari hay-hay

go'zal, Ko'zing to'yimas ko'rgan bilan. (*Q. Muh.*) 5. Hu xolang bo'yingdan aylansin. (*H. H.*) 6. Iye Qambar akam ko'zdan qolibdilmarmi? (*U.*) 7. — Xah uyqungiz qursin, — dedi cholni turtib. (*Oydin*) 8. — A — Bekniyoz ko'chaga otildi. (*S. Akb.*)

3- §. Qo'shma gaplarda tinish belgilari. Bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilari

Eslang va bilib oling.

Bog'langan qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. **Biriktiruv bog'lovchilari** (*va, ham, hamda*) yordamida bog'langan qo'shma gap qismlari orasiga vergul qo'yilmaydi.

Tashqarida chaqmoq yaltirar va bahor yomg'iri salobatli shovillardir. (P. Q.) Ishim to'g'rilanib ketdi ham yerim o'zimga qoldi. (O.)

Zidlovchi bog'lovchilar (*ammo, lekin, biroq*) yordamida bog'langan qo'shma gap qismlari orasiga shu bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi:

Yurtimizning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana ham chiroyliroq, baxtliroq bo'ladi. (O.) Bo'sh yerlar ko'p, biroq bu yerlarning hammasi yoz oylari quyosh tig'ida qovjirab qoladi. (A. Q.) Men uyalib yerga qarayman, ammo Turg'un pisand qilmay shaftolini maqtaydi. (O.)

Zidlovchi bog'lovchilardan oldin nuqta yoki nuqtali vergul qo'yilish hollari ham bor. Mazmunan ancha mustaqil bo'lgan qo'shma gap qismlari orasida zidlovchi bog'lovchilardan oldin nuqta qo'yiladi. Masalan:

Oyqiz turgan yerdan sal narida ikki yosh bola katta toshni mashina kuzoviga tashlash uchun urinmoqda edi. Ammo katta tosh bolalarni pisand qilmaganday, o'rnidan jilmasdi. (Sh. R.) Ular bir-birlariga mamnun qarab qo'yishdi. Biroq O'ktam natijani bundan ham ortiq chamalaganini aytdi. (O.) Sotilgudek narsadan unda sopi fil tishi va kumush bilan ishlangan bir xanjargina bor. Lekin To'g'onbek ochdan o'lishga rozi bo'lsa ham, bu buyumdan ajralishni istamasdi. (O.)

Ayiruvchi (*yo, yoki, goh, dam*) va **inkor bog'lovchisi** (*na, na*) orqali bog'langan qo'shma gaplarda vergul ishlatiladi:

Yoki mening ko'nglim hamma vaqt yosh, yoki chiroy senga umrbod yo'ldosh. (M. Boboyev) Yo men boray, yo sen kelgin. (Folklordan) Bosh yalang Tansiq goh shap-shap suv kechib yuradi, goh uning oyoqlari yelimday loyga botadi. (O.) Na ko'cha bor, na mustahkam uy-joy, na dala shiyponi bor. (O.)

Takrorlanib kelgan ayiruvchi yoki inkor bog'lovchilari yordami bilan birikkan gaplarda vergul takrorlangan ikkinchi bog'lovchidan oldin qo'yiladi. Ayiruvchi bog'lovchi takrorlanmasligi ham mumkin, bu holda qo'shma gapni tashkil etgan gaplar orasiga vergul qo'yilmaydi: *Ilgari ham kun shunday qizirmidi yo bu yil yoz issiqroqmi? Siz keting bu mahalladan yo biz ko'chib ketamiz. (A. Q.)*

45- topshiriq. Quyidagi qo'shma gaplar qismlari orasidagi tinish belgilarining nima sababdan qo'llanganini tushuntirib bering.

1. Buloq shu yerda — ammo haligacha bir tomchi suvdan darak yo'q. (*Sh. R.*) 2. Nuri goh sevinib shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosardi. (*O.*) 3. Qiz yalt etib Jamolga qaradi-yu, yuragi hovliqib ketdi. (*O.*) 4. Hayronman, yo hushingiz joyida emas, yo o'zingizni ovsar qilib ko'rsatyapsiz. (*M. Ism.*) 5. Onaxon yangi shaharga kam kelgan, lekin bu ko'chalardagi katta-katta binolar esida qolgan ekan. (*As. M.*) 6. Yomg'ir tingan, biroq havo bezrayib turadi. (*P. Q.*)

46- topshiriq. Quyidagi sodda gaplardan teng bog'lovchilar ishtirokida bog'langan qo'shma gap tuzing, tinish belgilarini qo'ying.

1. Hakim, bir nozik ish bor. 2. Odamga andisha kerak. 3. O'rmonjon qariyalar bilan o'tkazgan bir suhbatida allanimadan gap chiqdi. 4. Shu payt yonidagilardan Sidiqjonning kim ekanligini so'ragan. 5. Ba'zan ko'nglim

unga qushday uchadi. 6. Yo u uyda yo'q. 7. Avtomobil qo'z-g'alganda bir g'ovur ko'tarildi. 8. Na kunduzi oromim bor. 9. Bu kunlardagi ijodim o'quvchilarga ma'lum. 10. Sidiqjonning yuragi biroz g'ash bo'ldi.

71- mashq. Qo'shma gapni tashkil etgan har bir sodda gapning turini aniqlang, nuqtalar o'rniga zarur harflarni va tushirilgan tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Tantiboy.achchaning na.asi ichiga tushib ketdi biroq u uyalgan kabi o'zini bilmaslikka soldi. (O.) 2. Sersekening bu galgi da'.osi qur.q shub.a edi xolos.na uning shohidi bor-u na dalili bor. (M. A.) 3. Shu onda chir.q sharaq-laganicha yerga tushib chilparchin bo'ldi va birdaniga ikkita o'q chiqdi. (A. Q.) 4. Ba'zan ravon tug'.lsa misra ba'zan bir so'z soatlab me.nat. (J. J.) 5. Shunday qish.oqni ko'rsam d.gan orzungiz yaxshi lekin shu qishloqni bunyo.ga keltirishda qatnashsangiz undan ham yaxshiro. bo'lar edi. (A. Q.) 6. Daryo tomondan gurillab esib turgan shab.da yo'l bo'yidagi o't-o'lanlarni tebratar hamda sarg'ayib boray.tgan arpalar undan mavj urar edi. (A. Q.)

72- mashq. Zarur tinish belgilarini qo'yib, avval uyushiq bo'lakli sodda gaplarni, keyin bog'langan qo'shma gaplarni ko'chiring. O'zingiz qo'ygan tinish belgilarini izohlang.

1. Albatta yer zarurlarning zaruri lekin qashshoqlikdan chiqish uchun yerning o'zi kifoya qilmaydi. (A. Q.) 2. Madkarim bo'qoq, haqiqatan, bolaligida otasi bilan hajga borgan lekin otasi kambag'al bo'lgani uchun ikkovini ham hech kim hoji demas ekan. (A. Q.) 3. Siz aqlli odamsiz biroq shunga kelganda nodonlik qilibsiz. (S. An.) 4. Mamasaid yo'tala-yo'tala kelib eshikni ochdi va mehmonlarni ko'rib ko'zlari olayib ketdi. (P. T.) 5. Tushki ovqat vaqtida Ro'zimat yana ertalabkiday unga-bunga tegishib kushandalarining tilini qichitib ba'zan mot qilardi ba'zan ular Ro'zimatni mot qilishib baravariga kulishar edi. (A. Q.) 6. Haftalar o'tdi ham tugaldi savdo. (O.)

73- mashq. Zarur tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. Qo'shma gapni tashkil etgan har bir sodda gapni ajratib, bosh bo'laklarining tagiga chizing.

1. Uning mo'ljali besh-olti kilometr yurib qaytish edi biroq yangi mashina to'g'ri va ravon asfalt yo'l havasini keltirdi-yu rayon markaziga tushib chiqishga qaror qildi. (A. Q.) 2. Nay ham durustgina chalindi lekin Rafiq darrov sindirib tashladi. (O.) 3. Bu kunlardagi ijodim o'quvchilar ommasiga ma'lumdir va shu yillardagi she'rlarimni to'plab, „Men Sharqdan kelayotirman“ nomli kitob qildim. (G'. G') 4. Yo podsho biror yerga chiqadi yoki elchi kelishi kutiladi. (O.) 5. Dam jahlim chiqadi dam kulгим qistaydi. (O.) 6. Goh uzoqdan oq zar ko'ylakda Ko'rinadi tog'lar, tepalar Goh cho'zilib quyuuq o'rmonlar, Ko'z o'ngidan asta o'talar. (U.)

74- mashq. Nuqtalar o'rniga teng bog'lovchilardan mosini qo'yib ko'chiring, zarur tinish belgilarini qo'yishni unutmang.

1. Odamga andisha kerak ... undan ham ilgariroq insof kerak. (A. Q.) 2. Aholi ko'pincha machit oldidagi katta ko'chadagi quduqdan suv ichar ... ariqda suv bo'lmagan vaqtlarda hayvonlarini quduqdan sug'orardi. (S. A.) 3. Ilgari ham kun shunday qizirmidi ... bu yil yoz issiqroqmi? (O.) 4. ... ko'nghim unga qushday uchadi ... yana cho'chin-qirayman. (O.) 5. ... osmonni tutib ashula yangraydi ... allaqayerdan garmon tovushi kelib qoladi. (O.)

12- jadval

Bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilari



Bu kunlardagi ijodim o'quvchilar ommasiga ma'lumdir va shu yillardagi she'rlarimni to'plab „Men Sharqdan kelayotirman“ nomli kitob qildim. (G'. G')



Eng yosh qizlarimizga qadar qurbon bo'lishga, osilish va otilishga rozi bo'ldilar-u, ammo dushman yo'lini to'sdilar. (O.)



Yo podsho biror yerga chiqadi, yoki elchi kelishi kutiladi. (O.)








Odamga andisha kerak, lekin undan ham ilgariroq insof kerak. (A. Q.)



Goh uzoqdan oq zar ko'ylakda ko'rinadi tog'lar, tepalar; Goh cho'zilib quyuuq o'rmonlar ko'z o'ngidan asta o'talar. (O.)

Otam „Mirzo“ va „G'ulom“ taxallusi bilan talay she'rlar yozgan. Lekin bular bir yerda to'planib chiqqan emas. (G'. G')

Shartli belgilar:

-  — bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gap.
-  — biriktiruvchi bog'lovchi.
-  — bog'lovchi vazifasidagi yuklama.
-  — zidlovchi bog'lovchi.
-  — ayiruvchi bog'lovchi.

Ergash gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

Eslang va bilib oling.

Ergash gaplarning bosh gapga bog'lanish yo'llari va tinish belgilari bilan ajratilishini uch qismga bo'lish mumkin:

1. Ergash gaplarning **tobe bog'lovchilar** orqali bosh gapga bog'lanishi va vergul bilan ajratilishi.

1. Agar ergash gaplar bosh gapga *shuning uchun, chunki, go'yo* bog'lovchilari orqali bog'lanisa, vergul shu bog'lovchilardan oldin qo'yiladi. Masalan:

Har kun ortar ko'zlarimda nur,

Shuning uchun yo'q aslo g'amim. (H. O.)

Olimjon adabiy asarni ham, badiiy so'zni ham yaxshi ko'rardi, chunki u bilan kishi qalbida g'ayrat o'tini yoqish mumkin. (Sh. R.) Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichida yashiringanday. (O.)

2. Ergash gap bosh gapga **-ki** bog'lovchisi orqali bog'lansa, vergul shu bog'lovchidan so'ng qo'yiladi. Masalan:

Bu xonaga shunday jimlik cho'kkanki, go'yo unda hayot butunlay yo'q. (As. M.) Ko'radiki, hosil juda mo'l. (O.)

3. Ergash gap bosh gapga bog'lovchi sifatida qo'llangan *deb* orqali bog'lansa, vergul shu so'zdan keyin qo'yiladi. Masalan:

Orqada kelayotgan ayollar yetib kelsin deb, Tansiq mashinani ancha berida to'xtatdi. (O.)

II. Agar ergash gapning kesimi ravishdosh yoki shart fe'li orqali ifodalansa, vergul kesim vazifasidagi ana shu fe'l shakllaridan so'ng qo'yiladi. Masalan:

Yormat supa atrofiga suvni qalin sepgach, supaga o'tishdi. (O.) Gulnor bu yerga kelsa, Nuri darhol biron yumush qildirar edi. (O.) Daryo qancha chuqur bo'lsa, u shuncha sekin oqadi.

III. Ergash gapning kesimi **sifatdosh** bilan ifodalanishi mumkin, bunda sifatdosh *uchun, sari, sayin, chog', payt* kabi so'zlar bilan birikadi. Bu holda vergul ergash gapning sifatdosh bilan ifodalangan kesimiga qo'shilib kelayotgan ana shu vositalardan so'ng qo'yiladi. Misollar: *Hammamiz dalaga yo'l olgan chog'da, katta to'y tusini oladi qishloq. (H. G')*

Ba'zan sifatdosh o'rin-payt yoki chiqish kelishigi qo'shimchalarini ham olib keladi. Bunda vergul kelishik qo'shimchasini olgan sifatdoshdan keyin qo'yiladi. Masalan: *Nuri gapga e'tibor qilmaganidan, Yormat endi qiziga qarab so'zlay boshladi. (O.)*

75- mashq. Ko'chiring. Ergash va bosh gaplarni aniqlab, ega va kesimning tagiga chizing. Ergash gap kesimlarining qanday so'z turkumi bilan ifodalanganini aytib bering.

1. Kanal qazilmasdan burun, bu yerlar dasht-sahro edi. (O.) 2. Ivirsib, bazmga kechikib qolsam, G'oliblar afv etsin, biroz uzrim bor. (G'. G') 3. G'o'za chopig'iga ketgan kishilar qaytib kelgandan keyin, hamma uchastkalarda ish juda qizib ketdi. (A. Q.) 4. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. (H. O.) 5. Bizning tilimiz Navoiy sozida ulug' qudrat va muazzam ohang bilan yangradiki hammamiz hayratda qoldik. (O.) 6. Qaysi joyda suv mo'l bo'lsa shu joy tezroq obod bo'ladi.

76- mashq. O'qing. Ergash gapni topib, bosh gapga qanday yo'l bilan bog'lanishini aytib bering.

1. Asqar ota uning ot chopishini ko'rib shunchalik zavqlanib ketdiki, otiga ustma-ust qamchi bosganini o'zi ham bilmay qoldi. (A. Q.) 2. Mashina shu joydan chappa qarab ketadigan bo'lgani uchun, Manzura hamrohlariga minnatdorchilik bildirib tushib qoldi. (As. M.) 3. Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechani o'zi kuylaydi. (O.) 4. Maktab deb qurdik bino, Hamma ilm olsin deb. (Qo'shiq) 5. Yashil bo'yoq bilan bo'yalgan, ust tomoni o'ymakor panjarali, katta va og'ir darvozaga yetganda, yigitning yuragi biroz o'ynab ketdi. (O.)

Ergash gapli qo'shma gaplarda tinish belgilari




Olim bo'lsang — olam seniki. (*Maqol*)



Qayerda razolat hukmron bo'lsa, tamagir qo'shinning kelur omadi. (*G'. G'*)



Biz shunday kutubxona barpo qilaylikki, butun el oldida manzur va mo'tabar bo'lsin. (*O.*)



a) Mahkam bog'lang mehnatga bel,

Chunki mehnat bilan yashnaydi el. (*Islom shoir*)

b) Kitob — bilim manbai. Shuning uchun biz kitobni sevamiz.



Yo'lchi, qancha aqchasi bo'lsa ham, berishga tayyor edi. (*O.*)

Shartli belgilar:



— bosh gap.



— o'z ichida ergash gapi bo'lgan bosh gap.



— bog'lovchi vazifasidagi so'z.



— bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi qo'shimcha.



— ergash gap.

**Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarda
tinish belgilari**



Birinchi marta o'z mehnatimning qatnashishi bilan tayyor bo'lganidanmi yoki haddan ortiq ochiqqanimdanmi, har holda u kungi qo'ziqorin qovurdog'i go'sht qovurdog'idan ham mazaliroq tuyuldi. (S. A.)



Agar siniq shisha bo'lsa ham, birovning mulki bo'lsa, xiyonat qilma. (Maqol)



Martabang ko'k qadar ulug' bo'lsa-yu, lekin yor-u-do'stlaring bo'lmasa, bundan nima foyda? (Navoiydan)








Odamlar Saidaga luqmalar tashlab, so'zga chiqib, majlisda shunday ruh hukm surdiki, Qalandarov majlisni tezroq tugatishni xohlab qoldi. (A. Q.)



Aql berdim, yov bosganda,
Yengishga yo'l bo'lsin deb. (O.)

Shartli belgilar:

- | | |
|--|---|
|  — bosh gap. |  — ergashtiruvchi bog'lovchi yoki shu vazifadagi qo'shimcha. |
|  — ergash gap. |  — zidlovchi bog'lovchi. |
|  — biriktiruvchi bog'lovchi. | |

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi

Eslang va bilib oling.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar turli tinish belgilarining (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qo'llanishi bilan ham ajralib turadi.

1. Bir paytda yoki ketma-ket ro'y beruvchi voqea-hodisalarni ifodalovchi, tuzilish jihatdan bir xil bo'lib, sanash ohangi bilan talaffuz qilinuvchi gaplar orasiga **vergul** qo'yiladi: *Yangi shahar ko'chalari quruq va toza, ilk bahor shamollari yoqimli esadi. (O.) Bahor keladi, daraxtlar barg yozadi, gullar ochiladi, gul atrofida bulbullar sayraydi. (I. R.) Bir vaqt dasturxon yozildi, turli taomlar kirdi. (Ertakdan.)*

2. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan gaplar orasida **nuqtali vergul** qo'yilishi ham mumkin. *Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hech kimni ko'rmaydi. (A. Q.)*

Qo'shma gap qismlarining o'z ichida verguli bo'lsa yoki mazmunan ancha mustaqil bo'lsa, ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda **ikki nuqtaning** qo'yilishi: *Urilmoq ham foyda: pishiq bo'lasiz, tajriba hosil qilasiz. (O.) Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma! (O.)*

1- qo'shma gapda ikkinchi qism birinchi qismdan anglashilgan mazmunning ro'y berish *sababini* ko'rsatadi.

2- qo'shma gapda ikkinchi qism birinchi qism tarkibidagi ot (*so'z*)ni aniqlaydi.

4. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda **tirening** ishlatilishi: *Jismimiz yo'qolur — o'chmas nomimiz. (H. O.) Suv keldi — nur keldi. Said Jalolxon tovush chiqarmay uning yoniga o'tirdi — u ko'rmedi. (A. Q.) Rais kirib keldi — majlis ochildi.*

1- gapni tashkil etgan sodda gaplar orasida *ziddlik*,
2- gapdagi sodda gaplar orasida *o'xshashlik*, 3- va 4-
gaplarda *natija* va *payt* mazmuni anglashiladi.

47- topshiriq. Quyidagi ergashgan qo'shma gaplardagi ergash gaplarni topib, ularning turini aniqlang. ergash va bosh gap orasiga qo'yilgan tinish belgilarini izohlab bering.

1. Nihoyat, Hirotidagi ba'zi mashhur zotlarga shunday taqlid qildiki, o'tirganlar o'rinlaridan qo'zg'alolmay qoldilar. (*O.*) 2. Yo'lchining ongida o'tmish manzaralari jonlanar ekan, qayg'u ko'kragini yana chuqurroq ezadi. (*O.*) 3. Halol mehnat qilish eng yaxshi odat, chunki mehnat berdi bizga saodat. (*G'. G'.*) 4. Kimki mehnatning zo'rini qidiripti — odamning sarasi ana shu. (*A. Q.*) 5. Vali yana ertasiga saharlab uyg'onganda, G'ulomjon hujrasida yo'q edi. (*M. Ism.*) 6. Yormat shahardan piyoda qaytib horigani uchun, hamma otlarga Yo'lchi qaradi. (*O.*)

48- topshiriq. Quyidagi bosh gaplarga ularning mazmuniga mos ergash gap qo'shing. Bosh va ergash gap orasiga tinish belgilarini qo'yib yozing.

N a m u n a . Achchig'ing chiqadi — Nima dedimki, achchig'ing chiqadi.

1. Sidiqjon chiqib ketdi. 2. Kuz hayda. 3. Shundoq bo'lsa ham sizga aytgim keladi. 4. Bir og'iz gapirmadi. 5. Gulxan atrofida to'plandilar.

49- topshiriq. Quyidagi ergash gaplarning mazmuniga mos bosh gap qo'shing. Ergash gaplarni bosh gapga bog'lovchi vositalarga va tinish belgilariga diqqat qiling.

N a m u n a . Shunday davr edi — Shunday davr ediki, ovqatim ham, uyqum ham kitob... (S. A.)

1. Quyosh charaqlab chiqdi. 2. Bolalar kutilmaganda katta yo'lga chiqib qoldilar. 3. Hamma narsani oldindan puxta o'ylab olish kerak. 4. Yozgi ta'tilga chiqdilar. 5. Hosil mo'l bo'ladi.

50- topshiriq. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar orasiga qo'yilgan tinish belgilarini izohlab bering va mazmuniga ko'ra bog'lovchisiz qo'shma gapning qaysi turiga kirishini aniqlang.

1. Sen o'g'limsan, xotining kelinim. (*H. H.*) 2. Siz otam o'rniga otalik qildingiz, sizdan hech yomonlik ko'rma-dim. (*M. Ibr.*) 3. Bora-bora ularning ham ko'zi ochiladi, past-balandni ajratib olishadi. (*M. Ibr.*) 4. Qarg'a aslo kaklikka teng kelolmas, Arslongina kuchli fildan yengilmas. (*„To'tinoma“*.) 5. To'g'ri bo'ling — bexavotir bo'lasiz, Maqtanchoq bo'lmang — hijolat tortmaysiz. 6. Ishning ko'zini bil — dala ham obod, choyxona ham... (*O.*) 7. Yer tosh qotgan, qor moylanmagan aravaday g'ijiraydi. (*O.*) 8. Saida bunga juda suyundi: demak, hisobot yuzasidan bo'ladigan muzokara qizg'in tus oladi. (*A. Q.*)

51- topshiriq. Quyidagi sodda gaplardan bog'lovchisiz qo'shma gap tuzing. Tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga diqqat qiling.

N a m u n a . Yoz oxirida Samarqandda kechalari salqin, kunduzlari issiq bo'ladi. Yoz oxirida Samarqandda kechalari salqin, kunduzlari issiq bo'ladi: kechalari shabada tog'dan salqin va rohatbaxsh havo keltiradi.

1. Baxting ochiladi. 2. Nur keldi. 3. Hamma o'rnidan gurullab turdi. 4. Yaxshi otga bir qamchi. 5. Aql — do'st. 6. Davlat tinch. 7. Yigitning ko'ngli buzilmasin, boshi bukilmasin. 8. Shuni yaxshi biling.

77- mashq. Ko'chiring. Tinish belgilarining qo'llanish sababini izohlang.

1. Chol undan balandroq keldi: men brigadirlikdan tushmayman, deb chiqib ketdi. (*A. Q.*) 2. Sizning qila-yotgan ishingiz yomg'irga o'xshaydi: har bir tomchisi don undiradi. 3. Sultonmurod o'zini chetga olishga tirishdi, xalq to'liqini uni surib ketdi. (*O.*) 4. Ariqlar chiqardik — yovlar quritdi. 5. U yo'g'on gavdali, yakkam-dukkan, qizg'ish mo'ylovli; keng qoramtir yuzining yonoqlari bo'rtgan; kunlar isib ketgan bo'lsa ham, uning egnida qo'pol eski po'stini, boshida qunduzi qalin katta bo'rk. (*O.*)

78- mashq. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni ergash gapli qo'shma gaplarga aylantiring.

1. Chol aqlli odam: unga o'rgatish ham mumkin, undan o'rganish ham mumkin. (O.) 2. Men tirikman — o'lja bo'lmaydi otim, Men tirikman — yovga qolmaydi yurtim. (Islom shoir) 3. Qirq to'rt so'mdan yigirma yetti so'mni olib tashladik — o'n yetti so'm qoldi. (Ch.) 4. Kitob ajoyib bog'ga o'xshaydi; u kishiga doimo zavq bag'ishlaydi.

15- jadval

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilari

Payt yoki
shart



—
(,)



Davlat tinch — sen tinch. (Maqol.)

Ko'zim tirik ekan, men bilan muomala qilasiz. (O.)

O'xshatish



—



Suv keldi — nur keldi. (Maqol.)

Sabab



∴
(,)



Yoz oxirida kechalari salqin, kunduzlari issiq bo'ladi: tun paytida shabada tog'dan salqin va rohatbaxsh havo keltiradi.

Paxtani qilgil egat, bo'lar ekan kam mehnat. (Qo'shiqdan.)

To'ldirish



∴
(,)



Faxr bilan silqib qo'l,
Asrlar: tilaymiz oq yo'l. (Q. Hikmat)

Angladim men, sendagi fikr,
Senda bo'lgan qarashlar yangi. (U.)

Shu fe'llari yaxshi: hech kimni bironing oldida behurmat qilmaydilar. (A. Q.)

Lekin qiyinchilik tortamiz, busiz bo'lmaydi. (A. Q.)

Shartli belgi:

■ — bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gap.

4- §. Ko'chirma gaplarda tinish belgilari

Eslang va bilib oling.

Ko'chirma gap o'zgalarning gapi bo'lib, muallif gapi esa ko'chirma gapni keltiruvchi shaxs gapidir. Ko'chirma gaplarda ikki nuqta, tire, vergul, nuqta, qo'shtirnoqning qo'llanishi ko'chirma va muallif gaplarining o'rinishiga bog'liq bo'ladi. Odatda, ko'chirma gap muallif gapidan so'ng, oldin yoki uning tarkibida bo'lishi, muallif gapi ko'chirma gapning har ikki tomonida kelishi mumkin:

1. *Oyqiz o'zini og'irlikka solib, mayin ovoz bilan qat'iy buyurdi: — O'tiring! O'zingizni bosing! (Sh. R.)*
2. *— Azimjon, kun tig'iga qolmay yo'lga chiqib olaman, — dedi Ochil buva mashina tomon yurib. (As. M.)*
3. *Ola-g'ovur qizib turgan paytda bironing: — Salom, yigitlar! — degan tovushi eshitilib qoldi. (P. Q.)*

1. Agar ko'chirma gap muallif gapidan so'ng kelsa, undan oldin ikki nuqta qo'yiladi va ko'chirma gapdan so'ng tire qo'yiladi yoki qo'shtirnoqqa olinadi.

2. Agar ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelsa, ko'chirma gapdan keyin vergul hamda tire qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi.

Gapning mazmuniga ko'ra ko'chirma gapdan so'ng nuqta, so'roq belgisi yoki undov belgisi bo'lishi mumkin, bunda:

1) muallif gapidan so'ng kelgan ko'chirma gaplarda so'roq yoki undov belgilari qo'shtirnoq ichiga olinadi va qo'shtirnoqdan so'ng hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi;

2) muallif gapidan oldin kelgan ko'chirma gaplarda so'roq yoki undov belgisi qo'shtirnoq ichiga olinib, undan keyin tire qo'yiladi, so'ngra esa muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi.

Muallif gapining ko'chirma gap orasida kelishi.

Masalan:

1. *„Bu kishi, — dedi Ro'zimat, — bizga har tomondan ustod bo'lib qoldilar“.*

2. *„Bu narsani men ham ko'rganman, — dedi Siddiqjon, — haqiqatan ham yo'l bo'yida ba'zi g'o'zalar shoxlaydi“.*

3. *„Mening ikkita tanishim bor, bir-birini teng ko'radi, — dedi Ibrohimov, — bir-biriga juda munosib...“.*

Agar ko'chirma gapning uzilib qolgan joyida hech qanday tinish belgisi bo'lmasa, vergul va tire qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi, undan so'ng yana vergul va tire qo'yilib, ko'chirma gapning davomi kichik harf bilan boshlanadi.

Ko'chirma gapning uzilib qolgan joyida nuqta, so'roq yoki undov belgi qo'yilgan holatlarda tinish belgilarining ishlatilishiga misollar:

1. *„Assalomu alaykum, Qurbon ota! — dedi Siddiqjon. — Salom, otaxon!“ (A. Q.)*

2. *„Buning tagiga o'zimiz yetmasak, kim yetadi? — dedi Komila. — Birov kelib bizga hisobot beradimi?“*

3. *„Chet tilini bilish kerak. — dedi muallim. — Menimcha, chet tilini bilish fanni chuqur o'rganishda va mustaqil muloqotda juda zarur“.*

Bilib oling.

1. Agar ko'chirma gapning uzilib qolgan joyida nuqta qo'yiladigan bo'lsa, undan so'ng tire qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi; muallif gapidan so'ng nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan boshlanadi.

2. Agar ko'chirma gapning uzilib qolgan joyida so'roq va undov belgisi bo'lsa, undan so'ng tire qo'yilib, muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi; muallif gapidan so'ng nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan yoziladi. Agar muallif gapida ko'chirma gapning davom etishini bildiruvchi so'zlar bo'lsa (... — *dedi va davom ettirdi: ...; deb javob berdi va fikrini davom ettirib, yana shunday dedi ...* kabi), muallif gapidan so'ng nuqta emas, ikki nuqta qo'yiladi. Masalan: *Sizga bir qadar tinchlik kerak edi, Yormat aka, g'am yomon bo'ladi, — deya izvoshga o'tirib, davom etdi: — eski qadrdonsiz-da, to o'zingiz jo'natmaguncha, ko'nglingiz tinchimaydi. (O.)*

Dialog shaklidagi ko'chirma gaplar tire bilan ajratiladi. Ularda muallif gapi bo'lmaydi. Masalan:

— *Shaharda qarindoshingiz yo'qmi?*

— *Yo'q.*

— *Bo'lmasa ... Mehmonxonaga bora qoling.*

— *Yaxshi bo'lardi. (X. T.)*

52- topshiriq. Berilgan ko'chirma gaplarda qo'llangan tinish belgilarini izohlab bering.

1. Qutbiniso bir lagan moshkichiri ko'tarib, oshxonadan chiqishi bilan: — Chakki qilibsan, — dedi to'satdan. (*Mirm.*) 2. — Ota, suv, suv! — dedim. (*I. R.*) 3. — Esonomonmisiz, Qutbinisa, — dedi tomdan turib. — Esonomonmisiz, Toshbibi, — dedi Qutbinisa. (*Mirm.*) 4. „Siz topib gapirmaysiz, qopib gapirasiz“, — degan edi. (*Mirm.*) 5. Birov Sotvoldini „Aqlli yigit chiqdi, ilmi odam mana shundoq bo'ladi“ desa, birov Shirmonxonni „baraka topkur, asl qiz“ der edi. (*Mirm.*)

53- topshiriq. Quyidagi fe'llar yordamida ko'chirma gaplar tuzing va yozing. Ko'chirma gap muallif gapining ichida, undan oldin va keyin kelsin. Tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga diqqat qiling.

So'ramoq, demoq, gapirmoq, savol bermoq, eshitmoq, ko'rsatmoq.

79- mashq Quyidagi ko'chirma gaplarda tinish belgilarining qo'yilish sababini aytib bering. Muallif gapi bilan ko'chirma gaplarning o'zaro bog'lanishini ko'rsatuvchi ikkita sxema chizing. (Muallif gapi — Δ , ko'chirma gap — \square .)

N a m u n a: „Yolg'on! — jahl bilan qichqirdi Gulnor. — Yo'lchi hech gunohkor emas“. (O.)

S x e m a s i: „ \square K. \square ! — Δ . — \square K. \square “.

1. Qiz dahlizda, eshik orqasida kuchli hayajon va sarosimada turgan Gulnorni quchoqladi, sekin shivirladi: „Qayg'urmang, opajon. Qora kunlar o'tar, yorug'likka chiqarmiz. Men Sizni sira unutmayman“. 2. „U vaqtlar yosh bola edik, — sekin-sekin vazmin gapira ketdi G'ulomjon, — dunyoda o'yin-kulgidan boshqa, yemak-ichmakdan boshqa zarur ishlar, zo'r tashvishlar borligini bilmas edik“. (M. Ism.) 3. „Yerning qadri o'tdi-a, — dedi Marat kulib. — Doim uni tepkilab yura-miz-u, bir qadam uzilsak, sog'inib qolamiz“. (O' H.) 4. Birovni qidirib yuribsizlarmi? — dedi u yigitlarning qo'lidagi jomadonlariga qarab.


16- j a d v a l

Ko'chirma gapda tinish belgilari



Abdulla dedi: „Dilingda borini gapir!“ . (N. S.)

Zaynab unga hasadlanib qaradi va kuchlanib aytdi: — Hali yoshga o'xshaysiz-ku. (A. Qod.)



— Tiniq ko'ldan loyqa suv oqmaydi, — dedi Qutb-nisa. (A. Q.)

„G'am yuzni sarg'aytirar, yurakni tishlar“ — debdilar.
(*Mirm.*)

— Yana qanday xizmat bor? — deb so'radi yigit. (*H. G'.*)

**Ko'chirma gapning uzilib
qolgan joyida hech qanday , , ; , — , : bo'lsa
belgi bo'lmasa yoki**

” ■■■ , — ▲▲▲ , — ■■■ “ (o) .
(-) (?!“)

„O'rtoq Ahmedov, — dedi O'rmonjon, — ertaga bayram
oldi majlisimiz bo'ladi“.

— Ostimizdan olov daryo o'tadi, — dedi cho'pon
ota, — bug' olov bo'lib yonadi. (*I. V.*)

**Ko'chirma gapning
uzilib qolgan joyida . , ? , ! bo'lsa**

” ■■■ , — ▲▲▲ . — ■■■ “ (o) .
(-) (?!“)

„Bugun ko'chat ekishni tamomladik. — dedi qiz. —
Halim bobo bo'lsalar dam olgani ketdilar“ . (*Sh. R.*)

„Buloqlarning zilol suvi hech qanday iflosliklar bilan
bulg'anmasin! — dedi Bekbo'ta. — Halol mehnat yaratgan
qaynar buloq suvlari hamma iflosliklarni oxirigacha
qoldirmay yuvib tashlasinlar!“ (*Sh. R.*)

„Nimasini ko'rasiz? — dedi traktorchi xafasiraganini
yashirishga tirishib. — Bu jonivorning kam-ko'sti yo'q,
faqat ish bo'lsa bas, ko'rsatavering“ . (*Sh. R.*)

Shartli belgilar:

■■■ — ko'chirma gap.

▲▲▲ — muallif gapi.

(o) — tinish belgi yo'q.

Quyidagi test savollariga berilgan
to'g'ri javobni toping

1. Qaysi gapda tinish belgisi tushib qolgan?

- A. Uy buyumlar, mol-hol — hammasi senda qoldi.
- B. Ularning uchtasini: Sayyora, Safar, Olimni mukofotlashdi.
- C. Qayoqdan keldi shuncha olomon bolalar, xotinar, chollar!
- D. Taraqqiyotning kaliti ilmdadir.
- E. Ularning, bizning, dugonalarimizning xizmati katta bo'ldi.

2. Yaxshi so'z // jon ozig'i, yomon so'z // bosh qozig'i.
— Ushbu gapda // belgisi o'rniga qanday tinish belgisini qo'yish kerak?

- A. Vergul va tire.
- B. Ikki nuqta va nuqta.
- C. Nuqtali vergul va tire.
- D. Tire va tire.
- E. Hech qanday tinish belgisi qo'llanmaydi.

3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar orasida tire qanday mazmun ifodalash uchun qo'yiladi?

- A. Zidlash mazmuni.
- B. Izohlash mazmuni.
- C. Payt mazmuni.
- D. Qiyoslash mazmuni.
- E. A va B.

4. Ko'chirma gaplarda ikki nuqta qachon qo'yiladi?

- A. Gap boshida kelgan muallif gapidan so'ng.
- B. Gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng.
- C. Ko'chirma gapdan so'ng.
- D. Ko'chirma gapdan oldin.
- E. A, B.

Tinish belgilarining qo‘llanishi bo‘yicha umumiy mashqlar

54- topshiriq. Quyida berilgan matnlarda tinish belgilarining qo‘llanish sabablarini aytib bering.

HASAD

Aytishlaricha, Iskandar zamonida shunday bir dahshatli hayvon paydo bo‘libdiki, unga hech kim bas kela olmabdi.

Nihoyat, bu baloni daf qilish chorasini Arastu hakim topdi. Uning buyrug‘i bilan juda ham katta oyna tayyorladilar, u oyna orasida bir-ikki kishining bekinib o‘tirishi mumkin edi. O‘sha oyna sig‘arlik juda katta arava tayyorlab, uni aravaga ko‘tarib qo‘ydilar. Arastu oyna orasida bekinib o‘tirdi. Aravani u jonivor turadigan joyga yaqinroq yerga keltirib qo‘ydilar.

Jonivor odam isini olib, arava tomonga qarab kela boshladi. Aravaga yaqin kelgan edi, ko‘zi oynaga tushdi, oynada o‘z suratini ko‘rib darrov yiqilib o‘ldi. Iskandar bu ishdan juda taajjublanib, Arastudan buning hikmatini so‘radi:

— E, Iskandar, bu jonivor yer ostida bir necha yil yotgan badbo‘y bug‘lardan vujudga kelgandi, uning ko‘zida zaharli qotil bor edi: kimga ko‘zi tushsa, u darrov o‘lardi. Men oldiga oyna olib bordim, uning aksi oynada paydo bo‘ldi, nazari unga tushdi. Bu nazar u aks etgan vositasi bilan o‘ziga qaytdi va o‘z nazarining asari o‘ziga urib halok bo‘ldi.

Iskandar Arastuga tahsin o‘qidi. Hasadning yomonligi o‘ziga qaytadi. O‘t kuydirish uchun biror narsa topmasa, o‘zini o‘zi kuydiradi.

(„*Ipak yo‘li afsonalari*“dan.)

BOLA BOSHIDAN

Luqmoni hakimdan:

— Nasihatlaringizning ko‘pi yoshlarga taalluqli bo‘ldi, ammo yoshi kattalarga atalgani kamroq, buning sababi nima? — deb so‘radilar.

Luqmoni hakim shunday javob berdi:

— Bog‘bon yerni yumshatib bir daraxt ko‘chatini o‘tqazib, uning atrofini xas-xashakdan, zararli yovvoyi o‘tlardan tozalab, kerak bo‘lgan vaqtda suv berib tursa, umuman, yaxshi e‘tibor berib tarbiyalasa, tez vaqtda daraxt voyaga yetadi, unumli, serhosil bo‘ladi.

Bola ham yoshligidan boshlab yaxshilab tarbiya qilinsa, go‘zal axloqli, odobli etib o‘stirilsa, u bola o‘ziga, ota-onasiga baxt-saodat keltiradi, jamiyatning eng foydali a‘zosi bo‘lib yetishadi. Shuning uchun men yoshlar tarbiyasiga ko‘proq ahamiyat beraman, va‘z-nasihatlarimning ko‘p qismi yoshlarga oid bo‘ladi. B a y t :

Har o‘g‘il-qizga kerakdir ruhi afzo tarbiyat,
Aylagay orzu, umidlarni muhayyo tarbiyat.

(„Ipak yo‘li afsonalari“dan.)

INSONIY FAZILAT VA ILLATLAR HAQIDA

Suqrot hakim aytadi:

— Agar birovni o‘zingizga do‘st qilmoqchi bo‘lsangiz, avval uning tarjimai holini shunday o‘rganing: birinchidan, u kishi yoshlik vaqtida o‘z ota-onasiga qanday muomalada bo‘lgan? Ikkinchidan, qarindosh va o‘rtoqlari uning muomalasidan rozi bo‘lganmi? Uchinchidan, u odam yoshlik davrini kechirgandan keyin muomalasi bilan hammani o‘zidan bezdirganmi? To‘rtinchidan, birov unga yaxshilik qilgan bo‘lsa, u odamdan minnatdor bo‘lganmi? U ham boshqalarga yaxshilik qilganmi? Beshinchidan, kayf-safo, aysh-ishratga berilganmi? Faqat o‘z manfaatinigina ko‘zlaydiganmi, yo‘qmi? B a y t :

Chin, samimiy do‘stki, tortmoqlik qiyin,
Gar topolsang, surma qil ko‘zga izin.

(„Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur“.)

55- topshiriq. „Navro‘z“ bayramiga tayyorgarlik haqidagi masala qo‘yilgan majlis qarorini yozing.

56- topshiriq. O‘zining ish faoliyati to‘g‘risida o‘qituvchingizdan intervyu oling.

ONA TILI FANIDAN O'TILGANLARNI TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH

Eslang.

1) *o* harfi — *ota, top* kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini va *talon, opera* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun qo'llanadi;

2) *Jj* harfi *jon, vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni va *jurnal, ajdar* kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun qo'llanadi.

1- **mashq.** Quyidagi so'zlarni alifbo tartibida yozib chiqing.

Sharshara, eski, daftar, ko'z, oshiq, rux, suv, to'siq, o't, g'am, chehra, adad, zinhor, yoy, xotira.

Eslang.

1) *k, q* undoshlari bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, *k* tovushi *g* ga, *q* tovushi esa *g'* ga aylanadi:

yurak — yuragi; qishloq — qishlog'i;

2) o'tgan zamon qo'shimchasi *-di* ba'zan *-ti* eshitilsa ham *-di* yoziladi: *ketdi, kelmabdi* kabi;

3) *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga* kabi so'zlarda qo'shimchalar qanday aytilishidan qat'iy nazar, *g* yoziladi;

4) juft so'z qismlari orasida *-u/yo* bog'lovchilari kelsa undan oldin chiziqcha qo'yiladi:

dost-u dushman, katta-yu kichik.

2-**topshiriq.** Quyidagi gaplarni o'qing. Tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Yaxshilikka ixlos qo'ysang yomonlikdan xalos bo'lasan. (T. M.) 2. Boylikka ega bo'lmaslik yomon boylikka ega bo'laturib undan odillik bilan foydalana olmaslik undan-da yomonroq. (T.M.) 3. Kimki intilmasa u hech narsaga erishmaydi kimki shijoat ko'rsatmasa u hech narsalik

bo'lmaydi kimki o'zining ma'naviy quvvatidan foydalanmasa bu quvvat uni tark etadi. (*T.M.*) 4. Inson tili shirin so'z aytib o'likni tiriltirishi yoki zaharli so'z aytib tirikni o'ldirishi mumkin. (*T.M.*) 5. So'zning xanjar bo'lib kishi qalbiga sanchilib halok etmog'i mumkinligini yoinki tiriklik suvi bo'lib o'likni tiriltira oluvini hazrat Navoiy baytlarida bayon etganlar Yana donishmandlar aytishganki Aytgan so'zim xo'jam aytmaganim qulim. Yana hazrat Umar debdilarkim Jannatga olib boruvchi ham do'zaxga yetaklovchi ham shu tildir. (*T.M.*) 6. Umar Hayyom hazratlarining bir rivoyatlarida ikki kishi yer talashib biri shu parcha yer meniki derkan boshqasi Yo'q meniki derkan Shunda yer tilga kirib Talashmanglar ikkoving ham menikisan degan ekan. (*T.M.*)



Eslang.

1. Omonim so'zlar bilan polisemiya so'zlari ko'p ma'noli bo'lsa ham, ular orasida farq bo'ladi, omonim so'zlarning anglatgan ma'nolari orasida aloqa bo'lmaydi (*ot* — o'simlik, *ot* — fe'l), polisemik so'zlar orasida ma'naviy bog'lanish bo'ladi (*ko'z* — a'zo, *ishning ko'zi* — ko'z kabi nozik ish).

2. Frazelogik birikma va gaplar ko'pincha bir so'z yoki so'z birikmasiga teng bo'ladi: *qo'li uzun* — olg'ir, *o'pkasi yo'q* — shoshilgan, *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* — ruhi tushdi va b.

3-topshiriq. Lug'at daftaringizga 1) ma'nosi notanish so'zlarning ma'nosini izohlab yozing; 2) til va adabiyotga oid atamalarni yozib, ma'nosini izohlab bering.

4-topshiriq. Bahorni tasvirlab kichik insho yozing.

2-mashq. Quyidagi sinonimlarning nozik ma'nolarini izohlab bering.

boshliq, rahbar, yo'lboshchi, ishboshi, katta, ulug', sardor, xo'jayin, sarkarda.

5-topshiriq. Quyidagi frazeologik birliklarni ayrim soʻzlar bilan izohlang.

Astar-avrasini agʻdarmoq. Achchigʻi burnining uchida. Baland oxurdan suv ichmoq. Baland dorga osilmoq. Barmoq bilan sanarli.

3- mashq. Quyidagi soʻzlarni taqqoslab, maʼnodagi farqlarini aytib bering.

Urush—urish, tushum—tushim, tire—teri, azim—azm, vaqf—voqif, bop—bob, ziyrak—zirak, juda—judo.

6-topshiriq. Quyidagi matnni ifodali oʻqing. Matndagi sinonim, antonim, omonim soʻzlarni, frazeologik birliklarni izohlab bering.

YANGI YILNI QADIMDA QACHON NISHONLASHGAN?

Ayrim xalqlar vaqt hisobini oy taqvimi boʻyicha olib borishadi, shuning uchun yilning boshi goh kuzga, goh qishga toʻgʻri keladi. Biroq qadimgi xalqlarda Yangi yilni nishonlash tabiatning uygʻonishiga toʻgʻri kelgan va bu, odatda, mart oyida yuz beradi.

Qadimgi rimliklarda mart birinchi oy hisoblangan, chunki bu oyda dala yumushlari boshlangan. Yil oʻn oydan iborat boʻlgan. Keyinchalik oylar soni ikkitaga oshgan. Eramizdan avvalgi 46-yilda Rim imperatori Yuliy Sezar yilning boshlanishini 1 yanvarga koʻchirgan. Uning nomi bilan ataluvchi yulian kalendari butun Yevropaga tarqalgan.

Sizga yaxshi maʼlumki, Yangi yil har doim ham 1-yanvarda nishonlanavermagan. Fransiyada 755- yilgacha yangi yilni 25- dekabrda, keyinchalik 1- martda, XII asrda pasxa bayrami kuni, 1564- yildan esa qirol Karl IX ning farmoni bilan 1- yanvar kuni bayram qila boshlashgan. Germaniyada XVI asrning ikkinchi yarmidan, Angliyada esa XVIII asrdan shunday qilishadi.

Rossiyada xristianlik joriy etilgan paytlardan boshlab yangi yil goh martda, goh pasxa bayramida nishonlanar edi. 1492- yili buyuk Ioann III yangi yilni 1- sentabr kuni nishonlash toʻgʻrisida farmon chiqaradi. Mamlakatda

1- sentabr oxirgi marta 1698- yilda yangi yil sifatida bayram qilingan. Pyotr I ning farmoniga binoan Yevropada amalda bo'lgan kalendar joriy etilgach, Rossiyada ham 1- yanvar yil boshi bo'lib qoldi.

Umuman olganda, yozma manbalarning guvohlik berishicha, Yangi yilni bayram qilish an'anasi kamida 25 asrlik tarixga ega bo'lib, qadimgi Mesopotamiya va Nilning quyi vodiysida paydo bo'lgan. Dajla va Frot daryolarining suvi ko'paygan mart oyining oxirlaridan Mesopotamiyada dala yumushlari boshlangan. O'rni kelganda dehqonchilik qadimgi turmushda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlash joiz. Shundan so'ng yangi yil 12 kun mobaynida bayram qilingan. Bu paytda ishlash, kishilarni jazolash va sud qilish ta'qiqlangan.

Shu tariqa ushbu an'ana bobilliklardan greklarga, ular orqali Yevropaga, undan butun dunyoga tarqalgan. („*Huquq*“ gaz.)

4- mashq. Quyidagi she'riy parchalarni ifodali o'qing. Tinish belgilarining qo'yilish sabablarini tushuntiring.

Ko'kka sapchimoqda favvora tomchilari
Oliy martaba ishqida. So'ng...
Yig'lay-yig'lay sho'ng'iydi pastga.

Ka'ba — oppoq dasturxon—
Kimlardir kirarlar unga
Kirlangan kirlarni to'kmoqlik uchun
So'ng yana kirlanish uchun.

Qovoq va kalla: mushtaraklik bor go'yo bunda.
Ammo bir mazza bordir qovoqda,
Qovoq kallada-chi?

„Xalqim“ deydi birovi
„Halqum“ deydi birovi,
Tili chuchuklar ozmi dunyoda.

Halollikdan so'zlar ma'ruza
Burgalarni,
Taqalagan zot. (T.M.)

7- topshiriq. Matnni o'qing. Kiyim beruvchining tili qaysi shevaga yaqinligini aniqlang. Shevaga xos til xususiyatlarini ta'riflang.

BIROVNING PO'STINI

Bir odam teatrga tushdi. Tomoshaning yarmiga borganda zerikdi. Bir tarafdin zal sovuq, uning ustiga sahnada o'ynalayotgan voqea ham bachkana edi. Ketgisi keldi. Pastga tushdi. Kiyimxonaga borib, po'stinini so'radi. Kiyim beruvchi unga yaltoqlanib boqdi.

— Iye, ketopsizmi, akamullo? Shundaychin yaxshi o'yinni tashlab-a?

— Yaxshi bo'lsa artistlar o'zi ko'raversin,—dedi tomoshabinning ensasi qotib, — po'stinni oling.

— Boz sabr qile-eng, akamullo! Haligi oshiq bacha qo'shig'ini aytib qaylig'ini chaqirib olsin-da, axir. Men sizga bir piyola choy beray, ichib turing.

— E, qiziq odam ekansiz-ku, amaki! Oshiq yigitingiz bilan nima ishim bor? Po'stinni bering, ketaman.

— Beramiz, akamullo, beramiz, shu damgacha birovning jomasini kiyib qochgan mardum emasmiz. Yak nafas sabr kuned, akamullo...

— Po'stin!—deb baqirdi tomoshabin.

Chol nomiga ilgakdagi kiyimlarni nari-beri surib ko'ra boshladi.

— Hali zamon ko'ruvdim sabil qolgurni. Qaysi go'rga ketdi, man hayron...

Shu payt tepadan hovliqib bir yigit tushib keldi.

— Po'stiningiz bu yoqda, — dedi u va echib egasiga tutqazdi. Tomoshabin bir po'stiniga, bir aktyor yigitga qarab ajablendi.

— Tushunmadim. Nega mening po'stinimni kiyib yuribsiz?

— Aybga qo'shmaysiz, aka, bozor iqtisodi. Goho tomoshabinlarning kiyim-boshidan foydalanib turmasak, teatrdan tuzukroq kiyimning o'zi qolmadi... (*S.Siyoyev*)

8-topshiriq. Quyidagi she'rlarning mazmunini o'z so'zingiz bilan gapirib bering.

NAVRO'Z

Avval yuragingga mo'ralaydi u,
So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.
Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro'z!

Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,
Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.
Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro'z!

Ona bag'ri kabi iliqdir olam,
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.
Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro'z!

Yana ko'ngillardan rutubat ketdi,
Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.
Yana dildorlikning fursati yetdi,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro'z!

(A. Oripov)

ARMONLARDA O'TIB KETGAN USMONMAN...

Bu dunyoda maqsadlarim ko'p edi
Istaklarim, orzularim mo'l edi.
Qalbim olov, lovillagan cho'g' edi
Armonlarda o'tib ketgan Usmonman.

Bu ko'zlarim to'ymagandi quyoshga
Osmondagi porlab turgan yulduzga.
Tong pallasi chug'urlagan qushlarga
Evol... qora tunda qolib ketgan Usmonman.

Nechun meni azoblashgan, bilmadim,
Manmanlarga aslo qulluq qilmadim.
Har kimsaning gaplariga kirmadim,
Lagerlarda tahqirlangan Usmonman.

Tutqunligim sababini o'zimdanda
So'rab-so'rab topolmagan Usmonman.
Kir qidirib har bir aytgan so'zimdanda
Sibirlarga surgun bo'lgan Usmonman.

Onajonim meni yo'qlab izimdanda
Zor-zor yig'lab bu dunyodan o'tdingiz.
Kimlardandir umid qilib, bosh urib...
Maqsadga ham erisholmay netdingiz?

Dosh berolmay mehringizning o'tiga
Diydorimga to'yolmasdan ketdingiz.
Ilk tuyg'ular jo qilgansiz qalbinga
Sizdan qarzin uzolmagan Usmonman.

Necha yillar xo'p sinashdi sabrimni
Jarohatlar tushirolmadi qadrimni.
Izlamangiz nom-nishonsiz qabrimni
Mangulikda qolib ketgan Usmonman...

(M. Mirzarahimova)

9-topshiriq. Quyidagi matnlarda qo'llangan uyushiq bo'laklarni aniqlang, ularda qaysi gap bo'lagi uyushgani va tinish belgilarining qo'yilish sabablarini aytib bering.

Nimalarni oltin qimmatini bilan o'lchab bo'lmaydi: otanonaning duosini, mehrini, ota-ona yuzidagi nurini. Yana chin do'stni, yorning vafosini, farzandning kulgisini. (*T.M.*)

Hayot har bir kishi uchun bag'oyat aziz va muqaddasdir. Inson farog'atda yashamoq uchun sidqidildan mehnat qilishi, bilim-ma'rifat egallashi, ezgulik yo'lida tinmay kurashishi va eng muhimi, insoniy-ma'naviy fazilatlar — odob, go'zal axloqda kamolotga erishishi, kamtarinlik sharafiga muyassar bo'lishi ham farz, ham qarzdur.

Inson benuqson bo'lishi uchun turmush tajribalarini boshidan o'tkazmog'i, minglab yillar mobaynida jamiyat a'zolari tomonidan yig'ilgan odob me'yorlarini o'zlashtirmog'i zarur.

Ba'zi odamlar kishining ma'naviyatiga qarab emas, uning mansabi, boyligi va foydasi tegishiga qarab hurmat qilishadi. Bu chin insoniylik emas, soxtalikdir.

Fikri tarqoq, turfa xil tovlanuvchi beqaror shaxslardan yaxshilik kutma.

Razil, qurumsoq, baxil va xasis kishining fikri-zikri boylik to'plashga qaratilgan bo'ladi. U erta-yu kech faqat shaxsiy mulk orttirishni o'ylaydi. Bunday shaxs el-u yurtga, do'st-u birodarlarga va umuman jamiyatga fidokorlik, yaxshilik qilish fazilatidan mahrum kishidir.

Odamzotning taqdirini odamzot hal qiladi, degan mag'zi to'q gapda ham bir olam ma'no bor... Bir-biriga yaxshilik, sof mulozamat, tiniq iltifot, hamdardlik, mehr-u oqibat, yuksak muruvvatlilik, o'zaro qadr-qimmatni bilish, saxovatmandlik, hayot kurashlarida hamkorlik, bir-biriga do'stona yordam, sadoqatlilik — bularning hammasi insonning taqdirini hal qilishda katta rol o'ynaydi.

Inson bir-biri bilan subhidamda salomlashishi, ahvol so'rashi, bir-biriga omonlik, tinchlik tilashi, xushnud mulozamat hadya etishi ko'ngilni yayratadi va yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi, shuningdek, ishtiyoqni oshiradi. Bu noyob ne'matdan hamma bahramand bo'lishi bag'oyat buyuk ishdir. (*Sh. Orifiy*)

10-topshiriq. Quyidagi XV asrga oid matnda qo'llangan eskirgan so'z va grammatik belgilarni aniqlang va hozirgi adabiy tilga qiyoslang.

Qoraxonning inilaridin ko'p o'g'lonlari bor erdi, anlarni Qoraxondin ayrilur teb, hech kimning ko'nglina kelmas erdi, anlarning barchalari O'g'uzxon qatig'a keldilar, O'g'uzxon anlarg'a uyg'ur deb ot qo'yдилar, uyg'ur turk tili turur, ma'nisi sut uydi, sut erkaninda biri birindin ayrilur erdi, qatig bo'lg'andin so'ng biri biriga yopisha turur, bu taqi ayturlarkim imomg'a uydim, imom o'ltursa ul turur, tursa turur. Bas yopishqani bo'lmasmu? Anlar kelib O'g'uzxonning etakina ikki qo'llari birlan mahkam yopishdilar ersa, xon anlarg'a uyg'ur tedi, yopishqur temak bo'lur. (*Abulg'oziy Bahodirxon „Shajarai tarokima“, XVII asr*)

I L O V A

MUSTAQILLIK MADHI DARSLARI

(Suhbat)

O'zbekiston Respublikasi — Mustaqil Davlat

— 1998- yil, 21- oktabr — O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berish to'g'risidagi Qonun qabul qilindi.

— 1990- yil, 19- fevral — O'zbekiston Hukumatining qarori bilan mazkur Qonun qabul qilingan kun „Til bayrami“ sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

— 1991- yil, 31- avgust — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlat deb e'lon qilindi.

— 1991- yil, 1- sentabr — O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni.

— 1992- yil, 2- iyul — O'zbekiston Respublikasining gerbi (tamg'asi) tasdiqlandi.

— 1992- yil, 18- noyabr — O'zbekiston Respublikasining bayrog'i qabul qilindi.

— 1992- yil, 8- dekabr — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XII chaqiriq XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilingan kuni umumxalq bayrami kuni deb e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

— 1992- yil 10- dekabr — O'zbekiston Respublikasining madhiyasi qabul qilindi.

— 1994- yil, 1- iyul — O'zbekiston Respublikasining milliy valutasini joriy qilindi.

— 1997- yil, 1- iyul — O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash to'g'risida Qonun qabul qilindi.

— 1997- yil, 29- avgust — O'zbekiston Respublikasida „Ta'lim to'g'risida“gi Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni

— 1992- yil, 2- mart — O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi.

Hozirgacha:

— 150 davlat O'zbekiston Respublikasini tan oldi.

— 60 tadavlat O'zbekiston Respublikasida o'z diplomatik elchixonalarini ochdi.

Mustaqillik uchun kurashlar

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat bo'lishi uchun kurash Rossiyaning sobiq Turkistonni zabt etgan davridan boshlangan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida o'zining zamonaviy qurollar bilan qurollangan, jang qilish usullarini puxta egallagan qo'shinlari bilan, hiylayu nayranglar bilan ibtidoiy qurollar — ketmon, bolta, pichoq, qisman, eski ov miltiqlari bilan qurollangan xalq, olomon ustidan g'alaba qozondi, o'n minglab aholi qirib tashlandi, shahar va qishloqlar vayron bo'ldi. Chor Rossiyasi Turkistonda o'z mustamlakachilik siyosatini yurgizdi: o'lka xomashyo (paxta) bazasiga aylantirildi, soliqlar haddan oshib ketdi. Hosildor yerlar Rossiyadan ko'chirib kelinganlarga berildi, vaqf yerlari qisqartirildi, qattiq harbiy-politsiya tartibi o'rnatildi, natijada aholining ahvoli qiyinlashdi, qimmatchilik, qahatchilik hukm surdi. Bu hol aholining noroziligiga va xalq qo'zg'olonlarining kuchayishiga sabab bo'ldi. Ulardan eng muhimlari:

1. 1892- yil qo'zg'oloni. 1892- yili Toshkentda ro'y bergan vabo kasaliga qarshi chor amaldorlarining keskin choralarga qarshi xalq qo'zg'alib, ko'p amaldorlarni toshbo'ron qildi. Ammo muntazam rus qo'shinlari **ikki mingdan** ortiq kishini nobud qildi, qamadi, surgun qildi.

2. Dukchi eshon qo'zg'oloni. Zulmga qarshi 1898- yili Andijon va Marg'ilon aholisi Dukchi eshon (asl ismi Muhammadali) boshchiligidagi qo'zg'olonda bir necha minglab kishilar qatnashdi. Qo'zg'olonchilar chor amaldorlari bilan bir necha yil mardonavor kurashdilar. Ammo muntazam rus qo'shinlariga teng kela olmadilar: qo'zg'olon vahshiyona bostirildi, 500 kishi qamoqqa olindi, 18 kishi osildi, qolganlari surgun qilindi.

3. 1916- yil qo'zg'oloni. 1- Jahon urushidan talafot ko'rgan Rossiya podshosining 1916- yil 25- apreldagi mahalliy aholini mardikorlikka olish (rekvizitsiya qilish, ya'ni „narsa yoki buyum sifatida tortib olish“) to'g'risidagi farmoni butun Turkiston o'lkasida katta g'alayonlarga sabab bo'ldi. Qo'lida o'roq, ketmon, oybolta va tosh bilan aholi yaxshi qurollangan, harbiy ta'lim ko'rgan rus muntazam armiyasiga qarshi turdi. Ko'pincha mahalliy amaldorlar toshbo'ron qilindi, uylari va idoralariga o't qo'yildi. Ammo kuchlar teng emasdi: **minglab** qo'zg'olonchilar yo'q qilindi, surgun qilindi, mol-mulkleri musodara qilindi. Ko'p qishloq va shaharlar, jumladan, **Djizzax yo'q qilib yuborildi.**

Afsuski, 1917- yil fevral oyida rus podshosining taxtdan tushirilishi Turkistonga ozodlik bermadi. Hokimiyat endi sovetlar qo'liga o'tdi, mustamlakachilik siyosati davom etdi.

Sovetlar davridagi mustaqillik uchun kurashlar

Oktabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda ahvol o'zgar-madi, hatto oldin „xo'ja ko'rsinga“ berilgan ozgina erkinliklar ham tortib olindi, shariat sudlari, eski maktab-lar berkitildi, dindorlar va o'rtahol kishilar surgun qi-lindi, 1400 ta bolshevik Rossiyadan keltirilib, rahbariy o'rinlarga qo'yildi, oziq-ovqat razvyorskasi, kollektivlashtirish aholini xonavayron qildi, 1920- yil 2- fevralda Buxoro xonligi, shu yil 26- aprelda Xorazm xonligi tugatildi.

Bu zo'ravonlikka mahalliy xalq, uning ilg'or ziyolilari chidab tura olmadilar. 1917- yildan jadidchilik harakati maorif siyosatidan siyosiy harakat tusini oldi, turli uyush-malar, partiyalar tuzildi.

1. Qo'qon shahrida **Turkiston muxtoriyati** yangi hisob bilan 11- noyabrda tashkil bo'ldi. Afsuski, muxtoriyat 72 kungina yashadi. Toshkentda yevropaliklardan iborat sovetlar qo'shini himoyaga chiqqan 100000 kishidan 10 000 ini qirib tashladi, muxtoriyat tarqatildi, rahbarlari qamaldi, ba'zilari qochib ketdi.

2. Sovetlarga qarshi qurolli **milliy ozodlik harakati** 1918-yil fevraldan boshlanib, butun Turkistonni qamrab oldi, o'n minglab aholi Madaminbek, Shermuhammad va boshqa qo'rboshilar rahbarligida sovetlarga qarshi 1935-yilgacha kurashdi. Ammo kuchlar teng emasdi. Ibrohimbek, Anvar Posho, Junaidxon kabi lashkarboshilar otib tashlandi.

3. Qatag'on yillarida (30—50- yillar) mustaqillik uchun kurashgan 56 mingdan ortiq begunoh insonlar surgun qilindi, 7 mingdan ortig'i („uchlik“ komissiyasi qarori bilan!) otildi. Mustaqillik uchun kurashda ilg'or ziyolilardan Behbudiy (1875—1919), Munavvar Qori (1878—1931), Fitrat (1886—1938), A. Qodiriy (1894—1938), Cho'lpon (1897—1938), A. Avloniy, Usmon Nosir (1912—1944); davlat arboblari F. Xo'jayev (1882—1938), N. To'raqulov (1892—1939), Q. Otaboyev (1887—1937), A. Rahimboyev (1896—1938), I. Xidraliyev (1891—1929), A. Ikromov (1898—1938) kabilar millatchilik va guruhbozlikda ayblanib otildilar.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, ularning nomlari oqlandi, asarlari qayta nashr qilindi, Toshkent shahrida „Shahidlar hiyoboni“ tashkil etildi.

Ayrim qiyin soʻzlarning qisqacha izohli lugʻati

A

- adl** — 1. adolat; 2. odillik
afgor — jarohatlangan, majruh
aftoda, uftoda — 1. yiqilgan;
2. xor
afgʻon — nola, figʻon
ahl — 1. istiqomat qiluvchi;
2. odamlar, guruh; biror
toifaga mansub kishilar gu-
ruhi
ajun — olam, dunyo
akbar — eng ulugʻ, eng katta
akobir — ulugʻlar, kattalar
aks — teskari
alfoz — lafzning koʻpligi
alhaq — borliqning haqiqati,
haqiqiy, bor, mavjud
alif — eski alifboning birinchi
harfi; abjad hisobida 1 ga teng
aljabr — algebra
alʻomon — 1. omonlik berish;
2. omonlik berishga chaqiriq
amn — xavfsiz boʻlish
andoza — 1. oʻlchov; 2. miqdor
anduh — gʻam, qaygʻu
anis — doʻst, yor.
anjuman — majlis, yigʻin
arjumand — qadri, hurmatli,
eʼtiborli
argʻuvon — qip-qizil boʻlib
gullaydigan daraxt
asigʻ — foyda, naf
asru — juda, haddan ziyod,
ortiq darajada
atfol — tiftl (bola)ning koʻpligi
avbosh — bebosh, sayoq bezo-
ri, daydi
avliyo — valiyning koʻpligi

- aymoq** — demoq, gapirmoq
ayru — 1. ayrilgan, ajralgan;
2. ayrilib, ajralib
aysh — kayf-u safo, ishrat
agʻyor — gʻayr (oʻzga)ning
koʻpligi
ashk — koʻz yoshi

B

- bahramand** — bahra oluvchi,
manfaatdor
bahrayn — bahrning ikkiligi,
ikki dengiz
bajo — 1. oʻrniga, joyiga;
2. oʻrinli, mos keladigan
bakovul — bosh oshpaz
banogoh — birdan, toʻsatdan
baqo — davom etish, saqlanish
bashar — inson, odamzod
bedil — oshiq, maftun
benazir — tengsiz, oʻxshashi yoʻq
benavo — faqir, bechora,
notovon
boda — may, sharob
boj — savdo sotigʻi
bitig — yozma, yozma asar
bot — tez, ildam, darrov
botil — puch; notoʻgʻri, asossiz
boqiy — davomli, uzluksiz,
abadiy.
buzrug — ulugʻ, katta

D

- dalil** — isbotga asos boʻlgan
narsa
dam-badam — uzluksiz, har
doim
darbadar — daydi, sayoq

darvesh — 1. faqir, yo'qsil;
2. tariqatda faqirlik yo'li-
ni tutgan
dag'dag'a — do'q, po'pisa
dag'i — 1. tag'in, yana; 2. ham-
da
dilbar — ko'ngil eltuvchi, mah-
bub
dilovar — 1. yo'l ko'rsatish;
2. dalil keltirish; guvohlik
dolu — to'r tuzoq
dono — bilimdon olim
dur — marvarid
durdona — marvaridning bir
donasi

F

farog'at — osudalik, tinchlik
farrux — baxtli, saodatli,
omadli
fath — g'alaba
filhaqiqat — darhaqiqat, haqi-
qatan
fitna — g'avg'o, to's-to'polon;
bosh ko'tarish, qo'zg'alish
furqat — ayriliq, firoq

G

gulbog' — gulzor, chamanzor
gulgun — gulrang, qizil

H

habib — 1. do'st; 2. sevikli
hakam — kelishtiruvchi, nizo-
larni hal qiluvchi
hakim — 1. faylasuf; 2. donish-
mand, alloma; 3. tabib
hamd — maqto'v, olqish
hammol — yuk tashuvchi
haram — 1. kirish man etilgan
joy, ichki hovli yoki uy; 2. urush,
o'ldirish, mol so'yish man
etilgan muqaddas joy

hojat — zaruriyat, ehtiyoj
hokim — hukmdor
hoksor — 1. kamtarin, oddiy,
sodda; 2. xor, tuban
hub(b) — don, dona
hudud — had(d)ning ko'pligi
huvaydo — aniq ko'rinib tura-
digan; aniq, ravshan

I

iglik — kasal, betob
ikrom — 1. karam (oliyjanob-
lik) qilish; 2. izzat qilish
inju — marvarid, dur
inmoq — tushmoq
inonmoq — ishonmoq
inoyat — lutf-u ehson
intiboh — ogohlanish va ogoh-
lantirish
istig'no — 1. e'tiborsizlik bilan
qarash, ro'yxush bermaslik,
beiltifotlik; 2. o'z qiymatini
oshirish uchun o'zini be-
parvo qilib ko'rsatish, noz
qilish; noz, karashma
istig'for — xudodan gunohni
kechirishni so'rash, qilgan
gunohlariga tavba qilish
izn — ruxsat, ijozat
ishtiboh — shak-shubha, gumon

J

jaf — zulm, sitam
jodu — sehr
jola — do'l, yog'in; 2. shudring
jom — kosa, qadah
jovidon — abadiy, doimiy,
mangu
jur'at — botinish

K

kashshof — kashfiyotchi
kent — shahar

kibr — o'zini hammadan yuqori his etish, manmanlik
kokil — soch o'rimi
kotib — ro'yxat tuzish, qo'l-yozmalarni ko'chirish bilan shug'ullangan shaxs, mirza

L

lahza — on
lug'atnavislik — lug'at tuzish ishi

M

maddoh — madh etuvchi, olqishlovchi
mafhum — 1. tushuncha; 2. ma'no, mazmur
mahbub — sevimli kishi, yor
mahkama — hukm qiluvchi, hukm chiqaruvchi idora, sud
mahram — yaqin do'st; sirdosh, ishonchli kishi
mahvash — jamoli oyga o'xshash, oydek go'zal, oy jamol
makr — hiyla, firib
molik — hukmdor, siroh
malomat — ta'na
mal'un — la'nati, la'natlangan
mangu — abadiy, boqiy
marom — biror ish yoki faoliyatning me'yor
masdar — 1. manba, sodir bo'lish; 2. grammatikaga oid atama, harakat nomi
may — sharob
mayl — xohish
mashvarat — kengash, maslahat
mashshoq — sozanda
milod — tug'ilish, tug'ilgankun
miskin — 1. kambag'al, bechorahol; 2. mungli, hazin
misqol — qadimiy og'irlik o'lchov birligi, 1 misqol 4,5 gramm atrofida bo'ladi

mohir — usta, tajribali
mohtob — oy yoritib turgan, oydin
muharram — 1. qamariy yil hisobida birinchi oying arabcha nomi; 2. man qilingan, ruxsat etilmagan
muhofaza — 1. saqlash, qo'riqlash, himoya qilish; 2. esda saqlash qobiliyati, xotira
muhsin — ezgu niyatli, ezgu ishlar qiluvchi
mukarram — hurmatli, obro'li
munaqqash — naqsh bilan bezatilgan, naqshdor
muzaffar — g'olib

N

nag'ma — kuy
nifoq — nizo, kelishmovchilik
nihon — yashirin, pinhon
nogoh — birdan, to'satdan

O

ofiyat — sog'lik, salomatlik
olachiq — chayla, kapa
osiy — 1. bo'ysunmaydigan, itoat qilmaydigan; 2. gunohkor
ovloq — ov qilinadigan joy
og'u — zahar
oshufta — sevib, maftun bo'lib qolgan, parishonhol; oshiq

P

paydar-pay — birin-ketin, ketma-ket, uzluksiz
panoh — himoya, muhofaza
payg'om — xabar, darak
partav — nur, shu'la
paymona — sharob ichiladigan piyola, qadah
qabih — jirkanch, yaramas
qadoq — qadimiy o'lchov birligi: 1 qadoq 400 g atrofida bo'lgan

qasaba — qishloq; aholi yashaydigan kichik joy
qasida — madhiya, marsiya
qodir — kudratli, kuchli
qomus — mukammal, to'liq lug'at
qo'noq — mehmon
ramz — shartli belgi, ishora, simbol
raxna — 1. yoriq, darz; 2. raxna solmoq — putur yetkazmoq, tagidan zil yetkazmoq
razolat — yaramas, jirkanch xatti-harakat, tubanlik, razillik
ra'no — atirgullilar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik va uning sariq yoki qizil xushbo'y guli; 2. go'zal, barno
rishta — 1.ip, arqon; 2.aloqa, munosabat
ruxsor — yuz, aft-angor

S

sabiq — 1. dars; 2. ibrat bo'lib xizmat qiladigan va ko'z-ni ochadigan ish, voqea, hodisa
sado — ovoz, tovush
safo — 1. tozalik, musaffolik, soflik; 2. huzur, gasht
sajda — 1. ibodatda bosh qo'y-moq; 2. bosh egmoq, tiz cho'kmoq
samara — natija, oqibat; meva
saraton — 1. o'n ikki burjning biri; 2. shamsiya hisobida to'rtinchi oyning arabcha nomi (22 iyun—21 iyul)
sarv — doim yashil rangda bo'ladigan baland bo'yli, tik daraxt
saviya — shaxs, narsa yoki hodisaning taraqqiyot darajasi

saxovat — saxiylik
sayyod — ovchi
sipoh — jangchi, askar
sobit — mustahkam, og'ishmas
soniy — ikkinchi
soqiy — may quyuvchi, kosagul
sud — foyda, naf
sunbula — 1. o'n ikki burjning biri; 2. Quyosh yili oltinchi oyining arabcha nomi (22-avgust—21-sentabr)
suvori — otliq
suyurg'ol — podshoh tomoni dan ba'zi amaldor shaxslarga beriladigan imtiyozlar

T

tabib — shifokor
tafovut — farq
tafsir — sharh, izoh, tushuntirish
tahammul — sabr, bardosh, chidam
tajalli — jilo, jilvalanish, yarqirash
tajnis — shakldosh so'zlardan foydalanish san'ati
takalluf — ortiq darajada hurmat va e'tibor ko'rsatish, mulozamat
tamug' — do'zax, jahannam
tang'a — belgi, nishona, muhr
tanazzul — orqaga qarab ketish, inqiroz, tushkunlik
tanbeh — koyish, ogohlantirish yoki jazo
taqi — tag'in, yana
taqriz — yozilgan asar, maqola va boshqalarga baho berish
tarahhum — rahm-shafqat qilish
tarona — kuy, qo'shiq

tarxon — barcha soliq va jazolardan ozod qilingan kishi
tasarruf — ega bo'lish, biror narsaga egalik qilish
tavallo — yolvorish, yalinib so'rash, iltijo
taxayyul — xayol qilish
tegra — atrof, tevarak
teva — tuya
tibbiyot — meditsina
tilovat — Qur'onni qiroat bilan o'qish
tirmizak — yosh, g'o'r bola
tobon — porloq, yorqin, tovlanadigan
tongla — ertangi, kelgusi kun
tuyg'un — 1. sezgir, farosatli; 2. lochinning bir turi
tuzluq — tuzdon, tuz saqlanadigan idish
tuzuk — tuzilgan, tartibga solingan

U

uzra, uza — ustida, ustidan
ush — shu, mana shu

V

valiy — 1. sodiq do'st; 2. mu-rabbiy; 3. xudoning eng sevimli bandasi
vazn — 1. og'irlik; 2. she'r vazni
visol — aynan vasl
voris — meros egasi, merosxo'r

X

xam — pastga egilgan, quyi solingan
xandon — kuluvchi, kulib turuvchi

xatib — masjidida xutba o'quvchi
xazina — pul va qimmatbaho narsalar saqlanadigan joy
xijriy — musulmonlarning yil hisobi
xilqat — 1. yaratilish, bunyodga kelish; 2. yaratilgan, bunyodga kelgan
xirom — chiroyli yurish, nozkarashma bilan qadam bosish
xoja — 1. xo'jayin, sohib, ega; mulk egasi; janob
xudbin — o'zini yoki o'z manfaatini hammadan yuqori qo'yuvchi odam
xunkor — aynan xunxo'r, qonxo'r
xurshid — yoritib turuvchi narsa; quyosh, yorug'lik, mash'al

Y

yorg'u — 1. yorish, maydalash, bo'laklarga ajratish; 2. baxs, tortishuv
yovuq — yaqin
yoziq — gunoh
yukunmoq — 1. o'tinib murojaat qilmoq, iltijo qilmoq, yolvormoq; 2. ta'zim qilmoq
yumurtqa — tuxum

Z

zabon — 1. til; 2. nutq
zalolat — tubanlik, horlik; yo'ldan ozish, gumrohlik
zamzam — Makkadagi buloq nomi
zangor(i) — och havorang, moviy

zarra — 1. moddalarning ko'zga ko'rinar-ko'rinmas kichik mayda bo'lagi; 2. o'zgina, zarracha

zaxira — kelajakda foydalanish uchun g'amlab qo'yilgan narsa; tejalgan narsa

zero (ki) — chunki, negaki, sabab shuki

ziroat — 1. dehqonchilik; 2. qishloq xo'jalik ekin-lari

ziyarat — 1. muqaddas hisoblangan joyga borib sig'inish; 2. hurmat yuzasidan biror shaxsni borib ko'rish

zohid — tarki dunyo qilib, toat-ibodatga berilgan odam

zohir — sirt, sirtqi tomon, sirtqi ko'rinish

zolim — shafqatsiz, jabr-zulm qiluvchi

zog'ora — jo'xori unidan yopilgan non

zulf — soch jamalagi, kokil

O'

o'pqon — yer ostidagi suvni tortib ketadigan bo'shliq

o'tru — qarshi tomon, ro'baro'

G'

g'animat — 1. urushda yoki ovda qo'lga kiritilgan narsa, o'lja; 2. qadriga yetish lozim bo'lgan kimsa yoki narsa

g'arib — 1. hech kimi yo'q musofir; 2. kambag'al, qashshoq, faqir

g'urbat — 1. g'am-g'ussa, kulfat; 2. musofirlik

SH

shajara — ma'lum bir urug' avlodlarining kelib chiqishini izchillik bilan ko'rsatuvchi ro'yxat, silsila

shams — quyosh

sharh — biror narsaning mazmuni, mohiyatini ochib berish, izohlash

sharob — kayf qiluvchi ichimliklarning umumiy nomi; may

shavq — zo'r havas, ishtiyoq

shuaro — shoirning ko'pligi

sho'rish — 1. azob-uqubat, kulfat; 2. janjal, g'avg'o

CH

chakmon — movutdan tikilgan to'n

cherik — qo'shin, lashkar

Chin — Xitoyning Sharq mam-lakatlarida qabul qilingan nomi

chirkin — chirk bosgan, iflos

cho'lpon — yorug' tong yulduzi; Venera

chuchuk — shirin

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
I. MUSTAQILLIK OLIY NEʼMAT	
Ona tilidan oʻtilganlarni takrorlash va mustahkamlash	4
II. OʻZBEK ADABIY TILI	
1- §. Umumxalq tili va adabiy til	9
2- §. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining shakllanishi	10
3- §. Oʻzbek adabiy tilining boʻlimlari	15
III. ALIFBO BA IMLO	
1- §. Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosi	17
2- §. Oʻzbek tili imlosining asosiy qoidalari	20
3- §. Unlilar imlosi	21
4- §. Undoshlar imlosi	23
5- §. Oʻzak va qoʻshimchalar imlosi	29
6- §. Qoʻshma soʻzlar imlosi	32
7- §. Bosh harflar imlosi	37
8- §. Boʻgʻin koʻchirish qoidalari	40
IV. OʻZBEK ADABIY TILINING TALAFFUZ	
MEʼYORLARI	42
Talaffuz va ohang	47
V. SINTAKSIS VA TINISH BELGILARINING	
QOʻLLANISHI	
1- §. Tinish belgilarini qoʻllash qoidalarining asoslari	53
2- §. Sodda gaplar va ularda tinish belgilarining	
qoʻllanishi	55
Ega bilan ot-kesim orasida tirening ishlatilishi	59
Uyushiq boʻlaklarda tinish belgilari	62
Gapning ajratilgan boʻlaklari va ularda tinish	
belgilarining qoʻllanishi	71

Ajratish usullari	72
Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilarining qo'llanishi	73
Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishi	80
3- §. Qo'shma gaplarda tinish belgilari. Bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilari	87
Ergash gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi	92
Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi	96
4- §. Ko'chirma gaplarda tinish belgilari	100
Tinish belgilarining qo'llanishi bo'yicha umumiy mashqlar	106
Ona tili fanidan o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash	108
ILOVA	
MUSTAQILLIK MADHI DARSLARI	116
Ayrim qiyin so'zlarning qisqacha izohli lug'ati	120

Abdurahmonov G., Rustamov H.
Ona tili: 10- sinf uchun darslik. — Qayta ishlangan va
to'ldirilgan nashri. — T.: „O'qituvchi“, 2003. — 128 b.

I. Muallifdosh

BBK 81. 20'zb—922

G'ANI ABDURAHMONOV,

HASANBOY RUSTAMOV

ONA TILI

10- sinf uchun darslik

Toshkent „O'qituvchi“ 2003

Tahririyat mudiri *Safo Ochil*
Muharrir *G. Nasriddinova*
Badiiy muharrir *F. Nekqadamboyev*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Kompyuterda sahifalovchi *S. Musajonova*
Musahhah *A. Ibrohimov*

IB 8217

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 3. 07.2003. Bichimi 84x108 1/32.

Kegli 11,10 shponli. Tayms gam.. Ofset bosma usulida bosildi.

Bosma t. 8,0. Shartli b.t. 6,72. Nashr t. 5,4. 20 000 nusxada bosildi.

Buyurtma N 2015. Bahosi 729 so'm.

„O'qituvchi“ nashriyoti. Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30.

Shartnoma N 12—23—03.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 1- bosmaxonasida
bosildi. Toshkent, Sag'bon ko'chasi, 1- berk ko'cha, 2- uy. 2003.

"O'QITUVCHI"

